

Holiqberdiyev T.U.



**“MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI”
KURSI BO’YICHA MASALA VA
MASHG’ULOTLAR TO’PLAMI**

Toshkent-2008

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

Holiqberdiyev T.U.

**"MASHINASOZLIK TEKNOLOGIYASI" KURSI
BO'YICHA MASALA VA MASHG'ULOTLAR
TO'PLAMI**



Toshkent-2008

UDK 621.75

BBK 34.5

Holiqberdiyev T.U.

“Mashinasozlik texnologiyasi” kursi bo'yicha masala va mashg'ulotlar to'plami - Toshkent, ToshDTU, 2008 - 136 bet.

To'plam batafsil yechilgan misol va masalalarni o'z ichiga olgan. U texnologik misol va masalalarni yechishda, texnologik amallarni loyihalashda, ularni tahlil qilib iqtisodiy tejamkor va unumdon variantlarini taklif etishda, kurs ishi, loyihasi va bitiruv-malakaviy ishlarini bajarishda talabalarga yaqindan yordam beradi.

5520600-“Mashinasozlik texnologiyasi, jihozlari va mashinasozlik ishlab chiqarishlarini avtomatlashtirish” yo'naliishi va boshqa mashinasozlik yo'naliishlarining bakalavriat talabalari uchun mo'ljallangan

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashining qaroriga binoan chop etilmoqda.

Taqrizchilar:

Rahimov R.R. (Toshkent agregat zavodi)
Zoirov I.U. (ToshDTU)

Kirish

5520600- “Mashinasozlik texnologiyasi, jihozlari va mashinasozlik ishlab chiqarishlarini avtomatlashtirish” yo’nalishi bo’yicha tahsil olayotgan bakalavrлarni yetuk mutaxassis qilib tayyorlashda asosiy fan hisoblanuvchi “Mashinasozlik texnologiyasi”ni har tomonlama mukammal o’rganish, talabaning olgan nazariy bilimlarini amaliy mustahkamlash eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi zamon texnikasini va texnologiyalarini Davlat tilida o’rganish uchun, o’quv qo’llanmalar, adabiyotlar va boshqa ma’lumotnomalar yetarli emas, shuning uchun fanni chuqur va mukammal o’rgatishda katta qiyinchilik va muammolar tug’ulmoqda. Mazkur to’plamning asosiy maqsadi ham, shu muammolardan birining yechimiga qaratilgan.

To’plamda mashinasozlik texnologiyasining asosi bo’lgan “Texnologik amallarni (operatsiyalarni)” loyihalash masalasi bosh o’rinda turadi. Shuning uchun quyidagi zarur vazifa va masalalar yechimlarini batafsilroq yoritishga ko’prog e’tibor berildi:

1. Texnologik amalning nomi va mazmunini aniq ifoda qilish;
2. Ishlab chiqarish turini o’rnatish;
3. Detalga qo’yilgan texnik talablarni hisobga olgan holda texnologik bazani tanlash bo’yicha masalalar yechish;
4. Mehanik ishlov berishda texnologik o’lchamlarni hisoblash;
5. Qo’shimchlarni va chegaraviy o’lchamlarni hisoblash;
6. Kesish tartiblarini (rejimlarini) hisoblash va o’rnatish;
7. Texnologik amallarni loyihalash;
8. Metallkesuvchi dastgohlar ba’zi birlarining paspo’rtida berilganlarni keltirish.

Har bir masalani yoritishda bitta-ikkitadan misol yechib ko’rsatildi va shu misollarga oid masalalarning 10 tadan variantlari, rasmlari va jadvallarda masalalarning berilganlari keltirildi. Bu esa, talabalarga mustaqil ishlash vazifalarini berish uchun xizmat qiladi. Mazkur manbadan bakalavriat talabalari “Mashinasozlik texnologiyasi” fanidan kurs ishi, loyihasi va bitiruv-malakaviy ishlarini bajarishda foydalanishlari mumkin.

I BOB. TEXNOLOGIK AMALLARNI LOYIHALASH ASOSLARI


Texnologik jarayon strukturasining asosini texnologik amallar (operatsiyalar) tashkil qiladi. Texnologik jarayon bitta amaldan yoki birnechta (n-ta) amallar yig'indisidan ham tashkil topgan bo'lishi mumkin. Texnologik jarayonning nechta amaldan tashkil etilishi ko'p hollarda ishlab chiqarish turiga ham bog'liq. Ishlab chiqarish turi esa amallarni ish joylariga biriktirib qo'yilganligi bilan belgilangan, ya'ni amallar bog'lanish koeffitsienti (k_b) bilan. Texnologik amal, ish joyi bir-biriga uzviy bog'langan tushunchalar, ularni biz mashinasozlik texnologiyasi asoslarining nazariy qismida o'rganganmiz.

Bu yerda asosiy maqsadimiz texnologik amalning strukturasini amalda chuqurroq o'rghanishdir. Buning uchun texnologik amalning nomi va mazmunini aniq ifodalash, tuzilishini o'rnatish va uning mazmunini texnologik hujjatga yozish, ishlab chiqarish turini o'rnatish vazifalari qo'yilgan.

1.1 Texnologik amalning nomi va mazmunini aniq ifoda qilish

Texnologik jarayonlarni loyihalash, ularni amalga oshirish va texnologik hujjatlarni rasmiylashtirish kabi ishlarni bajarishda muhim texnologik jarayon strukturasini tuzishni bilish va uning elementlari nomi hamda mazmunini to'g'ri ifoda etish talab qilinadi. Bu ishlarni bajarishda GOST 3.1104-81 va 3.1702-79 talablariga rioya qilinadi.

1.1-misol. Detalni (vtulka) seriyali ishlab chiqarish sharoitida, donalab alohida kesilgan tanavor qaynoq jo'valangan prokatdan tayyorlanadi. Hamma sirtlariga bir martadan ishlov beriladi. Tokarlilik amal ikki o'rnatuvli eskiz bo'yicha bajariladi (1.1-rasm) [4].



1.1-rasm. Tokarlilik ikki o'rnatuvli amal eskizi

T a l a b e t i l a d i: amal eskizi va boshqa berilganlarni tahlil qilish; amal mazmunini o'rnatish va uning nomi va mazmunini aniq ifoda qilish; mazkur amalda tanavorga (zagotovkaga) ishlov berish ketma-ketligini o'rnatish; o'tuvlar bo'yicha amal mazmunini tasvirlash (yozish). Hamma sirtlar g'adir-budurligi $R_a = 20$ mkm.

Yechish. 1. Dastlabki berilganlarni tahlil qilib, o'rnatamiz, ko'rيلayotgan ikki o'rnatuqli amalda, tanavorning o'nbitta sirtiga ishlov berish zarur bo'ladi, buning uchun ketma-ket o'nbitta texnologik o'tuvlarni bajarish talab qilinadi.

2. Amalni bajarish uchun tokarlik yoki tokarlik-vintkesar dastgohi qo'llaniladi va amalning nomi "Tokarlik" yoki "Tokarlik-vintkesar" bo'ladi (GOST 3.1702-79). O'sha amal bo'yicha amalning guruh raqami (14) va amal raqami (63) ni aniqlaymiz.

Amal eskizlari mavjud bo'lgan holda amal mazmunini yozish uchun qisqacha yozuv shaklini qo'llash mumkin: "Uch yon sirt kesib tushirilsin", "Ikki silindrik sirt yo'nilsin", "Teshik parmalansin va yo'nilsin", "Bir ichki va ikki tashqi faskalar yo'nilsin".


3. Operatsion eskizlardan foydalaniib, o'rnatuqlar bo'yicha texnologik o'tuvlar bajarilishining ratsional ketma-ketligini o'rnatamiz. Birinchi (A) o'rnatuvdanda yon sirt 4 kesib tushirilishi, sirt 2ni yo'nish 1 yon sirtni hosil qilish bilan birga, faska 3ni yo'nish, teshik 6ni parmalash va faska 5ni yo'nish zarur. Ikkinci (B) o'rnatuvdanda yon sirt 9ni kesib tushirish, sirt 7 va faska 8ni yo'nish, ichki sirt 10ni yo'nish va yon sirt 11ni hosil qilish kerak.

4. Amallar mazmuni texnologik hujjatlarga o'tuvlar bo'yicha yoziladi: texnologik o'tuv (Tex.O') va yordamchi o'tuv (Yor.O'). O'tuvlar mazmunini aniq ifoda qilishda GOST 3.1702-79 bo'yicha qisqartirilgan yozuvdan foydalilanadi. 1.1-jadvalda ko'rيلayotgan misol yozuvi keltirilgan.

1.1-masala. Tokarlik amalining eskizi ishlab chiqilgan bajariluvchi o'lchamlari dopusklari bilan va ishlanuvchi sirtlarning g'adir-budurligi bo'yicha qo'yiluvchi texnik talablar berilgan (1.2-rasm). Har bir sirtga bir marotaba ishlov berilsin. Variant raqamlari rasmida rim raqamlarda ko'rsatilgan [4].

O'tuv raqami	O'tuvning ko'rinishi	O'tuvlarning mazmuni
1	Yor.O'	Tanavor o'rnatilsin va mahkamlansin
2	Tex.O'	4 yon sirt kesib tushirilsin
3	Tex.O'	2 sirt yo'nilsin 1 yon sirtni hosil qilish bilan birga (2 sirt yo'nishda 2 ishchi yurish amalga oshiriladi)
4	Tex.O'	3 faska yo'nilsin
5	Tex.O'	6 teshik parmalansin
6	Tex.O'	5 ichki faska yo'nilsin
7	Yor.O'	Tanavor qayta o'rnatilsin
8	Tex.O'	9 yon sirt kesib tushirilsin
9	Tex.O'	7 sirt yo'nilsin
10	Tex.O'	8 faska yo'nilsin
11	Tex.O'	10 ichki sirt yo'nilsin
12	Tex.O'	11 yon sirt kesib tushirilsin
13	Yor.O'	Detal o'lchamlari nazorat qilinsin
14	Yor.O'	Detal tushirilsin va idishga taxlansin

T a l a b e t i l a d i: dastgoh turkumini ko'rsatish; tanavorning shakl va o'lchamlarini aniqlash; bazalash sxemasini o'rnatish; eskizda barcha ishlanuvchi sirlarni nomerlab chiqish; texnologik hujjatlarga yozish uchun amallar nomlarini va mazmunlarini aniq ifoda qilish; hamma o'tuvlarning mazmunlarini to'la va qisqartirilgan shakkarda texnologik ketma-ketlikda yozib chiqish.



1.2-rasm. 1.1-masala uchun amallar eskizlari

1.2. Amal nomining tuzilishini o'rnatish va uning mazmunini texnologik hujjatga yozish

1.2-misol. Seriyali ishlab chiqarish sharoitida ishlab chiqarilishi zarur bo'lgan detalning konstruktiv elementi ajratilgan detal ishchi chizmasining ko'rinishi keltirilgan (1.3-rasm).

T a l a b e t i l a d i: birlamchi berilganlarni tahlil qilish; konstruktiv elementga ishlab chiqarish turini hisobga olgan ishlov berish usulini tanlash; metallkesuvchi dastgoh tipini tanlash; amal nomini o'rnatish; to'la shaklda amal mazmunini yozish; amal mazmuni yozuvini texnologik o'tuvlari bo'yicha aniq ifoda qilish.

Yechish. 1. Korpus chambaragiga (flanesga) $D = 200 \text{ mm}$.li aylana bo'ylab teng holatda joylashgan oltita teshik ishlanishi kerakligini o'rnatamiz.

2. Yaxlit materialda teshiklarni parmalab tayyor qilinadi.

3. Ishlov berish uchun radial-parmalash dastgohini tanlaymiz.

4. Amalning nomi (qo'llaniluvchi dastgoh tipiga mos ravishda) – "Radial-parmalash".

5. Amal mazmunini to'la shaklda yozish shunday: " $D = (200 \pm 0,2) \text{ mm}$ va g' adir-budurlik $Ra = 20 \text{ mkm}$ ushlangan holda, $d = 18H12$ oltita teshiklar ketma-ket parmalansin".

6. Texnologik o'tuvlarning mazmunini to'la shaklda yozish quyidagicha:


1 - o'tuv (yordamchi). Tanavor konduktorga o'rnatilsin va mahkamlansin.

2 - ... - 7 o'tuvlar (texnologik). $D = (200 \pm 0,2) \text{ mm}$ va g' adir-budurlik $Ra = 20 \text{ mkm}$ ushlangan holda, $d = 18H12$ oltita teshiklar konduktor bo'yicha ketma-ket parmalansin.

8 - o'tuv (yordamchi). O'lchamlari nazorat qilinsin.


9 - o'tuv (yordamchi). Tanavor tushirilsin va idishga (taraga) solinsin.

1.2-masala. Seriyali ishlab chiqarish sharoitida detallarning konstruktiv elementlariga ishlov berish bo'yicha amallarning nomi va



1.3-rasm

strukturasi o'rnatilsin (1.4-rasm). Variantlarning nomerlari rasmda rim raqamlarida ko'rsatilgan [3].



1.4-rasm. 1.2-masala uchun amallar eskizlari

1.3. Ishlab chiqarish turini o'rnatish

Texnologik jarayon ishlab chiqishning muhim bosqichlaridan biri bo'lib, ishlab chiqarish turini aniqlash hisoblanadi [4]. Bunda, asosiy mezon bo'lib, amallar bog'lanish koeffitsienti xizmat qiladi.

$$K_{b,k} = A/I, \quad (1.1)$$

bunda: A – amallar soni (bir oy muddat ichida bajariluvchi);

I – ishchi joylar soni (shu muddat ichida).

Mashinasozlik ishlab chiqarish turlari quyidagi amallar bog'lanish koeffitsientlari bilan tavsiflanadi: $K_{b,k} \leq 1$ - ommaviy ishlab chiqarish; $1 < K_{b,k} < 10$ – yirik seriyali ishlab chiqarish; $10 < K_{b,k} < 20$ – o'rta seriyali ishlab chiqarish; $20 < K_{b,k} < 40$ – mayda seriyali ishlab chiqarish; yakka ishlab chiqarish uchun $K_{b,k}$ reglamentga ega emas (GOST 14.004-83). Agar yillik dastur va buyumlarning hajmiy kattaliklari berilgan bo'lsa, 1.3-jadvaldan (pastroqqa qarang) foydalanib ishlab chiqarish turini tayinlash mumkin.

1.3-misol. Mexanika sexining uchastkasida 18 ish joyi bor. Bir oy ichida ularda 154 turli texnologik amallar bajariladi.

T a l a b e t i l a d i: uchastkadagi amallarning yuklama koeffitsientini o'rnatish; ishlab chiqarish turini aniqlash; uning ta'rifini GOST 14.004-83 bo'yicha bayon etish.

Yechish. Bog'lanish koeffitsientini (1.1) formula bo'yicha aniqlaymiz: $K_{b,k} = 154/18 = 8,56$. Bizning holatda bu shuni bildiradiki, uchastkada har bir ishchi joyga o'rtacha hisobda 8,56 amal to'g'ri keladi.

2. Ishlab chiqarish turi GOST 3.1108-74 va 14.004-83 ga qarab olinadi. Hisoblangan bog'lanish koeffitsienti 8,56 chiqdi, demak u $1 < K_{b,k} < 10$ oraliq'ida ekan, ishlab chiqarish turi – yirik seriyali bo'ladi.

3. Seriyali ishlab chiqarish cheklangan nomli buyumlari bilan tavsiflanadi, nisbatan ularning ko'p hajmda chiqarilishi bilan birgalikda; tayyorlash esa davriy qaytalanuvchi partiya bilan olib boriladi.

Yirik seriyali ishlab chiqarish, seriyali ishlab chiqarishning turlaridan biri hisoblanadi va u o'zining texnik, tashkiliy va iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha ommaviy ishlab chiqarishga yaqin turadi.

1.2-jadval (1.3-masalaning berilganları)

Variant №	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X
I-ishchi joylar soni	32	21	30	16	26	35	8	17	4	48
A-amallar soni	1200	204	517	801	24	339	25	7	182	822

1.3-masala. Uchastkadagi ishchi joylar (I) va ularda bir oy ichida bajariluvchi texnologik amallar soni (A) ma'lum. Variantlar 1.2-jadvalda keltirilgan.

T a l a b e t i l a d i: ishlab chiqarish turini aniqlash.

1.4-misol. O'rtacha o'lchamdagisi val detalini bir yillik ishlab chiqarish dasturi 3500 dona.

T a l a b e t i l a d i: 1.3-jadvaldan foydalanib ishlab chiqarish turini o'rnatish.

Yechish. 1.3-jadvalning «O'rtacha o'lchamdagisi buyumlar» grafasidagi sonlar bilan berilgan dasturni (3500 dona) solishtirib, yirik seriyali ishlab chiqarish turini o'rnatamiz.

1.5-misol. Mayda buyumlarga mansub boltlarni bir yillik ishlab chiqarish dasturi 420 dona.

T a l a b e t i l a d i: 1.3-jadvaldan foydalanib ishlab chiqarish turini aniqlash.

Yechish. 1.3-jadvalning «Mayda buyumlar» grafasidagi sonlar bilan berilgan dasturni (420 dona) solishtirib, mayda seriyali ishlab chiqarish turini o'rnatamiz va h.k.

1.3-jadval. Turli ishlab chiqarishlar uchun bir yilda tayyorlanuvchi bir xil nomdag'i va tip o'lchamdag'i detallar soni

Ishlab chiqarish turi	Og'ir mashina - sozlikning yirik buyumiari	O'rtacha o'lchamdag'i buyumlar	Mayda buyumlar
Yakka	< 5	< 10	< 100
Mayda seriyali	- 100	10 - 200	100- 500
O'rta seriyali	- 300	200 - 500	500 - 5000
Yirik seriyali O'mmaviy (yalpi)	-1000 1000	500- 5000 5000	5000 - 50000 50000

1.4-masala. 1.4-jadvalda turli ishlab chiqarishlar uchun buyumlarning hajmlari bo'yicha yillik dasturlari variantlari berilgan.

T a l a b e t i l a d i: ichlab chiqarish turlarini o'rnatish.

1.4-jadval (1.4-masalaning berilganlari)

Variantlar	Og'ir mashina - sozlikning yirik buyumiari	O'rtacha o'lchamdag'i buyumlar	Mayda buyumlar
I, II, III,	2	400	70
IV, V, VI, VII	600	320, 2800	60000
VIII, IX, X	80	480	3500

II BOB. BAZALASH ASOSLARI

Tanavorni dastgohga o'rnatib ishlov berish uchun avval baza tanlab, uni dastgoh moslamasiga o'rnatib mahkamlash kerak.

Baza deb, bazalashda qo'llaniladigan tanavorga yoki-buyumga tegishli tekislik, chiziq, nuqtalarga aytildi.

Bazalash deganda tanavorga ishlov berishda dastgohda unga koordinat o'qlariga yoki keskich asbobga nisbatan talab etilgan holat berishga tushuniladi. Ishlov berishning aniqligi tanavorni to'g'ri bazalashga bog'liq. Amauning bazalash sxemasini ishlab chigishda tayanch nuqtalarni tanlash va ularni moslama yoki dastgohda to'g'ri joylashtirish masalasi yechiladi.

Ishlab chiqarish sharoitida doimo ishlov berish xatoligi o'ringa ega. Bu tanavorni dastgohda talab etilgan holatda o'rnatish xatoligiga (ε_o) bog'liq, ya'ni bazalash (ε_b), mahkamlash (ε_m) va tanavorning moslamadagi holat (ε_{hx}) xatoliklariga. O'rnatish xatoligi guyidagi formula bilan ifodalanadi

$$\varepsilon_o = \sqrt{\varepsilon_b^2 + \varepsilon_m^2 + \varepsilon_{hx}^2}$$


Bu xatoliklarni kamaytirish uchun bazalash qoidalari: «olti nuqta qoidasi», «bazalar birligi» va «bazalar doimiyligi» tamoyillariga rioya gilish kerak.

2.1. Detalga qo'yilgan texnik talablarni hisobga olgan holda texnologik bazani tanlash bo'yicha masalalar yechish

2.1-misol. Korpusli detalni tayyorlash texnologik jarayonida 10 diametrli teshikni yo'nish amali ko'zda tutilgan (2.1-rasm). Teshikni bajarishda α o'lcham va detalni boshqa sirtlariga nisbatan teshikning o'zaro joylashuvi to'g'rilingiga tegishli bo'lган texnik talablarga rioya qilinishi zarur [4].

T a l a b e t i l a d i: ko'rileyotgan amal uchun texnologik baza tanlash va bazalash sxemasini ishlab chiqish.

Yechish. 1. Tanavor asosining A tekisligi konstruktiv bazalardan biri bo'lib hisoblanadi. Shu tekislikni texnologik o'rnatuv baza qilib qabul qilish va shu tanavor tagida uchta 1, 2 va 3 tayanch nuqtalar barpo etish kerak (2.1-rasm).



2.1-rasm


Texnologik yo'naltirgich baza qilib, ikkita tayanch 4 va 5 nuqtalari bilan B tekislikni qabul qilish lozim. Bu baza teshikni shu tekislikka perpendikulyar qilib ishlov berish imkonini beradi. Teshik tashqi konturiga nisbatan simmetrik joylashishini ta'minlash uchun texnologik baza sifatida V tekislikni ishlatish mumkin, ammo konstruktiv jihatdan buning uchun yarimsilindr G sirtidan foydalanish mumkin va bu maqsad uchun harakatlanuvchi prizmali moslama qo'llash lozim.

2.1 – jadval (2.1-masalaning berilganlari)

Variant	Amalning nomi	Amalning mazmuni
I	Vertikal-parmalash	Sharda teshik parmalansin
II	Tokarlik	Yuqoridaqidek
III	- " -	Sirt uzil-kesil yo'nilsin
IV, V	Doiraviy jilvirlash	Ko'rsatilgan sirtlar uzil-kesil jilvirlansin
VI, VII	Gorizontal-frezalash	Paz (ariqcha) frezalansin
VIII	Vertikal-frezalash	Yuqoridaqidek
IX	Vertikal-parmalash	2 teshik parmalansin
X	Yupqa yo'nish	2 teshikning ichi yo'nilsin

Bayon etilganlarga binoan texnologik baza qilib uchta: A, B va G tekisliklarni qabul qilamiz (2.1 - rasm).

2. Tanavorning bazalarida tayanch nuqtalari joylashtirilgan bazalash sxemasi 2.1-rasmida ko'rsatilgan.




2.2-rasm.

2.1-masala. Detalni ko'rsatilgan sirtlarini ishlov berish bo'yicha stanokli amallar uchun texnologik baza tanlash va bazalash sxemasini tuzish talab etiladi.


Variantlar 2.2 – rasm va 2.1 –jadvalda keltirilgan.

2.2.Texnologik bazani aniqlash va tanavorni bazalash sxemasini tuzishga oid masalalar yechish

2.2-misol. Talab etiladi: mavjud moslamaning o'rnatuvchi tayanch elementlarini (2.3-rasm) ko'rib chiqishni va tanavorni moslamaga mahkamlangandagi texnologik bazani tashkil etuvchilarini o'rnatish; tanavorni bazalash sxemasini ishlab chiqish va olti nuqta qoidasiga rioya qilinganlik to'g'risida xulosa chiqarish [4].



2.3-rasm




2.4-rasm

Yechish. 1. Rasmda ko'rsatilgan moslamaning o'rnatuv tayanch elementlarini aniqlaymiz: korpusni 2 tekisligini, o'rnatiluvchi silindrik barmoq 1-ni va o'rnatiluvchi kesilgan barmoq 3-ni. (2.3-rasm). Tanavorni quyidagi sirtlari texnologik baza hisoblanadi: tanavorni pastki A tekisligi va diagonali bo'yicha joylashgan ikkita aniq teshigi (2.3 va 2.4-rasmlar).

2. Aniqlangan texnologik baza va ishlatilgan o'rnatiluvchi tayanch elementlarga mos ravishda bazalash sxemasini ishlab chiqamiz (2.4-rasm); A tekislik bo'yicha bazalash uchun (o'rnatuv baza) uchta; 1, 2, 3 tayanch nuqta tashkil etilgan; birinchi teshik bo'yicha bazalash uchun (silindrik barmoq 1 yordamida) yana ikkita; 4, 5 tayanch nuqtalar hosil qilingan, ikkinchi teshik bo'yicha bazalash uchun esa, bazalashning 6-nuqtasini hosil qiluvchi kesilgan barmoq 3 qo'llaniladi.

2.2-masala. 2.5-rasmda stanokda ishlov berish uchun tanavor o'rnatilgan moslamalar tasvirlangan. Rasmdan foydalanib tanavorni bazalash uchun qabul qilingan texnologik bazani aniqlash kerak va tanavorni bazalash sxemasi tuzilsin; tayanch nuqtalari soni va ularning joylashtirilishi bo'yicha to'g'riligi to'g'risida xulosa chiqarilsin. Variant nomeri 2.5-rasmda rim raqamlari bilan ko'rsatilgan.




2.5-rasm

2.3. Bazalar va bazalash tamoyillari

Detalni tayyorlash texnologik jarayonini loyihalashda bajariluvchi o'rnatuv bazalarni (qora va toza) tanlash mas'uliyatlari va eng muhim ish hisoblanadi. U qoidalarga mos ravishda va ishlov berishning konkret sharoitini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Texnologik hujjatlarning amallar eskizlarida baza yuzalar shartli belgililar bilan belgilanadi. 2.6-rasmida tokarlik dastgohida valni bazalashning bir necha misoli ko'rsatilgan: val markazlarda (2.6-rasm,a), val cho'kuvchi old markaz qo'llash bilan markazlarda (2.6-rasm, b), val orqasidan tirab turuvchi markaz bilan o'zi markazlovchi uch quloqli patronda (2.6-rasm, d) va val o'ng uchidan ushlab turuvchi siljimas lyunet bilan o'zi markazlovchi patronda (2.6-rasm, e).



2.6-rasm. Valni tokarlik dastgohida o'rnatishning har xil sxemalari

ε_{or} o'rnatish xatoligi miqdorini [1, 2] manbadan aniqlash mumkin.

Alovida hollarda o'rnatish xatoligi quyidagi formulalar bo'yicha hisoblanadi:

aylanuvchi sirtlarni ishlashda

$$\varepsilon_{or} = \sqrt{\varepsilon_b^2 + \varepsilon_m^2 + \varepsilon_{hx}^2}, \quad (1)$$

yassi sirtlarni ishlashda

$$\varepsilon_{or} = \varepsilon_b + \varepsilon_m + \varepsilon_{hx}. \quad (2)$$


Bunda ε_b – bazalash xatoligi;

ε_m - mahkamlash xatoligi;

ε_{hx} – holat xatoligi.

Bazalash xatoligining miqdori bazalash sxemasiga binoan hisoblanadi [17].

Konstrukturlik baza bilan o'rnatuv baza bitta sirtda yotmagan hollarda (2.7-rasm.) chizma o'lchamlarini qaytadan texnologik hisoblashga to'g'ri keladi. Bu qayta hisoblash texnologik o'lcham zanjirini Yechishga olib keladi. Bu zanjir berkituvchi zvenosi o'lchami ($h=A_0$), nominal o'lchamlar tenglamasidan aniqlanadi



2.7-rasm

$$h=H-G \text{ yoki } A_0=A_1-A_2. \quad (3)$$

Bunda: $A_1 = H$ - konstrukturlik va o'rnatuv bazalarni bog'lovchi o'lcham; $A_2 = G$ - o'rnatuv bazadan ishlanuvchi sirtgacha bo'lgan texnologik o'lcham. Zanjir berkituvchi zvenosining xatoligi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi

$$\varepsilon_h = T_H + T_G, \quad \varepsilon_h = T_{A1} + T_{A2}. \quad (4)$$

Bunda $T_{A1} = T_H$ – chizma bo'yicha H o'lcham qo'yimi;

$T_{A2} = T_G$ ishlov berish usuliga bog'liq holda o'lchamlari o'rtacha iqtisodiy aniqligi me'yorlari (normativlari) bo'yicha o'rnatiluvchi, texnologik o'lcham $G = A_2$ qo'shimi.

Detallarni ishlashda quyidagi shartlar bajarilishi zarur, ya'ni

$$T_h \geq \varepsilon_h \text{ yoki } T_{AA} \geq \varepsilon_h, \quad (5)$$


bunda $T_{AA} = T_h - \text{chizma}$ bo'yicha berkituvchi zveno o'lchami qo'yimi.

2.3-misol. Tokarlik – ko'pkeskichli dastgohda pog'onali valga ishlov berish eskizida o'rnatuv bazalar tanlansin, bu bazalar asoslansin va belgilansin (2.6-rasm, b).

Yechish. Valni yo'nish uchun tokarlik-ko'pkeskichli dastgohda o'rnatishda, uning o'qiga nisbatan tanavorga to'g'ri holat berishdan tashqari tanavorni o'q yo'nalishida to'g'ri orientatsiya berish kerakki, ya'ni ishlov berish vaqtida support keskichlari bilan rostlanganligi, tanavor ishlanuvchi sirtlari bilan aniq mos tushishi zarur. Bu maqsad uchun cho'kuvchi old markaz qo'llaniladi, qaysi o'rnatuv baza sifatida markaziy teshiklarni qo'llash, balki tanavorni chap sirtini ham tayanch baza sifatida ishlatish imkonini beradi.

Agar konstrukturlik baza va o'rnatuv baza ustma-ust tushsa, bu holat detallarga ishlov berish aniqligini oshirish imkonini beradi va to'g'ri tanlangan deb hisoblanadi.

2.3-masala. Detalni ko'rsatilgan ishlov berish (2.2-jadval va 2.8-rasm.) eskizida o'rnatuv bazalar tanlansin va belgilansin.




2.8-rasm

2.2-jadval (2.3-masalaning berilganlari)

Variant	Ishlov berish amali	Rasm
1	2	2.8
1	Valning shponkali ariqchasini frezalash	2.8, a
2	Valning uchta bir xilda joylashgan shponkali ariqchalarini frezalash (bo'lувчи kallak qo'llaniladi)	2.8, b
3	Ko'ndalang teshikni parmalash	2.8, d
4	Tokarlik-vintkesar dastgohida valni yo'nish.	-
5	Teng joylashgan to'rtta teshikni bo'luvchi moslama qo'llab parmalash	2.8, e
6	Porshen yubkasini ichki yo'nish va yon sirtini kesib tushirish (porshen tanavori aniq-kokilli quyma)	2.8, f
7	Pog'onali valni ishlash tokarlik dastgohida bajariladi, gidronusxalovchi support qo'llaniladi.	-
8	Porshen yubkasini ichki yo'nish va yon sirtini kesib tushirish (tanavorni yerga quyish-noaniq)	2.8, f
9	Yassi detalda teshik parmalash	2.8, g
10	Vtulka teshigini jilvirlash dastgohida jilvirlash	-

2.4-misol. Markazlovchi bikir opravkada gayka bilan qotirilgan tanavorni tokarlik ishlov berishda (2.9-rasm) bazalash xatoligi aniqlansin. Opravka o'tqaziluvchi joyining diametri $75_{-0,022}^{+0,012}$, bazalanuvchi teshik diametri $75H (+0,030)$.




2.9-rasm

Yechish. Ishlanuvchi tashqi sirt joylashuvi aniqligiga ta'sir qiluvchi, radial yo'nalishdagi bazalash xatoligi, bazalanuvchi teshik va opravka oralig'idagi eng katta tirkishga (S_{max}) teng. Berilgan holat uchun bazalash xatoligi

$$\begin{aligned}\varepsilon_D &= S_{max} = D_{tesh.max} - D_{opr.min}; \\ \varepsilon_D &= 75,030 - 74,978 = 0,052 \text{ mm.}\end{aligned}$$

Opravkani bikir old markazga o'rnatishda o'q yo'nalihidagi bazalash xatoligi (ε_a) a o'lchamga ta'sir ko'rsatadi, markazni o'tqazish qiymati $\Delta_s (0,11 \div 0,25)$ bilan markaziy teshik o'lchamlariga bog'liq holda shartlanadi $d=10$ mm da $\Delta_s=0,18$ mm demak $\varepsilon_a = \Delta_s = 0,18$ mm.

2.4-masala. Tanavorni bazalashni qabul qilingan sharoiti bilan sirtlarga ishlov berishda, berilgan o'lchamni bajarish uchun bazalash xatoligi aniqlansin (2.10-rasm va 2.3-jadval).



2.10-rasm

2.3-jadval (2.4-masalaning berilganlari)

Variant	Tanavorni bazalash uslubi va ishlov berishning ko'rnishi	Berilgan o'lcham	Rasm
Tekislikda tashqi sirt bo'yicha			
1.	Pazni frezalashda; D=100f9	h	2.10,a
2.	Tekislikni frezalashda; D=40f8	H	2.10, b
3.	Teshikni parmalashda (detal o'qiga parallel qilib); D=60 N8	m	2.10, d
Prizmada tashqi sirt bo'yicha ($\alpha=90^{\circ}$)			
4.	Pazni frezalashda: D=100=e8	h	2.10,e
5.	Tekislik frezalashda ; D=70f9	H	2.10,f
6	Detal o'qiga parallel teshik parmalashda; D=150H7	m	2.10,g
Teshik bo'yicha			
7	Bo'luvchi kallak markazlariga o'rnatilgan ichidan siuvchi opravkada, qiya tekislikni (liskani) frezalashda; D=40e9, $\ell=100$ mkm	b	2.10,j
8	7-punktning o'zi	h	2.10,j
9	Bikir opravkada taranglik bilan ariqchani frezalashda; D=130h8, $\ell=40$ mkm	b	2.10,k
10	9-punktning o'zi	h	2.10,k

Izoh: e-teshik va tashqi sirt o'qlarining eksentrikligi;
D-tashqi sirt diametri.

III BOB. TEKNOLOGIK O'LCHAMLARNI HISOBLASH

3.1. Texnologik o'lchamlarni hisoblashning muhimligi

Texnologik o'lchamlar zanjiri ishlov berish yoki yig'ish amallarini bajarishda, jihozlarni sozlashda yoki amallararo o'lchamlarni va qo'shimplarni hisoblashda yuzalar, chiziqlar, detallar yoki buyumlar nuqtalari oralig'idagi masofani aniqlash imkonini beradi.

Bu yerda eng muhim yechim o'lchamlar zanjirlarini berkituvchi zvenolarini aniqlash hisoblanadi. Berkituvchi zveno texnologik qo'shim, sifatida ham berilishi mumkin, u, konstruktor belgilagan qo'shim bilan taqqoslanadi. Taqqoslash natijasida, tayyorlangan detallar yoki yig'ilgan mashinalar sifati to'g'risida aniq bir fikr aytish mumkin bo'ladi. Texnologik qo'shim kichik yoki hech bo'lmasganda konstruktornikiga teng bo'lishi kerak. Agar bu shartlarga rioya qilinmayotgan bo'lsa, detallarni tayyorlash texnologik jarayonini o'zgartirish (yoki davom ettirish) zarur.

O'lchamlar zanjirlari yordami bilan hisoblashlarda ba'zi bir qoidalarni qo'llash zarur. O'lchamlar zanjiri tashkil etuvchi zvenosini uzaytirilishi natijasida berkituvchi zveno uzaysa, bu zveno kattalashtiruvchi zveno deb ataladi va Δ bilan belgilanadi. O'lchamlar zanjiri tashkil etuvchi zvenosini uzaytirish bilan berkituvchi zveno kichiklashsa, bu zveno kichiklashtiruvchi zveno deb yuritiladi va Δ bilan belgilanadi. Tayyorlanuvchi detal yoki yig'iluvchi mashina uchun kattalashtiruvchi yoki kichiklashtiruvchi zvenolar ko'rinishidagi bo'laklarni tasvirlovchi tegishli zanjirli sxemalar tuziladi.

O'lchamlar zanjirlari yordamida, qoida bo'yicha ikkita masala yechiladi. Birinchidan, berkituvchi zvenoning berilgan parametrlari bo'yicha tashkil etuvchi zvenolarning parametrlari aniqlanadi (to'g'ri masala yechiladi). Ikkinchidan, tashkil etuvchi zvenolarning berilgan parametrlari bo'yicha berkituvchi zvenoning parametrlari aniqlanadi (teskari masala yechiladi), ya'ni "Maksimum-minimum" usulida tekshiruv hisobi bajariladi.

Zvenolar o'lchamlarining og'ishlari ikki usulda hisoblanadi:

Birinchisi "Maksimum-minimum" usuli deb ataladi. Bunda, hisoblashlarda og'ishlarning maksimal yoki minimal qiymatlari

hisobga olinadi, ular doimo ishchi chizmalarda yoki texnik talablarda ko'rsatilgan bo'ladi. Bu usul hisoblashlarni sezilarli soddalashtiradi, biroq uning aniqligi bu holda nisbatan past bo'lishi mumkin, chunki nominal miqdordan faktik og'ishlar emas, balki chegaraviyleri hisobga olinadi [3,4].

Ikkinchisi "Ehtimollik" usuli deb ataladi. U chegaraviylarni emas, balki o'lchamlarni taqsimlanish qonunlari asosida ko'proq ehtimol og'ishlarni hisobga oladi. Bu usul ancha sermehnat bo'lishiga qaramay, ko'proq aniq usul hisoblanadi.

O'lchamlar zanjirlari nazariyasining asosiy tenglamasi quyidagicha

$$A_o = \sum_{i=1}^{m-1} A_i \quad (3.1)$$

Kattalashtiruvchi va kichiklashtiruvchi zvenolarni hisobga olib, (3.1) formulani quyidagicha ifodalaymiz

$$A_o = \sum_{i=1}^n \bar{A}_i - \sum_{n+1}^{m-1} \bar{A}_i , \quad (3.2)$$

bunda: n- kattalashtiruvchi zvenolar soni; m- zanjir zvenolarining umumiy soni, berkituvchi zveno bilan birgalikda.

Berkituvchi zvenoning eng katta va eng kichik chegaraviy o'lchamlari quyidagi formulalardan topiladi

$$A_o^{\max} = (A_1^{\max} + A_2^{\max} + \dots + A_n^{\max}) - (A_{n+1}^{\min} + A_{n+2}^{\min} + \dots + A_{m-1}^{\min})$$

$$A_o^{\min} = (A_1^{\min} + A_2^{\min} + \dots + A_n^{\min}) - (A_{n+1}^{\max} + A_{n+2}^{\max} + \dots + A_{m-1}^{\max})$$

U holda berkituvchi zveno qo'shimi

$$(IT)A_o = A_o^{\max} - A_o^{\min} \text{ yoki } (IT)A_o = \sum_{i=1}^{m-1} (IT)A_i \quad (3.3)$$

Berkituvchi zvenoning quyi va yuqori chegaraviy o'lchamlari quyidagi formulalardan topiladi:

$$ESA_o = \sum_{i=1}^n ESA_i - \sum_{n+1}^{m-1} EIA_o \quad (3.4)$$

$$EIA_o = \sum_{i=1}^n EIA_i - \sum_{n+1}^{m-1} ESA_i \quad (3.5)$$

Dopusk maydoni o'rtasining koordinatasini aniqlaymiz.

i-zveno qo'shim maydoni o'rtasining $E_s A_i$ koordinatasi deb, uning nominal qiymatidan shu zveno o'lchami qo'shim maydoni o'rtasida turuvchi masofaga aytildi (8-rasm).

$$E_c A_i = \frac{(ESA_i + EIA_i)}{2} :$$


chegaraviy og'ishlar

$$ESA_i = EcAi + (IT)Ai / 2 ; EIA_i = EcAi - (IT)Ai, \text{ shu kabi}$$

$$ESA_o = EcAo + (IT)Ao / 2 ; EIA_o = EcAo - (IT)Ao / 2 \quad (3.6)$$

Berkituvchi zveno o'lchami qo'shim maydoni o'rjasining EcAo koordinatasini quyidagi formula bo'yicha topamiz

$$E_c A_0 = \sum_{i=1}^n E_c \bar{A}_i - \sum_{n+1}^{m-1} E_c \bar{A}_i \quad (3.7)$$



3.1-rasm. Qo'shim maydoni o'rjasining koordinatasini aniqlash sxemasi

A_o -berkituvchi zveno nominal o'lchamini, uning (IT) Ao qo'shimini, ESAo va EIAo chegaraviy og'ishlarini va EcAo qo'shim maydoni o'rjasining koordinatasini aniqlash uchun "Maksimum-minimum" usulidan foydalanamiz.

O'lchamlar zanjirini hisoblash tartibi bilan tanishish uchun (3.2) va (3.3) masalalar yechimlari bilan tanishib chiqamiz.

3.2. Mexanik ishlov berishda texnologik o'lchamlarni hisoblash

3.2-misol. **A** tekislikni silindrik frezalashda o'rnatuv baza sifatida **B** tekislik qabul qilingan. O'lchamlarni chizmada qo'yilishining tahlili bo'yicha (3.2-rasm), konstrukturlik baza qilib **B** tekisligi qabul qilingan. Chizma bo'yicha h o'lcham dopuski T_h ushlanadi-mm, uni aniqlang va chizma talabini qondiruvchi tadbirni ko'rsating.

Yechish. Texnologik o'lcham zanjirida **A** tekisligiga ishlov berishda berkituvchi zveno bo'lib, o'lcham $h(A_0)$ hisoblanadi va bu o'lcham miqdorining o'zgarishi (ε_h) xatolik quyidagi o'lcham zanjiri tenglamasidan $A_0 = A_1 - A_2$ ($h = H - G$) berkituvchi zveno qo'shami to'g'risidagi qoidaga mos ravishda 4-formula bo'yicha aniqlanadi.

G o'lchamni T_h - qo'shami sifatida **G** o'lchamga rioya qiluvchi iqtisodiy aniqligi normativini olish maqsadga muvofiq tekislikni ko'rsatilgan usul bilan ishlov berishda, bizning misolimizda 0,1 mm ni

tashkil etadi. Bu holda h o'lcham xatoligi shunday aniqlanadi: $\varepsilon_h = 0,28 + 0,1 = 0,38$. Bu chizma qo'shimidan ($T_h = 0,2 \text{ mm}$) katta, bunday bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yish mumkin emas.

$\varepsilon_h \leq T_h$ shartiga erishish uchun quyidagi tadbirlarni qo'llashni taklif etish mumkin:

1. Konstruktoring oldiga h

o'lcham aniqligini pasaytirish mumkinligi to'g'risidagi savolini qo'yish, ya'ni h o'lcham qo'shimini chizmada $T_h = 0,38 \text{ mm}$ gacha kengaytirish.


Bu chizmada h o'lchamni $h = 10^{+0,38} \text{ mm}$ o'lchamga o'zgarishi bilan ifodalanadi.

2. Agar A tekisligini frezalash jarayonini saqlab qolsak va texnologik nuqtai nazardan B va V tekisliklarini oldingi ishlov berish hisobiga, H o'lcham dopuski $0,1 \text{ mm}$ -dan oshmasligiga riox qilsak, unda $\varepsilon_h = T_H + T_G$ $\varepsilon_h = 0,1 + 0,1 = 0,2 \text{ mm}$.ga teng.

Demak, H o'lcham aniqligi $h9$ kvalitet bo'yicha $H=25 h9$ (-0,084) yoki $H=25_{-0,1}$ o'lchamga riox qilgan holda aniqlanadi.

3. Agar ruxsat etilsa, A tekisligi frezalashdan keyin yassi jilvirlash dastgohida uzl-kesil jilvirlansa, unda bu jarayon iqtisodiy aniqligi yuqori va $0,03 \text{ mm}$.ni tashkil etadi. H o'lcham aniqligi esa $0,17 \text{ mm}$.gacha ruxsat etilishi mumkin, bu esa 10 kvalitet $H = 25 H10 (-0,140)$ aniqlikka mos (yaqin) keladi.

4. Ishlab chiqarish dasturi yyetarlicha bo'limganda, ya'ni yakka va mayda seriyali ishlab chiqarishlarda, dastgohlarni sozlashni to'xtatib, ishlov berish o'lchamlarini individual olish usuliga o'tish mumkin, masalan, «Aniqlikka erishguncha ishlov berish va o'lchash» usuliga. V tekisligidan o'lchanuvchi har bir detalni, alohida h o'lchami aniqligiga riox qilgan holda ishlov berish zarur.




3.2-rasm

3.1-masala. 3.3-rasm va 3.1-jadvalda berilganlar bo'yicha texnologik o'lchamlarni hisoblang. Chizmalar talabini qondiruvchi tadbirlarlarni ko'rsating [4].

3.1 – jadval (3.1-masalaning berilganlari)

Vari ant	Ko'rsatilgan sirtga ishlov berish usuli	Rasm	N, L yoki D, mm	h yoki ℓ , mm
1.	Yon sirtli freza bilan vertikal frezalash dastgohida frezalash	3.2, a	80h8	30 h9(A*za)
2.	1-punktning o'zi	"-	100 h8	40±0,1
3.	Tokarlik dastgohida burchakka o'rnatish bilan ichki yo'nish	3.2, b	100 f9	45±0,05
4.	3-punktning o'zi	"-	90 ^{+0,1}	50±0,03
5.	Doiraviy jilvirlash dastgohida bo'g'in yon sirtini jilvirlash	3.2, d	120±0,5	65-0,3
6.	5-punktning o'zi	"-	70 V9	30 h9
7.	Tokarlik dastgohida chiqiq yon sirtini kesib tushirish	3.2, e	170 h9	80±0,2
8.	7-punktning o'zi	"-	120 h9	65±0,03
9.	Urib tushiruvchi dastgohida maydonchani urib tushirish	3.2, f	70 h9	40±0,2
10.	9-punktning o'zi	"-	105 h9	50±0,2



3.3-rasm

3.2-masala. O'lchamlar zanjiri 3.4-rasmda ko'rsatilgan [3]. Tashkil etuvchi zvenolarning qiymatlari, mm da:

$$A_1 = 35^{+0,16}; A_2 = 60_{-0,3}; A_3 = 20^{+0,13}; A_4 = 40^{+0,16}.$$

Nominal o'lchamni (3.2) formula bo'yicha aniqlaymiz

$$Ao = (60+20) - (35+40) = 5 \text{ mm.}$$

Berkituvchi zveno qo'shimini (3.3) ifodaga binoan topamiz,
 $(IT)Ao = 0,16 + 0,3 + 0,13 + 0,16 = 0,75 \text{ mm}$ ga teng

Berilgan sharoit uchun tashkil etuvchi o'lchamlarning chegaraviy og'ishlari mm - da quyidagi qiymatlarga ega bo'ladi:


$$ES35=+0,16; ES60=0; ES20=+0,13; ES40=+0,16,$$

$$EI35=0; EI60=-0,3; EI20=0; EI40=0.$$

(3.4) va (3.5) formulalar bo'yicha quyidagilarni olamiz

$$ESAo=(ES60+ES20)-(EI35+EI40)=(0+0,13)-(0+0)=+0,13 \text{ mm},$$

$$EIAo=(EI60+EI20)-(ES35+ES40)=(-0,3+0)-(0,16+0,16)=-0,62 \text{ mm}.$$



3.4 -rasm. a-detal eskizi va b-o'lchamlarning zanjir sxemasi

Shunday qilib, berkituvchi zveno o'lchami

$$A_0 = 5^{+0,13}_{-0,62} \text{ mm}, \quad (3.6)$$

formula bo'yicha hisoblangan, qo'shim maydoni o'rtasining koordinatasi esa

$$E_c A_0 = ESA_0 - \frac{(IT)A_0}{2} = 0,13 - \frac{0,75}{2} = -0,245 \text{ mm}$$

Amaliy maqsadlar uchun berkituvchi zveno o'lchamini qo'shim qiymati bo'yicha tashkil etuvchi zvenolar qo'shimlarini hisoblash juda ham muhim. Bunday hisoblashlar ko'pincha sinash maqsadida bajariladi. O'lchamlar zanjirini hamma tashkil etuvchi zvenolariga shunday qo'shimlar tayinlanadiki, ularni ushslash texnologik qiyinchiliklarni vujudga keltirmaydi. Bundan keyin (3.3) va (3.7) formulalar bo'yicha berkituvchi zveno o'lchamini qo'shim maydoni va shu maydon o'rtasining koordinatasi aniqlanadi. Olingan qiymatlardan berkituvchi zveno o'lchami va uning qo'shim maydoni o'rtasi koordinatasini talab etilgan konstrukturlik qo'shimlar bilan

taqqoslanadi. Agar berkituvchi zvenoning olingen parametrlari konstruktorlik qo'shildan ortsa, unda bitta yoki bir nechta tashkil etuvchi zvenolar o'lchamlarining qo'shimplari kamaytirilib qat'ylashtiriladi. Bundan keyin esa o'lchamlar zanjiri qayta hisoblanadi. Shunday qilib, ketma-ket yaqinlashish usuli bilan izlangan qo'shimplar o'rnatiladi.

Bayon etilgan uslub, yana ham takomillashtirilishi mumkin. Bu yerda bitta zvenodan tashqari, hamma zvenolar uchun qo'shimplar bir qancha qat'ylashtiriladi. Oxirgini rostlovchi zveno deb yuritiladi Rostlovchi zvenoning (IT)A_r qo'shimini quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi

$$(IT)A_r = (IT)A_0 - \sum_{n=1}^{m-2} (IT)A_i \quad (3.8)$$

kattalashtiruvchi rostlovchi zveno qo'shim maydoni o'rtasining koordinatasi

$$E_c \bar{A}_r = E_c A_0 - \sum_{i=1}^n E_c \bar{A}_i + \sum_{n+1}^{m-2} E_c \bar{A}_i \quad (3.9)$$

Kichiklashtiruvchi rostlovchi zveno qo'shim maydoni o'rtasining koordinatasi.

$$E_c \bar{A}_r = \sum_{i=1}^n E_c \bar{A}_i + \sum_{n+1}^{m-2} E_c \bar{A}_i - E_c A_0 \quad (3.10)$$

Rostlovchi sifatida o'lchamlar zanjirining har qanday tashkil etuvchi zvenosi qo'llangan bo'lishi mumkin, biroq ko'pincha u shunday tanlanadiki, unda berilgan ishlab chiqarish sharoitida ko'proq qat'iy qo'shimni ushslash va o'lhash oson bo'ladi. Agar o'lchamlar zanjirida zvenolar ko'p bo'lsa, unda tashkil etuvchi zvenolarga ko'proq qat'iy qo'shimplarni birlamchi tayinlashni yengillashtirish uchun hisobning boshidayoq \overline{IT} o'rtacha qo'shimni quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi

$$\overline{IT} = (IT)A_0 / (m-1) \quad (3.11)$$


Bundan keyin esa, ishlab chiqarish sharoitini hisobga olgan holda o'rtacha qo'shim u yoki bu tomonga o'zgartiriladi (korrektirovka qilinadi). O'rnatilgan qo'shimplar va chegaraviy og'ishlarni yakuniy tekshirish (3.3) va (3.7) formulalar bo'yicha olib boriladi.

Taklif etilgan uslubni, amaliy qo'llash to'g'risidagi savolni (masala 3.3 da) ko'rib chiqamiz (3.5-rasm).

3.3. O'lchamlar zanjirlarini hisoblash tartibi

1. Qismning berilgan chizmasi bo'yicha uning berkituvchi zvenosini aniqlash.
2. Tashkil etuvchi zvenolarni aniqlash.
3. Zanjir eskizi va sxemasini tuzish.
4. Berkituvchi zveno qo'shimini belgilash.
5. Texnologik amallarni va zanjirni tashkil etuvchi zvenolarning qo'shimlarini belgilash.
6. Uzatma nisbatini aniqlash.
7. Zanjir tenglamasini tuzish.
8. Berkituvchi zveno o'lchamining nominal qiymatini aniqlash.
9. Zanjir tashkil etuvchi zvenolar qo'shimplari maydonlari o'rtasining koordinatalari $E_c A_i$ ni aniqlash.
10. Berkituvchi zveno o'lchamining taqsimlanish maydoni o'rtasining koordinatasi $E_c A_0$ ni aniqlash.
11. Berkituvchi zveno o'lchami taqsimlanish maydonining yarmi Δ ni aniqlash.
12. Aniqlikka erishish usulini topish.
13. Kompensatsiyalash miqdori va usulini aniqlash.
14. Kompensatsiyalash jarayonida berkituvchi zveno og'ish maydoni o'rtasining koordinatasi Δk ni aniqlash.
15. Kompensator o'lchamlarining YuChk va QuChk og'ishlarini aniqlash.
16. Zanjir tashkil etuvchi zvenolar o'lchamlari va ruxsat etilgan og'ish chegaralarini belgilash [2]-da bat afsil bayon etilgan.

3.3-masala. 3.5-rasm, a da tishli uzatma ajraluvchi korpusning qismi keltirilgan [2]. Detallar chiziqli o'lchamlarining qo'shimplari va chegaraviy og'ishlarini o'rnatish zarur bo'lsin, A_o tirkishni $1,0 \dots 1,75$ mm oralig'ida ta'minlash sharti bilan. Chiziqli o'lchamlar quyidagicha: $A_1=140$ mm, $A_2=5$ mm, $A_3=101$ mm, $A_4=50$ mm. O'lchamlar zanjirini berkituvchi zvenosi bo'lib, $A_o=1+0,75$ mm tirkish hisoblanadi (3.5-rasm, b), uning uchun qo'shim (IT) $A_o=0,75$ mm, $ES A_o=+0,75$ mm, $EIA_o=0$, $Es A_o=+0,375$ mm.



3.5-rasm. a-tishli uzatma korpusining o'lchamlik qismi va b-o'lchamlarning zanjirli sxemasi.

Yechish: Qo'shimning o'rtacha miqdori (3.11) formula bo'yicha

$$\overline{(IT)} = 0,75 / 6-1 = 0,15 \text{ mm},$$

3.5-rasm, a da keltirilgan detallar uchun o'rtacha qo'shimning shunday qiymati 11-kvalitet aniqlikdagi qo'shimplarga mos keladi. Bu yerda detallarni tayyorlashda hech qanday texnologik qiyinchiliklar kelib chiqmaydi. Shunga bog'liq holda detallarni hamma o'lchamlariga 11-kvalitet aniqlikdagi qo'shimplar tayinlash mumkin. Unda quyidagi qiymatlarni mm.da olamiz: $A_1=140_{-0,25}$, $A_2=5_{-0,075}$, $A_3=101^{+0,22}$, $A_4=50^{+0,16}$, $A_5=5_{-0,075}$.

(3.3) formula bo'yicha tekshirish ko'rsatadiki o'lchamlar o'zgarishi $A_0=0,25+0,075+0,22+0,16+0,075=0,78 \text{ mm}$ ga teng, ya'ni qo'shim qiymatidan katta va uzatma ishlamaydigan bo'lib qoladi.

Bunday holda, zanjirdagi zvenolarning birortasiga olgan aniqlik, hamma zvenolariga qabul qilingan 11 kvalitet dopusklaridan ham aniqroq bo'lgan ishlov berish yangi qo'shimni tayinlash zarur. Bunday zveno sifatida $A_1=140 \text{ mm}$ o'lchamni tanlab olamiz. Bu o'lchamni bajarish va o'lchash ham qiyinchilik tug'dirmaydi. Bu o'lcham qo'shimi ham, boshqa zvenolar qo'shimplariga qaraganda eng kattasi ekan, uni biroz kichraytirish texnologik jarayonini prinsipial o'zgartirmaydi. Urda zveno A_1 rostlovchi bo'lib qoladi. Uning yangi qo'shimi (3.8) formula bo'yicha aniqlaymiz.

$$(IT)A_1=0,75-(0,075+0,22+0,16+0,075)=0,22 \text{ mm}$$

A_1 zveno kichiklashtiruvchi hisoblanadi. (3.10) ifodaga binoan uning qo'shim maydoni o'rtasi

$$E_s \bar{A}_1 = (0,11 + 0,08) - (-0,0375 - 0,0375) = -0,11 \text{ mm}$$

A_1 rostlovchi zvenoning chegaraviy qiymatlari

$$ESA_1 = -0,11 + \frac{0,22}{2} = 0; \quad EIA_1 = -0,11 - \frac{0,22}{2} = -0,22 \text{ mm}$$

Shunday qilib, rostlovchi zveno o'lchami $A_1 = 140_{-0,22}$ mm xatolikka yo'l qo'ymaslik uchun hisoblarni (3.2) formula bo'yicha tekshiramiz.


$$A_0^{\max} = (A_3^{\text{ax}} + A_4^{\text{ax}}) - (A_1^{\min} + A_2^{\min} + A_5^{\min}) = (101,22 + 50,16) - (139,78 + 4,925 + 4,925) = 1,75 \text{ mm};$$

$$A_0^{\min} = (A_3^{\min} + A_4^{\min}) - (A_1^{\max} + A_2^{\max} + A_5^{\max}) = (101 + 50) - (140 + 5 + 5) = 1,0 \text{ mm}, \text{ demak, hisoblashlar to'g'ri bajarilgan.}$$

Keltirilgan hisoblash "maksimum-minimumim" usuli bo'yicha olib borildi. Bu usulning jiddiy kamchiligi tashkil etuvchi zvenolar dopusklarini ularni soniga proporsional ravishda qat'iylashtirish zarurligi hisoblanadi. Shuning uchun zvenolar soni ko'p bo'lganda ularning qo'shmlari ham juda qat'iyashgan bo'ladi va ularga rioya qilish katta texnologik qiyinchiliklarni chaqiradi. Bu usulni zanjirda ikkita, uchta tashkil etuvchi zvenolar qatnashganda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Ko'p zvenoli zanjirlarni hisoblashda bu usul yo'llanma beruvchi taxminiy texnologik hisoblashlar uchun yaroqli deb qarash lozim bo'ladi.

4.1. Umumiy holat

Dastlabki tanavorni to'g'ri tanlash detalni tayyorlash texnologik jarayonini texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Dastlabki tanavorni loyihalashga jiddiy etibor berish kerak, ya'ni uning shakli, o'lchamlarini ruxsat etilgan og'ishlari bilan, mexanik ishlov berish qo'shimlari, materialining qattiqligi uning texnik talablariga javob berishi zarur.



4.1-rasm.

Dastlabki tanavorning o'lchamlarini o'rnatish shundan iboratki, detalning tashqi sirtlari o'lchamlariga mexanik ishlov berishning umumiyoq qo'shimlari qo'shiladi, ichki sirtlari o'lchamlaridan esa ayrıldi. O'lchamlari d_d ; D_d va L_d (4.1-rasm) vtulka uchun dastlabki tanavor o'lchamlari shunday aniqlanadi:

$$d_u = D_d + 2Z_{umD}; \quad (4.1)$$

$$D_u = D_d - 2Z_{umD}; \quad (4.2)$$

$$L_u = L_d + Z_{umL1} + Z_{umL2}, \quad (4.3)$$

bu yerda Z_{umD} , Z_{umL} – tanavorga mexanik ishlov berishning umumiyoq qo'shimlari (tomonlarini): tashqi, ichki va yon sirtlarini. Tanavorning har bir sirtiga ishlov berishda u o'lchamlarining talab etilgan aniqliklariga qarab ishlov berish usullariga ajratiladi: qora, yarim toza, toza va pardozlov. Bularga ishlov berish ketma-ket bir nechta texnologik o'tuvlarda (yakka va mayda seriyali ishlsb chiqarishda) yoki har birini alohida amallarda (seriyali, yirik seriyali va ommaviy ishlab chiqarishlarda) amalga oshiriladi. Shunga qarab aniglanuvchi qo'shimlar ham o'tuvlararo yoki amallararo qo'shimlarga ajratiladi. Bularning yig'indisi umumiyoq qo'shim hisoblanadi.

O'tuvlararo qo'shimlar ikki usulda o'rnatilishi mumkin:

- 1) tajribaviy-statistik usul, qo'shim me'yoriy hujjatlar va ma'lumotnomalar jadvallaridan foydalanib aniqlanadi;
- 2) hisoblash-analitik (prof. V.M. Kovan) usuli ko'p omillarni hisobga olish bilan.

Turli sirtlarga ishlov berish uchun qo'shimlarni hisoblashda quyidagi formulalardan foydalaniladi:

aylanuvch sirtlarga markazlarga o'rnatilmay ishlov berish holatlari uchun:

$$2Z_{nomi} = 2(R_{zi-1} + h_{nuqi-1} + \sqrt{\Delta_{i-1}^2 + \varepsilon_i^2}) + T_{i-1}; \quad (4.4)$$

aylanuvch sirtlarga markazlarga o'rnatib ishlov berish holatlari uchun:

$$2Z_{nomi} = 2(R_{zi-1} + h_{nuqi-1} + \Delta_{i-1}) + T_{i-1}; \quad (4.5)$$

yassi sirtlar uchun:

$$Z_{nomi} = R_{zi-1} + h_{nuqi-1} + \Delta_{i-1} + \varepsilon_i + T_{i-1}; \quad (4.6)$$

Ikkita yassi sirtlarga bir vaqtida parallel ishlov berish uchun:

$$2Z_{nomi} = 2(R_{zi-1} + h_{nuqi-1} + \Delta_{i-1} + \varepsilon_i) + T_{i-1}, \quad (4.7)$$

bu yerda R_{zi-1} – oldingi o'tuvdan keyin hosil bo'lgan g'adir-budurliklarning o'rtacha balandligi [11]; h_{nuqi-1} – oldingi o'tuvdan keyin olingan nuqsonli qatlam qalinligi (chuqurligi), masalan quymaning qattiq jildi, uglerodsizlangan yoki zirxlangan qatlam (bu qatlam cho'yan detallar uchun ikkinchi o'tuvdan keyin hisobga qo'shilmaydi va po'lat detallar uchun termik ishlovdan keyin [11]); Δ_{i-1} – oldingi o'tuvdan keyin hosil bo'lgan o'zaro bog'langan sirtlarning to'g'ri shaklidan fazoviy og'ishlarining (bukchayishi, eksentrikligi va boshq.) yig'indi qiymati (fazoviy og'ishning qiymati har bir o'tuvdan keyin kamayib boradi: $\Delta_1=0,06\Delta_u$; $\Delta_2=0,05\Delta_1$; $\Delta_3=0,04\Delta_2$. Tanavor bikir emas mahkamlansa yoki asbob suzuvchi moslamada bo'lsa $\Delta_{i-1}=0$); ε_i – bajarilayotgan mazkur o'tuvdag'i o'rnatish xatoligi. Bu xatolikning formulasi yuqorida keltirilgan.

O'tuvlar aro qo'shim va qo'yimlarning joylashish sxemalari pastda 4.2-rasmida keltirilgan.

4.2. Qo'shimlarni va chegaraviy o'lchamlarni hisoblash tartibi

Texnologik o'tuvlar bo'yicha ishlov berish va chegaraviy o'lchamlar uchun oraliq qo'shimlarni hisoblash tartibi quyidagicha [16,19]: Tashqi va ichki yuzalar uchun (Izoh-belgisiz raqamlar ikkala holat uchun, *-shu belgi qo'yilgan raqam faqat ichki yuzalar uchun tegishli).

1. Ishlanuvchi tanavor uchun o'rnatuv bazalar va ishlov berish texnologik marshruti belgilansin.
2. hisoblash xaritaga, ishlanuvchi elementar yuzalar va har bir elementar yuzalar bo'yicha ishlov berish tartibi yozilsin.
3. R_{i-1} , h_{i-1} , Δ_{i-1} , ε_i , qiyatlari yozilsin.
4. Hamma texnologik o'tuvlar bo'yicha ishlov berish uchun $Z_{im\min}$ qo'shimplarni hisoblash miqdorlari aniqlansin.
5. Oxirgi o'tuv uchun «hisoblanuvchi o'lcham» grafasiga, chizma bo'yicha detalning eng kichik chegaraviy o'lchami yozilsin.
- 5*. Oxirgi o'tuv uchun «hisoblanuvchi o'lcham» grafasiga, chizma bo'yicha detalning eng katta chegaraviy o'lchami yozilsin.
6. Oxiridan avvalgi o'tuv uchun, hisoblanuvchi $Z_{im\min}$ qo'shim chizma bo'yicha eng kichik chegaraviy o'lchamga qo'shish yo'li bilan hisoblash o'lchami aniqlansin.
- 6*. Oxiridan avvalgi, o'tuv uchun, hisoblanuvchi $Z_{im\min}$ qo'shim chizma bo'yicha eng katta chegaraviy o'lchamidan ayirish yo'li bilan hisoblash o'lchami aniqlansin.
7. Har bir avvalgi o'tuv uchun hisoblanuvchi o'lchamga qo'shish yo'li bilan undan keyin keluvchi oraliq o'tuvini hisoblash $Z_{im\min}$ qo'shimplni hisoblash o'lchamlari ketma-ket aniqlansin.
- 7*. Har bir avvalgi o'tuv uchun hisoblanuvchi o'lchamdan ayirish yo'li bilan undan keyin keluvchi aralash o'tuvni hisoblash $Z_{im\min}$ qo'shimplni hisoblash o'lchamlari ketma-ket aniqlansin.
8. Hamma texnologik o'tuvlar bo'yicha kichik chegaraviy o'lchamlari yozilsin, hisoblash o'lchamlarini oshirish yo'li bilan ularni yaxlitlab, har bir o'tuv uchun o'lcham qo'shimi qanday berilgan bo'lsa, o'nli kasrini o'sha qiyatgacha yaxlitlansin.
- 8*. Hamma texnologik o'tuvlar bo'yicha katta chegaraviy o'lchamlar yozilsin, hisoblash o'lchamlarini kamaytirish yo'li bilan ularni yaxlitlab, har bir o'tuv uchun o'lcham qo'shimi qanday berilgan bo'lsa, o'nli kasr o'sha qiyatgacha yaxlitlansin.
9. Yaxlitlangan kichik chegaraviy o'lchamga dopuskni qo'shish yo'li bilan katta chegaraviy o'lchamlar aniqlansin.
- 9*. Yaxlitlangan katta chegaraviy o'lchamdan qo'shimplni ayirish yo'li bilan kichik chegaraviy o'lchamlar aniqlansin.

10. Qo'shimlarning chegaraviy qiymatlari Z_{\max} eng katta chegaraviy o'lchamlarning ayirmasi kabi va Z_{\min} avvalgi va bajariluvchi o'tuvlarning eng kichik chegaraviy o'lchamlarining ayirmasi kabi yozilsin.

10*. Qo'shimning chegaraviy qiymatlari Z_{\max} eng kichik chegaraviy o'lchamlarining ayirmasi kabi va Z_{\min} avvalgi va bajariluvchi o'tuvlar eng katta chegaraviy o'lchamlari ayirmasi kabi yozilsin.

11. Oraliq qo'shimni qo'shib, Z_{\max} va Z_{\min} umumiy qo'shimlar aniqlansin.

12. Qo'shimlar $Z_{\max} - Z_{\min}$ va qo'yimlar $T_a - T_v$ ayirmalarini taqqoslash yo'li bilan olib borilgan hisoblashlar to'g'riliqi tekshirilsin. bu yerda oraliq qo'shimlarning ayirmasi oraliq o'lchamlar qo'shimlarning ayirmasiga teng bo'lishi kerak, umumiy qo'shimlarning ayirmasi tanavor va tayyor detal o'lchamlari qo'shimlarning ayirmasiga teng bo'ladi.

Izoh: Hisoblashlarda tashqi yuzalarni alohida va ichki yuzalarni alohida guruhlashtirish maqsadga muvofiqdir.

4.1-misol. Texnologik o'tuvlar bo'yicha qo'shimlarni va chegaraviy o'lchamlarni hisoblash xaritasiga; 1-detali, diametri Ø50_{-0.05} mm.li valni (materiali po'lat 40) qo'shimini hisoblash uchun, valning bo'yni Ø50_{-0.05} mm li diametr o'lchami elementar sirt bo'lisin. Bu sirt bo'yicha elementar o'tuvlarni quyidagi 4.1-qo'shim hisoblash xaritasining yuqori qismiga rasmiylashtirildi [11].

4.2-misol. 4.2-rasmda ko'rsatilgan korpusni diametri Ø50H9_(+0.062) mm li teshigiga ishlov berish uchun o'tuvlar aro qo'shilmalarni va chegaraviy o'lchamlarini hisoblang. Qolgan (2.3.4) ishlanuvchi sirtlarga qo'shim va qo'yimlarni GOST 1855-95 bo'yicha tayinlang.

Tanavori 1-sinf aniqligidagi quyma tanavor, massasi 3,5 kg.li Ø50H9_(+0.062) mm teshikka ishlov berish texnologik marshruti ikki amaldan iborat: qora va toza ichki yo'nish, detalni bir o'rnatishda bajariladi. Tanavor uchun baza xizmatiini asosining yassi sirti va Ø10H7 mm.li ikkita teshik bajaradi. Ishlov berishdagi o'rnatish sxemasi 3.6-rasmda ko'rsatilgan. Ø50H9_(+0.062) mm.li detal teshigiga ishlov berish qo'shilmalarining hisobi 4.1-jadvalda qo'shim hisoblash xaritasining pastki qismida keltirilgan.

4.1-jachval, qo'sham hisoblash (Sritasi)

Ushbuha Sesimchali surʼi ve noga lebni zengi mashinchi	Qo'sham elementlari, T-25				Qo'sham elementlari T-25	Hishabchi zayniga shaxsh keltirishda, maz o'libetirish, maz	Qo'sham elementlari T-25	Hishabchi zayniga shaxsh keltirishda, maz	Qo'sham elementlari T-25	Hishabchi zayniga shaxsh keltirishda, maz
	Hz	n	4	5						
Slobodzilgur	200	300	70	-	-	57,0	200	52,00	-	-
Totegi, yozish	9	9	25	-	140	21,35	90	20,40	3100	1600
Qora	25	25	-	-	220	30,10	120	31,10	690	300
Tora	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Izvish	10	15	-	-	100	20,00	100	20,00	120	100
Shub	5	5	-	-	90	49,95	50	49,95	100	90
Tora	-	-	-	-	-	-	-	-	4000	2000
Tanor:	300	300	224	-	-	48,00	400	41,69	33,00	-
o'libetirish: lebni	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Ye'sash:	30	30	-	15	127	32,00	160	49,77	49,30	1600
Zora:	-	-	-	6	120	32,05	60	30,00	50,05	230
Tora...	-	-	-	-	-	-	-	-	-	2310
										1970

Hisobni tekshirish val. T-25-T-35 = 2000-50=1950 = ZL max.Zumin=4000-2050=1950.
Yulka. Tdz.Tdd = 400. 60 = 240 =ZL max.Zumin=2310.1970 = 340

Yechish. Quyma detallar sirtlari sifatini tavsiflovchi Rz va T larning yig'indi qiymati 600 mkm. Birinchi texnologik o'tuvdan keyin T ning qiymati quyma cho'yan uchun hisoblashda inobatga olinmaydi, shuning uchun qora va toza ichki yo'nish uchun 4.5 - jadvaldan topamiz [19], ya'ni faqat Rz qiymati (tegishlicha 50 va 20 mkm), ularni hisoblash xaritasiga yozib qo'yamiz. Mazkur turkumdag'i tanavor uchun fazoviy og'ishlarning yig'indi qiymati quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi

$$\rho_z = \sqrt{\rho_{buk}^2 + \rho_{sil}^2},$$

Teshik bukchayishi uning diametral hamda o'q kesimi bo'yicha hisobga olinishi lozim, shuning uchun $\rho_{buk} = \sqrt{(\Delta bd)^2 + (\Delta b\ell)^2} = \sqrt{(0,7*50)^2 + (0,7*100)^2} = 78$ mkm.

Quymaning bukchayish ulushini 4,8-jadvaldan topamiz (d va l – ishlanuvchi teshik diametri va uzunligi) [7,19]. Berilgan mazkur holatda ρ_{sil} ni aniqlashda, mazkur o'rnatuv sxemada qo'llaniluvchi va oldingi amallarda olingan, mazkur o'rnatishda ishlanuvchi sirtga nisbatan, bazaviy sirtlarning joylashish aniqligini inobatga olish lozim.

Ya'ni, agar 2 asos tekisligiga ishlov berishda (B) $47_{-0.25}$ o'lchamni olish uchun baza teshik bo'lsa, unda keyingi 2 sirtga nisbatan teshikning joylashish xatoligi T uchun yuqorida keltirilgan formula bo'yicha aniqlangan bo'lar edi.

I-sinf quyma uchun 47 mm li o'lcham dopuski T=400 mkm (2.4-jad.).

Bir marta frezalashda 11 kvalitet olish mumkin 0,16 mm qo'shim bilan, binobarin, $T=(0,4+0,16)/2=0,28$ mm.

Agar 2 sirtga ishlov berishda baza bo'lib qandaydir tashqi sirt xizmat qilgan bo'lsa, sterjenning siljishini hisobga olish lozim, u tashqi sirtga nisbatan teshikni shakllantiradi. Bu siljish quymadagi nominal o'lchamdan chetga chiqishi kabi aniqlanishi qabul qilingan, tegishli sinf aniqlikdagi o'lcham qo'shimi sifatida aniqlanuvchi.

Shu fikrni gorizontal tekislikdagi (G) o'lcham xatoligini aniqlashda ham inobatga olish lozim, ya'ni shuningdek, tanavor teshigi holatini tashqi sirtga nisbatan chetga chiqishini. Chunki Ø10H7 teshikni parmalash va razvertkalashda baza sifatida quymaning yon

Dz nom tanavor nominal o'lchami 53,00 mm
Dz max tanavor maksimal o'lchami 54,00 mm
Dz min tanavor minimal o'lchami 52,00 mm
Tz tanavor qo'shimi 2000 mkm
d1 max qora yo'nish o'lchami 50,90 mm
d1 min qora yo'nish o'lchami 50,40 mm
T1 qora yo'nish dopuski 500 mkm
d2 max loza yo'nish o'lchami 50,25 mm
d2 min loza yo'nish o'lchami 50,10 mm
T2 loza yo'nish dopuski 150 mkm
d3 max shilish o'lchami 50,10 mm
d3 min shilish o'lchami 50,00 mm
T3 shilish dopuski 100 mkm
d4 max detal max o'lchami 50,00
d4min detal min o'lchami 49,95
T4 detal dopuski 50 mkm


a)

d1 max loza ichki yo'nish o'lchami 50,06 mm
d1 min loza ichki yo'nish o'lchami 50,00 mm
T1 loza ichki yo'nish dopuski 62 mkm
dmax qora ichki yo'nish o'lchami 49,93 mm
dmin qora ichki yo'nish o'lchami 49,77 mm
T2 qora ichki yo'nish dopuski 160 mkm
Dz max tanavor maksimal o'lchami 48,10 mm
Dz nom tanavor nominal o'lchami 47,90 mm
Dz min tanavor o'lchami 47,70 mm
Tz tanavor qo'yimi 400 mkm

2Zch max qora ichki yo'nish uchun 2080 mkm
2Zch min qora ichki yo'nish uchun 1840 mkm
2Zch max loza ichki yo'nish uchun 230 mkm
2Zch min loza ichki yo'nish uchun 120 mkm

b)

4.2-rasm. Ø50 _{-0,05} mm.li val bo'yni va diametri Ø50H9 ^(+0,062) mm korpusli detal teshigiga ishlov berishda qo'shim va qo'shimplar joylashishining grafikaviy sxemasi: a)-valniki: b)-korpus teshiginiki



4.3-rasm. Korpus Ø50H9 teshigini ishlashda
o'rnatuv sxemasi va chizmasi

sirti qo'llanilgan, mazkur o'rnatuvda ishlanuvchi Ø50H9 teshikni Ø10H7 bazaviy teshiklarga nisbatan joylashish xatoligini aniqlash uchun quyma (G) o'lchamining qo'yimi bilan aniqlanuvchi sterjen siljishini quymaning tashqi sirtiga nisbatan qabul qilish lozim.

Quymada, uning tashqi sirtiga nisbatan teshikning yig'indi siljishini hisobga olib, ikki o'zaro perpendikulyar tekislikdagi geometrik yig'indi deb qarab, quyidagini olamiz

$$\rho_{sil} = \sqrt{\left(\frac{Tb}{2}\right)^2 + \left(\frac{Tg}{2}\right)^2} = \sqrt{200^2 + 200^2} = 284 \text{ mkm},$$

bunda Tb va Tg – mazkur quyma aniqligi sinfiga tegishli bo'lган (2.4-jad. qar.) (B) va (G) o'lchamlar qo'shimlari.

Shunday qilib, tanavor fazoviy chetga chiqishining yig'indi qiymati

$$\rho z = \sqrt{284^2 + 78^2} = 294 \text{ mkm.}$$

Qora ichki yo'nishdan keyingi qoldiq fazoviy chetga chiqish
 $\rho_1 = 0.05$ $\rho_3 = 0.05 * 294 = 15 \text{ mkm.}$

Qora ichki yo'nishdagi o'rnatuv xatoligi

$$\varepsilon_1 = \sqrt{\varepsilon_b^2 + \varepsilon_m^2}.$$

Mazkur holatda bazalash xatoligi tanavorni moslama barmoqlariga o'rnatishda uning gorizontal tekisligida qiyshayishi hisobiga sodir bo'ladi. Qiyshayish bu holda, o'rnatiluvchi teshiklar diametri katta chegaraviy o'lchamidan barmoq tayanchlar diametri kichik chegaraviy o'lchamlarini ayirimasidan hosil bo'lgan tirkish hisobiga vujudga keladi.

Teshiklar va barmoqlar orasidagi katta tirkish

$$S_{\max} = T_A + T_B + S_{\min},$$

Bunda T_A – teshikning qo'shimi: $T_A = 15 \text{ mkm} = 0,015 \text{ mm}$; T_B – barmoq diametrining qo'shimi: $T_B = 15 \text{ mkm} = 0,015 \text{ mm}$; S_{\min} – teshik va barmoq diametrлari orasidagi minimal tirkish: $S_{\min} = 13 \text{ mkm} = 0,013 \text{ mm.}$

$$2z_{ch\ min2} = 50,06 - 49,93 = 0,13 \text{ mm} = 130 \text{ mkm};$$

$$2z_{ch\ max2} = 50,00 - 49,77 = 0,23 \text{ mm} = 230 \text{ mkm};$$

Qora ichki yo'nish uchun

$$2z_{ch\ min1} = 49,93 - 48,09 = 1,84 \text{ mm} = 1840 \text{ mkm}$$

Bu holda barmoqlardagi tanavorning burilish burchagi quyidagi ifodadan topilishi mumkin

$$tg\alpha = \frac{0,015 + 0,015 + 0,013}{\sqrt{70^2 + 80^2}} = 0,0004.$$

Ishlov beriluvchi L uzunlikdagi teshikning bazalash xatoligi

$$\varepsilon_b = L * tg\alpha = 100 * 0,0004 = 0,04 \text{ mm} = 40 \text{ mkm.}$$

Tanavorni mahkamlash xatoligi (4.13-jad.ga qar.) $\varepsilon_m = 120 \text{ mkm}$ deb qabul qilamiz. Unda qora ichki yo'nishdagi mahkamlash xatoligi

$$\varepsilon_2 = \sqrt{40^2 + 120^2} = 127 \text{ mkm.}$$

Toza ichki yo'nishda qoldiq o'rnatish xatoligi

$$\varepsilon_3 = 0,05 \varepsilon_1 + \varepsilon_{toz} \approx 6 \text{ mkm.}$$

Binobarin, qora va toza ichki yo'nish bir o'rnatuvda bajarilgani uchun $\varepsilon_{to'x} = 0$ bo'ladi.

4.1-jadval qo'shilma hisoblash xaritasiga yozilgan berilganlarga asoslanib, asosiy formuladan foydalanim amallararo qo'shimlari minimal qiymatlarini hisoblaymiz

$$2z_{min} = 2(R_{zi-1} + T_{i-1} + \sqrt{\rho_{i-1}^2 + \varepsilon_i^2}).$$

Ichki yo'nish uchun minimal qo'shim :
qora

$$2z_{min1} = 2(600 + \sqrt{294^2 + 127^2}) = 2 * 920 = 1840 \text{ mkm};$$

toza

$$2z_{min2} = 2(50 + \sqrt{15^2 + 6^2}) = 2 * 66 = 132 \text{ mkm}.$$

4.1-jadval qo'shilma hisoblash xaritasiga "Hisobli minimal o'lcham" (d_h) grafasi oxirgi (mazkur holatda chizmadagi) o'lchamidan har bir texnologik o'tuv uchun hisoblangan minimal qo'shimni ketma-kebet ayirish bilan to'ldiriladi.

Shunday qilib, oxirgi o'tuvdan keyin (mazkur holda toza ichki yo'nishdagi 50,062 o'lcham) hisobli (chizmaniki) o'lchamga ega bo'lgan holda, qolgan o'tuvlar uchun quyidagilarni olamiz:
qora ichki yo'nish uchun $d_{h1}=50,062-1,132=49,93 \text{ mm}$;
tanavor uchun $d_{h3}=49,93-1,84=48,09 \text{ mm}$.

Har bir texnologik o'tuv dopuskining qiymati, jadvallar bo'yicha u yoki boshqa ko'rinishdagi ishlov berish aniqligi kvalitetiga mos ravishda qabul qilinadi.

Shunday qilib, toza ichki yo'nish uchun qo'shim qiymati $T_t=62 \text{ mkm}$ (chizma o'lchami); qora ichki yo'nish uchun qo'shim qiymati $T_q=160 \text{ mkm}$; 1-sinf aniqligidagi quyma teshik uchun GOST 1855-55 bo'yicha $T_z=400 \text{ mkm}$.

"Qabul qilingan o'tuvlar o'lchamlari (yuzlar xonasigacha yaxlitlangan)" grafasida katta miqdor (d_{max}) hisobli o'lchamlar bo'yicha tegishli o'tuv qo'shimi aniqligigacha olinadi. Kichik chegaraviy o'lcham (d_{min}) tegishli o'tuvlar qo'shimlarini katta chegaraviy o'lchamlaridan ayirish orqali aniqlanadi.

Shunday qilib, ichki toza yo'nish uchun katta chegaraviy o'lcham-50,062 mm, kichik chegaraviy-50,062-0,062=50,00 mm; qora ichki yo'nish uchun katta chegaraviy o'lcham-49,93 mm, kichik

chegaraviysi-49,93-0,16=49,77 mm; tanavor uchun katta chegaraviy o'lcham-48,09 mm, kichik chegaraviysi-48,09-0,4=47,69 mm.

Qo'shimplarning minimal chegaraviy qiymatlari $Z_{ch\min}$ bajarilayotgan va oldin bajarilgan o'tuvlar katta chegaraviy o'lchamlarining ayrimasiga teng, maksimal qiymatlari esa $Z_{ch\max}$ – mos ravishda kichik chegaraviy o'lchamlar ayrimasiga teng.

Bu holda toza ichki yo'nish uchun

$$2Z_{ch\max} = 49,77 - 47,69 = 2,08 \text{ mm} = 2080 \text{ mkm.}$$

Hisoblashlarning barcha natijalari 4.1-jadval, qo'shilma hisoblash xaritasiga kiritilgan.

Jadval va analitik hisoblashlar natijalari bo'yicha $\varnothing 50_{-0,05}$ mm li val bo'yniga va $\varnothing 50H9$ teshikka ishlov berish bo'yicha qo'shilmalar va qo'shimplar joylashish grafikaviy sxemalarini quramiz (3.5-rasm).

Umumiy $Z_{u\min}$ va $Z_{u\max}$ qo'shimplarni o'tuvlararo qo'shimplarni qo'shish bilan aniqlaymiz va ularning miqdorlarini hisoblash xaritasining tegishli grafalariga yozamiz:

$$2Z_{u\min} = 130 + 1840 = 1970 \text{ mkm};$$

$$2Z_{u\max} = 230 + 2080 = 2310 \text{ mkm.}$$

Umumiy nominal qo'shilma

$$Z_{u\text{ nom}} = 2Z_{u\min} + T_z - T_d = 1970 + 200 - 0 = 2110 \text{ mkm};$$

$$d_{3\text{ nom}} = d_{d\min} - Z_{u\text{ nom}} = 50 - 2,1 = 47,90 \text{ mm.}$$

Bajarilgan hisoblashlarning to'g'riligini tekshiramiz:

$$Z_{ch\max} - Z_{ch\min} = 230 - 130 = 100 \text{ mkm}; T_1 - T_2 = 160 - 60 = 100 \text{ mkm};$$

$$Z_{ch\max} - Z_{ch\min} = 2080 - 1840 = 240 \text{ mkm}; T_z - T_1 = 400 - 160 = 240 \text{ mkm.}$$

Korpusning qolgan ishlanuvchi sirtlarining qo'shilma va qo'shimplarini (GOST 1855-55) jadvallaridan tanlab olib, ularning miqdorlarini quyidagi 4.2-jadvalga yozamiz.

4.2-jadval

Ishlanuvchi sirt	O'lcham	Qo'shim		Qo'shim
		jadvalni	hisobli	
1	$\varnothing 50$	2,2,0	2,1,06	$\pm 0,2$
2	$\varnothing 79$	2,0	-	$\pm 0,3$
3,4	$\varnothing 100$	2,0	-	$\pm 0,3$

V BOB. KESISH TARTIBLARINI O'R NATISH

5.1. Umumiy ma'lumot

Kesish tartiblarining elementlarini tayinlashda ishlov berish xarakteri, asbobning tipi va o'lchamlari, uning kesuvchi qism materiali, tanavorning materiali va holati, dastgohning tipi va holati hisobga olinadi.

Kesish tartibining elementlari odatda pastda ko'rsatilgan ketma-ketlikda o'rnatiladi.

Kesish chuqirligi (t). Qora (dastlabki) ishlov berishda t ni imkon qadar maksimal, qo'shimga teng yoki unung kattaroq qismiga teng qilib tayinlanadi; t o z a (yakuniy) ishlov berishda - o'lchamlar aniqligi va ishlangan sirtlarning g'adir-budurligi talablariga bog'liq holda tayinlanadi.

Surish (s). Qora (dastlabki) ishlov berishda DMAD tizim bikirligi va mustahkamligi, dastgoh uzatmasinung quvvati, qattiq qotishmali plastinkaning mustahkamligi va boshqa cheklovchi omillardan kelib chiqqan holda (s) imkon qadar maksimal tanlanadi; t o z a (yakuniy) ishlov berishda - aniqligi va ishlangan sirtlarning g'adir-budurligi talab etuvchi darajasiga bog'liq holda tayinlanadi.

Kesish tezligi (v). Har bir ishlov berishning ko'rinishiga bog'liq bo'lgan empirik formulalar bo'yicha (v) hisoblanadi. Ishlov berish usullari tezligining umumiy formulasi

$$v_{jad} = \frac{C_v}{T^m t^s s^v}. \quad (5.1)$$

C_v koefitsient qiymati va bu formulalar o'z ichiga olgan daraja ko'rsatkichlar, shuningdek mazkur ishlov berish uchun qo'llaniluvechi asbob turg'unlik davri T , har bir ishlov berishning ko'rinishlari uchun jadvallarda keltirilgan [11]. Jadvallarda berilgan kesish chuqurligi t , surish s va asbob turg'unligi T lar bilan hisoblangan tezlik (v_{jad}) ham ma'lum ishlov berish sharoiti uchun jadvaliy tezlik hisoblanadi. Shuning uchun barcha omillarni hisobga olgan haqiqiy tezlikni o'rnatish uchun jadvalli tezlikni tuzatuvchi koefitsient kiritilgan.

$$v_{xag} = v_{jad} K_v, \quad (5.2)$$

bu yerda K_v – qator koeffitsientlar ko'paytmasining umumiysi.

Turli ishlov berish uchun ularning umumiylari va ahamiyatlilari:

K_{mv} –ishlanuvchi material sifatini hisobga oluvchi koeffitsient

([11] -4-jad.);

K_{sv} –tanavor sirtlari holatini tasvirlovchi koeffitsient ([11] 5-jad.);

K_{av} –asbob materiali sifatini hisobga oluvchi koeffitsient ([11] 6-jad.);

Asbobning turg'unligi (T). Tanavorga ishlov berishda asbobning turg'unlik davrini hisobga olish katta ahamiyatga ega. Ko'pchilik asboblarning turg'unligi bir asbobli ishlov berish uchun keltirilgan. Ko'p asbobli ishlov berish uchun asboblarning turg'unlik davrini oshirish sarur. Turg'unlikni oshirish uchun har xil sharoitlarni hisobga oluvchi tuzatish koeffitsientlari kiritilgan [11]. Masałan:

ko'pkeskichli ishlov berish uchun

$$T_{ku} = T T_{ka}, \quad (5.3).$$

ko'p dastgohli ishlov berish uchun

$$T_{kd} = T K_{Td}, \quad (5.4)$$

bu yerda T –limitga ega asbobning turg'unligi; K_{Td} – ko'pkeskichli ishlov berishda asbob turg'unlik davrining o'zgarish koeffitsienti (7-jad.); K_{Td} – ko'p dastgohli ishlov berishda asbob turg'unlik davrining o'zgarish koeffitsienti (8-jad.).

Yo'nishda kesish kuchi (P). Qabul qilingan kesish kuchi Σ , dastgoh koordinata o'qlari bo'yicha yo'naltirilgan (P_z tangensial, P_r radial va P_x o'q bo'ylab). Bo'ylama va ko'ndalang tashqi yo'nishda: ichki yo'niib kengaytirishda, kesib tushirishda, ariqchalar ochishda va shakldor-fasonli ishlov berishda bu tashkil etuvchilar quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi

$$P_{z,y,x} = 10C_p t^x s^y v^n K_p. \quad (5.5)$$

Kesib tushirish, ariqcha ochish va fasonli yo'nishlarda t – keskich tig'ining uzunligi.

C_p doimiy koeffitsient va x, y, n daraja ko'rsatkichlar ma'lum (hisoblash) sharoit uchun kesish kuchining har bir tashkil etuvchisi 22-jadvalda keltirilgan [11].

K_p tuzatish koeffitsienti kesishning faktik sharoitini hisobga oluvchi bir nechta koeffitsientlar ko'paytmasidan iborat ($K_p = K_{mp}K_{\varphi p}K_{vp}K_{\lambda p}K_{rp}$). Bu koeffitsientlarning son qiymatlari 9-, 10- va 23- jadvallarda berilgan [11].

Kesish quvvati (N). Kesish quvvati, kVt , quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi

$$N = \frac{P_v}{1020.60}. \quad (5.6)$$

Bir nechta asboblarning bir vaqtida ishlashidagi samarali quvvati alohida asboblarning yig'indi quvvati kabi aniqlanadi [11].

Asosiy vaqt (T_a). Yo'nishdagি asosiy vaqt

$$T_a = \frac{L \cdot i}{n \cdot s} \text{ min.} \quad (5.7)$$

Bu yerda L -keskichning bir o'tishda bosib o'tgan yo'li

$$L = l + y + \Delta \text{ mm};$$

l - tanavorning ishlanuvchi sirti uzunligi (chizma bo'yicha olinadi); y - keskichning tanavorga kirish masofasi mm; Δ - keskichning tanavordan chiqib to'xtash masofasi mm; i - o'tuvlar soni; n - dastgoh shpindelining bir daqiqada haqiyqiy aylanishlar chastotasi min/ayl. (dastgoh pasportidan olinadi); s - kesich yoki stol surilish qiymati mm/min.

Ma'lum ishlov berish sharoitlari uchun kesish tartiblarini hisoblash va o'rnatishlarni yuqorida ba'yon etilgan tartibga rioya qilib bajarish, quyidagi misol va mashg'ulotlarni yechishda keltirilgan. Har bir misolning yeshimida foydalanimuvchi manbaning tartib raqami berilgan.

5.2. Kesish tartiblarining elementlarini aniqlash

5.1-misol. Tokarlik dastgohida $d = 55$ mm.li teshikni $D = 60$ mm-gacha yo'nib kengaytirishda kesish chuqurligi t ni aniqlang.

Yechish. Bir yurishli yo'nishda kesish chuqurligi

$$t = \frac{D - d}{2} = \frac{60 - 55}{2} = 2,5 \text{ mm.}$$

5.2-misol. Tokarlik dastgohida $D = 150$ mm.li tanavorni ikki o'tuvli yo'nishda kesish chuqurligi t ni aniqlang.

Dastlabki o'tuvda tanavor $D_d = 142$ mm.gacha, ikkinchi o'tuvda esa $d = 140$ mm.gacha ishlov beriladi.

Yechish. Dastlabki yo'nishda kesish chuqurligi

$$t = \frac{D - D_d}{2} = \frac{150 - 142}{2} = 4 \text{ mm.}$$

Yakuniy yo'nishda

$$t = \frac{D_d - d}{2} = \frac{142 - 140}{2} = 1 \text{ mm.}$$

5.1-masala. Tokarlik dastgohida D (mm.li) tanavorni ikki o'tuvli yo'nishda kesish chuqurligi t ni aniqlang.

Dastlabki o'tuvda tanavor D_d (mm.gacha), ikkinchi o'tuvda esa d (mm.gacha) ishlov beriladi (5.1-jadval).

5.1-jadval (5.1-masala uchun berilganlar)

Variant	D	D_d	d	Variant	D	D_d	d
1	188	182	180	6	87	81,5	80
2	67	61,5	60	7	216	208	205
3	56	51	50	8	50	43,5	42
4	120	114	112	9	140	132	130
5	95	88,5	87	10	73	66,5	65

5.3-misol. Tokarlik dastgohi shpindelning aylanishlar soni $n = 1000$ ayl/min bilan tanavorni yo'nishida s_m minutli surilishi aniqlansin; shpindelning bir aylanishdagi keskichning surilishi $s = 0,26$ mm/ayl.

Yechish. Keskichning minutli surilishi

$$s_m = s \cdot n = 0,26 \cdot 1000 = 260 \text{ mm/ayl.}$$

5.2-masala. Tokarlik dastgohi shpindelning aylanishlar soni n (ayl/min) bilan tanavorni yo'nishida s_m minutli surilishi aniqlansin; shpindelning bir aylanishdagi keskichning surilishi s (mm/ayl) 5.2-jadvalda keltirilgan.

5.2-jadval (5.2-masala uchun berilganlar)

Variant	n , ayl/min	s , mm/ayl	Variant	n , ayl/min	s , mm/ayl
1	400	0,61	6	1600	0,17
2	630	0,43	7	860	0,3
3	200	0,37	8	160	0,95
4	315	0,7	9	1250	0,23
5	250	0,78	10	500	0,52

5.4-misol. Diametri $D = 120$ mm.li tanavorga shpindelining aylanishlar soni $n = 500$ ayl/min bo'lgan tokarlik dastgohida ishlov berish tezligi aniqlansin.

Yechish. Yo'nishdagi kesish tezligi

$$v = \frac{\pi Dn}{1000} = \frac{3,14 \cdot 120 \cdot 500}{1000 \cdot 1000} = 189 \text{ m/min} (\approx 3,2 \text{ m/s})$$

5.3-masala. Diametri D (mm) li tanavorga shpindelining aylanishlar soni n (ayl/min) bo'lgan tokarlik dastgohida ishlov berish tezligi aniqlansin (5.3-jadval).

5.3-jadval. (5.3-masalaning berilganları)

Variant	D , mm	n , ayl/min	Variant	D , mm	n , ayl/min
1	80	860	6	180	315
2	150	315		30	2000
3	45	1600	8	95	630
4	70	1250		110	400
5	220	250	9	60	1000

5.5-misol. Tokarlik dastgohida diametri $D = 80$ mm tanavorni $v = 215$ m/min (~3,6 m/s) tezlik bilan yo'nishida shpindelning aylanishlar soni topilsin.

Yechish. Tokarlik dastgohi shpindelining aylanishlar soni

$$n = \frac{1000 \cdot v}{\pi \cdot D} = \frac{1000 \cdot 215}{3.14 \cdot 80} = 860 \text{ ayl/min}$$

5.4-masala. Tokarlik dastgohida diametri D (mm) tanavorni v (m/min) tezlik bilan yo'nishida shpindelning aylanishlar soni n (ayl/min) topilsin (5.4-jadval).

5.4-jadval (5.4-masalaning berilganlari)

Variant	D, mm	v		Variant	D, mm	v	
		m/min	m/s			m/min	m/s
1	140	88	1,47	6	64	200	3,33
2	37	233	3,80	7	160	80	1,33
3	90	177	2,95	8	54	170	2,84
4	120	119	1,98	9	43	216	3,6
5	72	208	4,67	10	210	133	2,22

5.6-misol. Valning $D = 70$ mm.li bo'yinini $d = 64$ mm.gacha $l = 200$ mm butun uzunligi bo'yicha bo'ylama yo'nishda sarflanuvchi asosiy vaqt aniqlansin.

Dastgoh shpindeli aylanishlari soni $n = 600$ ayl/min; surish $s = 0,4$ mm/ayl. Bir o'tuvda ishlov beriladi. Keskich o'tuvchi plandagi asosiy burchagi $\varphi = 45^\circ$.

Yechish. Yo'nishdagi asosiy vaqt

$$T_a = \frac{L \cdot t}{n \cdot s}.$$

Shart bo'yicha formulaga kiruvchi hamma qiymatlar ma'lum. keskichning o'tuv uzunligi $L = l + y + A$ dan tashqari, bunda keskichning kesib kirish masofasi $y = t \cdot ctg \varphi$; keskichning chiqib to'xtash masofasi $A = 1\dots3$ mm.

O'tuvlar soni $i = 1$ da kesish chuqurligi

$$t = \frac{D - d}{2} = \frac{70 - 64}{2} = 3 \text{ mm};$$

bu holda $y = 3 \cdot ctg 45^\circ = 3 \cdot 1 = 3 \text{ mm}$.

Keskich chiqib to'xtash masofasini $A = 2$ mm qabul qilamiz.

Shunday qilib,

$$L = 200 + 3 + 2 = 205 \text{ mm.}$$

$$T_a = \frac{205,1}{600,0,4} = 0,85 \text{ min.}$$


5.6-masala. Valning D (mm-li) bo'yinini d (mm-gacha) l (mm) butun uzunligi bo'yicha bo'ylama yo'nishda sarflanuvchi asosiy vaqt T_a aniqlansin. Dastgoh shpindeli aylanishlar soni n (ayl/min); surish s (mm/ayl). Bir o'tuvda ishlov beriladi. Keskich o'tuvchi plandagi asosiy burchagi φ (5.5-jadval).

5.5-jadval (5.6-masala uchun berilganlar)

Variant	D	d	l	n, ayl/min	s, mm/ayl	φ°
	mm					
1	54	50	200	1000	0,32	45
2	118	110	350	315	0,52	60
3	80	75	130	800	0,43	90
4	72	71	60	1250	0,21	30
5	90	82	150	630	0,57	60
6	43	40	55	1600	0,26	45
7	64	60	89	1000	0,34	90
8	37	35	45	2000	0,17	45
9	158	150	480	250	0,61	60
10	142	140	75	500	0,28	30

5.3. Tashqi va ichki yo'nish uchun kesish tartiblarini o'rnatish

5.7-misol. 16K20 tokarlik-vintkesar dastgohida bo'yni $D = 68$ mm.li valni butun uzunligi bo'yicha qora yo'nib $d = 62h12_{(-0,30)}$ mm. ga keltirilmoqda. Ishlanuvchi sirtning uzunligi $l = 280$ mm; valning uzunligi $l_1 = 430$ mm. Tanavorning - mustahkamlik chegarasi $\sigma_v = 700 \text{ MPa}$ ($\sim 70 \text{ kgk/mm}^2$) bo'lgan 40X po'latli pokovka. Tanavorni mahkamlash usuli- markazlarda va yetaklovchi patronda. Dastgoh-asbob-tanavor tizimi yetarli bikir emas. Sirtning g'adir-budurlik parametri $R_z=80$ mkm. Ishlov berish eskizi 5.1-rasmda berilgan. Aniqlanishi zarur: Keskich asbobni tanlab olish; kesish tartiblarihi tayinlash (me'yorlash jadvallarini qo'llash bilan); asosiy vaqtini aniqlash.



5.1-rasm. Tashqi ishlov berish eskizi

Yechish. ([13] me'yor bo'yicha). 1. Keskich tanlab olamiz va uning geometrik parametrlarini o'rnatamiz. Plastinka materiali-T15K10 markali qattiq qotishma (I-ilova, 352-b.); ushlagich materiali-po'lat 45. Qotishma plastina ushlagich kesimi $B \times H = 16 \times 25$ mm. 16K20 dastgohining keskich tutqichidagi keskichning tayanch sirtidan markazlar chizig'igacha bo'lgan masofa 25 mm. Shuning uchun kesichni stanokni markazi bo'yicha o'rnatish uchun kesich balandligi $H = 25$ mm.ga teng bo'lishi kerak. O'tuvchi kesich uzunligi 100...250 mm oralig'ida tanlab olinadi, u asosan dastgoh kesich tutqichining o'lehamlariga bog'liq.

Keskichning geometrik parametrlarini 2-ilova (355-356 b.) bo'yicha tanlaymiz; old sirtining shakli radiusli faskasi bilan: $\varphi = 60^\circ$; $\gamma_f = -5^\circ$; $f = 0.6$ mm; $R = 6$ mm; $B = 2.5$ mm; $h = 0.15$ mm (o'yiq chuqurligi).

[13]-me'yorda berilganlar yetarli emasligi tufayli kesichning qolgan parametrlarini [16]-ma'lumotnomadan qabul qilamiz:
 $\gamma = 15^\circ$; $\alpha = 12^\circ$; $\lambda = 0$ (30-jad. 188-b.); $\varphi_I = 15^\circ$ (31-jad. 190-b.); $r = 1$ mm (32-jad. 190-b. va 4-jad. 420-b. izoh 3).

II. Kesish tartiblarini tayinlaymiz ([13]-me'yor bo'yicha).

1. Kesish chuqurligini o'rnatamiz. Ishlov berish uchun berilgan qoshimni bir o'tuvda olib tashlaymiz.

$$t = \frac{D-d}{2} = \frac{68-62}{2} = 3 \text{ mm.}$$

2. Surishni tayinlaymiz (1-xarita bo'yicha, 36-b.). Kesimi 16×25 mm keskich bilan diametri 100 mm.gacha bo'lgan konstruksion po'latli tanavorga ishlov berish uchun, kesish chuqurligi 3 mm.gacha

bo'lsa $s = 0,6 \dots 0,9$ mm/ayl. Tavsiya etilgan surishni limitlashgan omillar bo'yichi tekshiramiz.

Sirt g'adir-budurligining berilgan parametrlari uchun ruxsat etilgan (3-xarita bo'yicha, 39-b.), surishning maksimal qiyomatini topamiz. Me'yorda berilganlar bo'yicha $R_z = 80$ mkm olish uchun po'lat va cho'yanni ishlashda tavsiya etiladi, burchak $\varphi_1 = 15^\circ$ va radiusi $r = 1,5$ mm.gacha, $s = 0,7 \dots 0,9$ mm/ayl.

Keskich ushlagich mustahkamligi ruxsat beruvchi maksimal surishni topamiz (9-ilova, 385- b.): $\sigma_v = 60 \dots 92$ kgk/mm² po'lat uchun, $t = 3,5$ mm-gacha va keskich ushlagich kesimi 16×25 mm $s_{ru} = 2$ mm/ayl. Keskich keskich tutqichga normal uzunlik $l = 1,5H$ bilan o'rnatilgan deb qabul qilamiz (H-keskich ushlagich balandligi). Bu holda surishni tuzatuvchi koeffitsient $k_s = 1$ (o'sha joyda).

Qattiq qotishmali plastinka mustahkamligi ruxsat etuvchi chegarada, maksimal surishni topamiz (10-ilova bo'yicha, 387-b.).

Bu surish, bir qator omillarga bog'liq, jumladan qattiq qotishmali plastinka qalinligiga ham. Kesimi 16×25 mm.li keskich uchun $C = 4 \dots 5$ mm.li qalinlikdagi plastinkalar qo'llaniladi: $C = 4$ mm.ni qabul qilamiz. $\sigma_v = 65 \dots 87$ kgk/mm².li po'lat uchun, burchak $\varphi = 60^\circ$, $t = 4$ mm.gacha va $C = 4$ mm. $s_{ru} = 1,1$ mm/ayl.

Tanavor bikirligi ruxsat etuvchi chegarada, maksimal surishni topamiz (12-ilova bo'yicha, 392-b.). $\sigma_v = 69 \dots 82$ kgk/mm².li po'lat uchun, qo'yim maydonini $h12$ kvalitet aniqlik bo'yicha, $t = 3,8$ mm.gacha va tanavor diametri $D = 60$ mm $s_{ru} = 2,6$ mm/ayl. koeffitsientlarni hisobga olib.

Tanavor uzunligining ishlov berilgan sirti diametriga bo'lган nisbatida

$$\frac{l}{d} = \frac{430}{62} \approx 7 \quad k_l = 4,9.$$

$\varphi = 60^\circ$ da $k_\varphi = 1,41$. Berilgan ishlov berish sharoiti uchun surishning qolgan koeffitsientlari (sirpanuvchi o'tqazish va tanavor markazlarga o'tqazilgan) birga teng. Bu holda $s_{ru} = 2,6 \cdot k_l \cdot k_\varphi = 2,6 \cdot 4,9 \cdot 1,41 = 17,9$ mm/ayl. Bundan ma'lum bo'ldiki, surish zaxirasi yetarli ekan.

Shunday qilib, berilgan ishlov berish sharoiti uchun surish ishlangan sirt g'adir-budurligi $R_z = 80$ mkm bilan limitlashtirilgan,

ya'ni $S_{rxn} = 0,7 \dots 0,9$ mm/ayl. Hamma ruxsat etilgan surishlarning ichida eng kichigi bo'lib chiqdi.

Olingen surishni uzl-kesil kesishning o'q kuchi bo'yicha (surish kuchiga) stanokni surish mexanizmi mustahkamligini ruxsat etgan chegarada P_{rxn} tekshiramiz. 16K20 dastgohining $P_{rxn} = 600$ kgk. Berilgan ishlov berish sharoiti va $s_{rxn} = 0,7 \dots 0,9$ mm/ayl (7-ilova, 382, 383-b.) $\sigma_v = 68 \dots 81$ kgk/mm².li po'lat uchun, 65-155 m/min kesish tezligi oralig'ida $t = 3,4$ mm.gacha, $s = 1,8$ mm/ayl. gacha, burchak $\varphi = 60^\circ$ (yani T5K10 qotishmali keskichlar bilan konstruksion po'latni dastlbki yo'nish uchun qo'llaniluvchi diapazonda) surish kuchi 205-145 kgk.ni tashkil etadi. Berilgan ishlov berish sharoiti uchun ($\gamma = +12^\circ$, $\lambda = 0$) surish kuchini tuzatish koefitsientlari birga teng (o'sha yerda). Binobarin $P_x < P_{rxn}$ ($205 < 600$), unda surish $0,7 \dots 0,9$ mm/ayl dastgoh surish mexanizmi mustahkamligi bilan limitlashmaydi. Shunday qilib, berilgan ishlov berish sharoiti uchun qabul etilgan $0,7 \dots 0,9$ mm/ayl.li surish maksimal texnologik ruxsat etilgan hisoblanadi. O'rtacha qiymat $s = 0,8$ mm/ayl.ni qabul qilamiz.

Surishni dastgohning pasportida berilganlari bo'yicha tuzatish kiritamiz: $s = 0,8$ mm/ayl.

3. Keskichning turg'unlik davrini tayinlaymiz $T = 60$ min (31 b jadvalga qar., unda $T = 60$ min uchun kesish tezligini tuzatish koefitsienti birga teng). Qattiq qotishmali keskich orqa tomonining ruxsat etilgan yeyilishi (3-ilova, 370-b.) uglerodli va legirlangan po'latlarni qora ishlov berish uchun $h_o = 1 \dots 1,4$ mm.

4. Keskich imkon beruvchi kesish tezligini aniqlaymiz (6-xarit: bo'yicha, 44.45-b.). $\sigma_v = 63 \dots 70$ kgk/mm².li po'lat uchun $t = 4$ mm.gacha, $s = 0,97$ mm/ayl.gacha va burchak $\varphi = 60^\circ$ tashqi bo'yelma yo'nishda $v_{jet} = 73$ m/min. Xaritada kesish tezligini ishlov berish sharoiti uchun keltirilgan tuzatish koefitsienti birga teng. Demak, $v_{jet} = 73$ m/min (~ 1,21 m/s).

5. Topilgan kesish tezligiga mos keluvchi shpindel aylanishlar sonini aniqlaymiz:

$$n = \frac{1000 \cdot v_o}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 73}{3,14 \cdot 68} = 342 \text{ay//min.}$$

Shpindelning aylanishlar sonini dastgohning pasportida berilganlari bo'yicha tuzatish kiritamiz va haqiqiysini o'rnatamiz: $n_h = 315$ ayl/min.

6. Haqiqiy kesish tezligini aniqlaymiz:

$$v_h = \frac{\pi D n_h}{1000} = \frac{3,14 \cdot 68 \cdot 315}{1000} = 67 \text{ m/min} (\sim 1,12 \text{ m/s}).$$

7. Kesishga sarflanuvchi quvvatni aniqlaymiz (7-xaritadan, 48,49-b.). $\sigma_v = 59 \dots 97 \text{ kgk/mm}^2$.li po'lat uchun $t = 3,4 \text{ mm}$.gacha, $s = 0,96 \text{ mm/ayl.gacha}$ va $v = 67 \text{ m/min}$.da $N_{jad} = 4,9 \text{ kVt}$. Berilgan ishlov berish sharoiti uchun xaritada quvvat uchun keltirilgan tuzatuvchi koefitsient $k_N = 1$. Demak, $N_{kes} < N_{jad} = 4,9 \text{ kVt}$.

8. Dastgoh uzatmasining quvvati yetarli ekanligini tekshiramiz. $N_{kes} < N_{shp}$ bo'lishi zarur. Dastgoh shpindelining quvvati uzatmasi bo'yicha $N_{shp} = N_x \cdot \eta$. 16K20 dastgohini $N_x = 10 \text{ kVt}$; $\eta = 0,75$; $N_{shp} = 10 \cdot 0,75 = 7,5 \text{ kVt}$.

Yani, $N_{kes} < N_{shp}$ ($4,9 < 7,5$), demak ishlov berish mumkin.

III. Asosiy vaqtini aniqlaymiz

$$Ta = \frac{Li}{n.s},$$

bunda i – ishchi yurishlar soni.

Keskichning ishchi yurish uzunligi $L = l + y + \Delta$ mm. Keskichning tanavorga kirishi $y = t \cdot ctg \varphi = 3 \cdot ctg 60^\circ = 3 \cdot 0,58 \approx 1,7$, keskichning tanavordan chiqib to'xtashi $\Delta = 1 \dots 3 \text{ mm}$; $\Delta = 2 \text{ mm}$.ni qabul qilamiz. U holda $L = 280 + 1,7 + 2 = 283,7 \text{ mm}$; $i = 1$;


$$Ta = \frac{Li}{n.s} = \frac{283,7 \cdot 1}{315 \cdot 0,8} = 1,13 \text{ min.}$$

5.7-masala. 16K20 tokarlik-vintkesar dastgohida D mm.li tanavor valni yo'nib d mm.ga keltirilmoqda. Ishlanuvchi sirtning uzunligi l , valning uzunligi l_1 (5.6-jadvalga qarang). Aniqlanishi zarur: Keskich asbobni tanlab olish; kesish tartiblarihi tayinlash (me'yorlash jadvallarini qo'llash bilan); asosiy vaqtini aniqlash [7].

5.6-jadval (5.7-masalaning berilganlari)

Variant	Tanavor materiali	Tanavor	Tanavorni mahkam lash usuli	Ishlov berish va g'adir-hudurlik parametri, mm ²	Dastlig' -ashob-tanavor tizimi	Dastlig'	d	l	l _r	mm	
										d	l
1	Po'l'at 5, σ _v = =600 MPa (~60kgf/mm ²)	Pokovka	Markazlarda	Dastlabki yo'nish, R _s =80	O'rtacha	90	83h12	290	450		
2	Kulrang cho' yan Sch 10, HE 160	Quymma jildi	Patronda	Oldingidek Tayanchgacha yakunuy yo'nish, R _s =2	Bikir	100	92h12	40	65		
3	Po'l'at 45, σ _v = =680 MPa (~68kgf/mm ²)	Dastlabkasi ishlangan proket	Markazlarda	Quilloqqacha dastlabki yo'nish, R _s =80	Bikir emas	52,5	50e9	550	710		
4	Kulrang cho' yan Sch 20, HE 200	Quymma jildi	Patronda	Tayanchgacha yakunuy yo'nish, R _s =20	O'rtacha	90	82h12	340	400		
5	Po'l'at 40X, σ _v = =750 MPa (~75kgf/mm ²)	Shitanplangan	orqa babke markaz	Quilloqqacha dastlabki yo'nish, R _s =20	O'rtacha	122	120d11	95	250		
6	Bronza Er. AJ 9-4, HE120	dastlabki ish lov benlangan Quymma jildi	bilan iralgan Patronda	Quilloqqacha dastlabki yo'nish, R _s =80	O'rtacha	110	102h12	440	500		
7	Kulrang cho' yan Sch 30, HE220	Quymma jildsiz	Patronda	Tayanchgacha yakunuy yo'nish, R _s =2	Bikir	152	150h9	50	80		
8	Po'l'at 40XH, σ _v = =750 MPa (~75kgf/mm ²)	Pokovka	orqa babke markaz	Yuriib o'tish ga Dastlabki yo'nish, R _s =80	Bikir emas	64	57h12	400	820		
9	Siduman AL2, HE 50	Quymma jildsiz	bilan iralgan Patronda	Tayanchgacha yakunuy yo'nish, R _s =20	Bikir	160	162h11	75	105		
10	Po'l'at 20, σ _v = =570 MPa (~57kgf/mm ²)	Shitanplangan	Markazlarda	Yuriib o'tish ga Dastlabki yo'nish, R _s =80	O'rtacha	72	67h12	225	390		

5.8-misol. IK62 tokarlik-vintkesar dastgohida diametri $d = 53$ mm.li ochiq teshikni $D = 55H9^{(+0,074)}$ mm.ga kengaytirib $l = 85$ mm uzunlikda yo'nilmoqda. Ishlangan sirt g'adir-budurligi $R_a = 2\text{mkm}$. Tanavor materiali - po'lat 35 mustahkamligi $\sigma_v = 560 \text{ MPa} (\sim 56 \text{ kgk/mm}^2)$. Tanavor - shtamplangan va teshigi sirtiga dastlabki ishlov berilgan. Texnologik tizim (stanok-asbob- tanavor) uncha bikir emas. Ishlov berish eskizi 5.2-rasmida berilgan. Zarur: keskich asbobni tanlash; kesish tartiblarini tayinlash (kesish uchun sarflanuvchi ruxsat etilgan kesish tezligi v_a va quvvati N_{kes} , formulalar bo'yicha hisoblansin); asosiy vaqt aniqlansin [7].



5.2-rasm. Ichki ishlov berish eskizi

Yechish. ([16] ma'lumotnoma bo'yicha).

I. Keskich va uning geometrik parametrlarini tanlab olamiz. Ochiq teshiklarga ishlov berish uchun tokarlik ichki yo'nish keskichini qabul qilamiz. Plastinkasining materiali-T30K4 markali qattiq qotishma (6-jad., 139-b.); ushlagich materiali-po'lat 45; ushlagich kesimi $25 \times 25 \text{ mm}$; keskich uzunligi 200 mm. Geometrik parametrlari quyidagicha: old sirt shakli - radiusli faska bilan; $B = 2 \text{ mm}$; $R = 4 \text{ mm}$; $h = 0,1 \text{ mm}$ (29-jad., 187-b.); $\gamma = 15^\circ$; $\gamma_\phi = -5^\circ$; $\alpha = 12^\circ$; $\lambda = 0$ (30-jad., 188 b.); $\varphi = 60^\circ$, $\varphi_1 = 20^\circ$ (31-jad., 190-b. va 4-jad., 420-b.).

II. Kesish tartiblarini tayinlaymiz.

1. Bir ishchi yurishdagi kesish chuqurligi

$$t = \frac{D-d}{2} = \frac{55-53}{2} = 1 \text{ mm.}$$

2. Surishni tayinlaymiz (420 b 4-jad. bo'yicha). $R_o = 2 \text{ mkm.lik}$ sirt g'adir-budurlik parametr uchun po'latga uchining radiusi $r = 1 \text{ mm}$ keskich bilan ishlov berishda, $s = 0.11 \dots 0.16 \text{ mm/ayl}$. Oralig'iда olinadi. 5.8-misolni surishning tuzatish koeffitsientini hisobga olamiz,

ishlov berish eskizi $k_s = 1,25$, binobarin qattiq qotishmali keskich bilan toza yo'nishda kesish tezligi $v > 50 \text{ m/min}$ (o'sha yerda, eslatma); $s = (0,11 \dots 0,16) \cdot 1,25 = 0,14 \dots 0,2 \text{ mm/ayl}$. Dastgoh pasportida berilgani bo'yicha surishning mosini tanlab olamiz: $s_h = 0,195 \text{ mm/ayl}$.

3. Keskichning turg'unlik davrini tayinlaymiz. Bir asbobli ishlov berishda $T = 60 \text{ min}$ tavsiya qilinadi ([16], 415-b.).

4. Keskichni ruxsat beruvch kesish xususiyatiga qarab kesish tezligini (m/min) aniqlaymiz:

$$v_a = \frac{C_v}{T^m t^{x_v} s^{y_v}} k_{v_i},$$

8-jadvaldan (422-b.) formula koefitsienti va daraja ko'rsatkichlarining qiymatlarini yozib olamiz: T15K6 qattiq qotishmali plastinkali keskich bilan $s = 0,3 \text{ mm/ayl}$. tashqi bo'ylama yo'nishda (keyinchalik T30K4 qattiq qotishmalik marka bilan yo'nishni va tuzatish koefitsientlarni hisobga olib) topamiz; $C_v = 420$;

$$x_v = 0,15; y_v = 0,2; m = 0,2.$$

Kesish tezligining tuzatish koefitsientlarini hisobga olamiz: binobarin misol sharti bo'yicha tanavor yo'nilmoqda, ishlov berishning ko'rinishida $k_k = 0,9$ koefitsientni kiritamiz (o'sha yerda, eslatma 1, 423-b.): $\sigma_v = 56 \text{ kgk/mm}^2$ -li ishlanuvchi po'lat uchun

$$k_{m_i} = \frac{75}{\sigma_v} = \frac{75}{56} = 1,34 \quad ([16].9\text{-jad.}, 424\text{-b.});$$

T30K4 qattiq qotishmali po'lat uchun $k_{a_i} = 1,4$ ([16].15-jad., 426 b.); $\phi = 60^\circ$ uchun $k_{\phi_i} = 0,9$ ([16].16-jad., 427-b.). Qolgan tuzatish koefitsientlar kesish tezligiga (mazkur ishlov berish sharoitida) ta'sir etmaydi.

Topilgan koefitsientlarni hisobga olib

$$\begin{aligned} v_a &= \frac{C_v}{T^m t^{x_v} s^{y_v}} k_{v_i} k_{m_i} k_{a_i} k_{\phi_i} = \\ &= \frac{420}{60^{0.2} 1^{0.15} 0.195^{0.2}} 0,9 \cdot 1,34 \cdot 1,4 \cdot 0,9 = \end{aligned}$$

$$= \frac{420}{2,27 \cdot 1,072} 0,9 \cdot 1,34 \cdot 1,4 / 0,9 = 390 \text{ m/min} (\sim 6,5 \text{ m/s}).$$

5. Topilgan kesish tezligiga mos keluvchi shpindelning aylanishlar soni,

$$n = \frac{1000 v_a}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 390}{3,14 \cdot 55} = 2260 \text{ ayl/min.}$$

Dastgoh pasportida berilganlari bo'yicha shpindelning aylanishlar sonini korreksiyalab $n_x = 2000 \text{ ayl/min. ni tanlaymiz.}$

6. Haqiqiy tezlikni hisoblab qo'yamiz,

$$v_x = \frac{\pi D v_x}{1000} = \frac{3,14 \cdot 55 \cdot 2000}{1000} = 345 \text{ m/min} (\sim 5,75 \text{ m/s}).$$

7. Kesish uchun sarflanuvchi quvvat (kVt),

$$N_{kes} = \frac{P_z v_x}{60 \cdot 102}. \text{ Kesish kuchi (kgk).}$$

$$P_z = C p_z t^{x_{p_z}} s^{y_{p_z}} v^{n_{p_z}} k_{p_z} \quad (427-\text{b.})$$

Berilgan ishlov berish sharoiti uchun, 20-jadvaldan (429-b.) formulaning koeffitsienti va daraja ko'rsatkichlarni yozib olamiz:

$$C p_z = 300; x_{p_z} = 1; y_{p_z} = 0,75; n_{p_z} = -0,15.$$

Kesish kuchini tuzatish koeffitsientlarini hisobga olamiz:

$$k_{\lambda p_z} = \left(\frac{\sigma_v}{75} \right)^{n_p} \quad (21-\text{jad., 439 b.}); \eta_{p_z} = 0,75 \quad (22-\text{jad.. 430-b.}):$$

$$k_{\lambda p_z} = \left(\frac{\sigma_v}{75} \right)^{0,75} = 0,75^{0,75} = 0,81; k_{\varphi p_z} = 0,94, \text{ chunki}$$

$$\varphi = 60^\circ \quad (24-\text{jad.. 431-b.}).$$

Boshqa tuzatish koeffitsientlar, mazkur ishlov berish sharoitida kesish kuchiga ta'sir ko'rsatmaydi.

SI birligida

$$P_z = 9,81 C p_z t^{x_{p_z}} s^{y_{p_z}} v^{n_{p_z}} k_{\lambda p_z} k_{\varphi p_z} = 9,81 \times 300 \times 1 \cdot$$

$$0,195^{0,75} \cdot 345^{-0,15} \cdot 0,81 \cdot 0,94 =$$

$$= 9,81 \cdot 300 \cdot 1 \cdot 0,20 \cdot (1/2,4) \cdot 0,81 \cdot 0,94 = 270 \text{ H} (\sim 27 \text{ kgk});$$

$$N_{kes} = \frac{27.345}{60.102} = 1,55 \text{ kVt.}$$

$$\text{SI birligida } N_{kes} = P_z v_h = 270.5,75 = 1550 \text{ Vt} = 155 \text{ kVt.}$$

8. Dastgoh uzatma quvvati yetarli ekanligini tekshiramiz, shart bo'yicha

$$N_{kes} \leq N_{shp}, 1K62 \quad \text{dastgoh} \quad \text{shpindelining} \quad \text{quvvati}$$

$$N_{shp} = N_h \eta = 10.0,75 = 7,5 \text{ kVt};$$

$$N_{kes} \leq N_{shp}, (1,55 < 7,5), \text{ demak ishlov berish mumkin.}$$

III. Asosiy vaqt $T_a = L/ns$, bunda $i = 1$.

Keskichning ishchi yurishi uzunligi $L = l + y + \Delta$ mm.
Keskichni tanavorga kirishi $y = t \operatorname{ctg} \varphi = 1 \operatorname{ctg} 60^\circ = 1.0,58 = 0,6$ mm.
Chiqib to'xtashi $\Delta = 2$ mm.ni qabul qilamiz; $L = 85+0,6+2 = 87,6$ mm;

$$T_a = \frac{87,6 \cdot 1}{2000 \cdot 0,195} = 0,22 \text{ min.}$$

5.8-masala. 1K62 tokarlik-vintkesar dastgohida tanavordagi diametri d teshikni D ga kengaytirib yo'nilmoqda. Teshigi uzunligi l , tanavor uzunligi l_1 . Tanavor patronda mahkamlanadi (5.7-jad. qar.). Zarur: keskich asbobni tanlash; kesish tartiblarini tayinlash; asosiy vaqtini aniqlash.

5.7 va 5.8-masalalarini yechishda [13]-me'yorlar va [16]-ma'lumotnomadan tashqari [10,12]-ma'lumotnomalardan ham foydalanish mumkin.

5.7) tabdal (5.8-masalanining berilganları)

Variant	Tanavor materiali	Tanavor	Ishlary berish va qoldi-joydorluk parametrlari nizmi	Dastgohi asbob-tanavor tizimi	d	D	ℓ	l	l_1	mm
1	Po'lat $\varnothing 1, \sigma_v = 640 \text{ MPa} (-64 \text{ kgk/mm}^2)$	Shampaengsan	Celar teshikku dastlabi ichki yo'inch, $R=80$	O'ttacha	98	104H12	65	65		
2	Kulrang cho'yan Sch.35, HE 230	Quymajildiz	Berk teshikku yakury ichki yo'inch, $R=20$	O'ttacha	87	40H11	35	60		
3	Po'lat $\varnothing, \sigma_v = 600 \text{ MPa} (-60 \text{ kgk/mm}^2)$	Testuzi parmalangan prokat	Ochqit teshikku yakury ichki yo'inch, $R=20$	Bilar emas	42	45H11	90	90		
4	Yan.Soh.20, HE 200	Quymajildiz	Ochqit teshikku yakury ichki yo'inch, $R=2$	O'ttacha	108	110H9	55	55		
5	Eronza Et. QZ-4.3, HE 70	Quymajildiz	Ochqit teshikku yakury ichki yo'inch, $R=2$	Bilar emas	73	75H9	110	110		
6	Alyorunay qoldasma AKA, $\sigma_v = 440 \text{ MPa} (-44 \text{ kgk/mm}^2)$	Shampaengsan	Berk teshikku dastlabi yo'inch, $R=80$	O'ttacha	42	48H12	45	65		
7	Kulrang cho'yan Sch.34.10, HE 160	Quymajildiz	Ochqit teshikku dastlabi ichki yo'inch, $R=20$	O'ttacha	112	115H12	50	50		
8	Po'lat $\varnothing 25A, \sigma_v = 600 \text{ MPa} (-60 \text{ kgk/mm}^2)$	Testuzi parmalangan prokat	Berk teshikku yakury ichki yo'inch, $R=20$	O'ttacha	42	50H11	30	45		
9	Latim R.MU.32-4.1, HE 100	Quymajildiz	Ochqit teshikku yakury ichki yo'inch, $R=2$	Bilar emas	73	60H9	95	95		
10	Kulrang cho'yan Sch.15, HE 170	Quymajildiz	Berk teshikku dastlabi yo'inch, $R=80$	Bilar emas	126	133H12	100	160		

5.4. Parmalash, zenkerlash va razvertkalash uchun kesish tartiblarini o'rnatish

5.9-misol. Parmalash. 211125 vertikal-parmalash dastgohida diametri $D=20\text{H}12^{(+0.21)}$ teshik $\ell=80 \text{ mm}$ chuqurlikda teshib chigishga parmalanmoqda. Tanavor materiali-po'lat 40 $\sigma_v = 640 \text{ MPa} (-64 \text{ kgk/mm}^2)$ mustahkamligi bilan, tanavor – issiqjo'valangan prokat. Sovitilishi- emulsiya bilan. Parmalash eskizi 5.3-rasmida ko'rsatilgan. Topilishi kerak: keskich asbobni tanlash; kesish tartiblarini tayinlash


(parmani ruxsat beruvshi kesish tezligi v_a ; kesishga qarshilik kuchidan hosil bo'luvchi burovchi moment M va o'q yo'nalishidagi P_o kuchlarni empirik formulalar bo'yicha hisoblansin); Asosiy vaqt aniqlansin.

Yechish ([16] ma'lumotnoma bo'yicha).

Parma tanlaymiz va uning geometrik o'lchamlari miqdorlarini

o'rnatamiz. Parmaning diametri $D = 20$ mm kesuvchi qismi tezkesar P18 markani po'latdan (5-jadvaldan 148-b.qabul qilingan; mustahkamligi $\sigma_v = 85 \dots 90$ kgk/mm².gacha bo'lgan konstruksion po'lat). Shuningdek P6M5 markali parmani ham ishlatish mumkin, u mazkur jadvalda berilmagan. Geometrik o'lchamlari: Charxlash shakli (43-jad., 201-b.) – ikkilangan ko`ndalang eskizi

qirrasini charxlab turish bilan va lentochkasi DPL; parmaning burchaklari $2\varphi = 118^\circ$; $2\varphi_o = 70^\circ$; $\psi = 40 \dots 60^\circ$; standartli charxlashda $\psi = 55^\circ$; $\alpha = 11^\circ$; 44-jadval bo'yicha 203-b.dan burchak $\omega = 24 \dots 32^\circ$ qabul qilamiz; standart parmalarniki $D > 10$ mm konstruksion po'latni ishlash uchun $\omega = 30^\circ$ [16].



5.3-rasm. Parmalash

II. Kesish tartibini tayinlaymiz.

1. Surish (27-jad., 433-b.) $\sigma_v \leq 80$ kgk/mm² va parma diametri 15...20 mm-gacha bo'lgan po'latni parmalash uchun $s = 0,34 \dots 0,43$ mm/ayl. I-eslatmada surishni berilgan ishlash sharoiti uchun keltirilgan tuzatish koeffitsienti birga teng, chunki qo'yim maydoni H12 kvalitet aniqlikdagi teshikni parmalash amalga oshirilmoqda bikir tanavorda $\ell < 5D$ parmalash chuqurligida ($80 < 5 \times 20$, ya'ni $800 < 100$). Surishni dastgoh pasporti bo'yicha tuzatish kiritamiz: $s = 0,4$ mm/ayl.

Qabul qilingan surishni, dastgoh surish mexanizmi chiday oladigan o'q kuchiga tekshiramiz. Buning uchun o'q yo'nalishidagi kuchni aniqlaymiz:

$$P_o = C_p D^{q_p} s^{r_p} k_p. \quad (435-b.).$$

31-jadvaldan (436-b.) konstruksion po'latni $\sigma_v = 75$ kgk/mm² li tezkesar po'latli asbob bilan parmalash uchun formulaning koeffitsienti va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz: $C_p = 68$; $q_p = 1$;

$y_p = 0,7$. 31-jadval eslatmasida ko'rsatilgan, chunki bu berilganlar qayralgan kashakli parma uchun, ya'ni yuqorida qabul qilingan parmani charxlash shakli uchun.

Kesish kuchini tuzatuvchi koeffitsientlarini hisobga olamiz

$$k_p = k_{M_p} (21,22\text{-jad. bo'yicha, 430-b.}): n_p = 0,75;$$

$$k_{M_p} = \left(\frac{\sigma_v}{75} \right)^{n_p}; \quad k_{M_p} = \left(\frac{0,4}{75} \right)^{0,75} = 0,855^{0,75} = 0,88.$$

$$\text{SI birligida } P_o = 9,81 \cdot 68 \cdot 20 \cdot 0,4^{0,7} \cdot 0,88 = 9,81 \times \\ \times 68 \cdot 20 \cdot 0,53 \cdot 0,88 = 6250 \text{ N} (\sim 625 \text{ kgk}).$$

2H125 dastgohning surish mexanizmini $P_{max} = 900 \text{ kgk}$ o'q kuchiga chiday oladi (dastgoh pasportida berilganlarga qarang), ya'ni $P_o < P_{max}$ ($625 \text{ kgk} < 900 \text{ kgk}$).

Demak, tayinlangan $s = 0,4 \text{ mm/ayl.li}$ surish yetarlidir.

2. Parma turg'unligini tayinlaymiz (435-b., 29-jad. bo'yicha) [16]. Diametri $D = 20 \text{ mm}$.li parma uchun tezkesar po'latli parma bilan konstruksion po'latga ishlov berishda turg'unlikni $T = 45 \text{ min}$ olish tavsiya etiladi. Parmaning ruxsat beriluvchi yeyilishi (9-jad., 153-b.): $h_{ch} = 0,4 \dots 0,8 \text{ mm}$ (tezkesar po'latli parma bilan po'latga ishlov berish uchuń, $D \leq 20 \text{ mm}$).

3. Parmaning kesish xususiyati ruxsati bo'yicha kesish tezligi,

$$v_o = \frac{C_v D^{q_v}}{T^m t^{x_v} s^{y_v}} k_v \quad (435\text{-b.}).$$

28-jadvaldan (434-b.) $\sigma_v = 75 \text{ kgk}.li$ konstruksion uglerodli po'latga P18 tezkesar po'lat parma bilan ishlov berish uchun $s > 0,2 \text{ mm/ayl.da}$ formulaaning koeffitsient va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz: $C_v = 9,8$; $q_v = 0,4$; $x_v = 0$; $y_v = 0,5$; $m = 0,2$.

Kesish tezligini tuzatuvchi koeffitsientini hisobga olamiz:

$$k_{M_v} 424\text{-b}, 9,10\text{-jad. bo'yicha}: k_{M_v} = C_M \left(\frac{75}{\sigma_v} \right)^{n_v};$$

$$C_M = 1; \quad n_v = 0,9; \quad k_{M_v} = 1 \left(\frac{75}{64} \right)^{0,9} = 1,17^{0,9} = 1,15;$$

k_{a_v} (426-b., 15-jad. bo'yicha): $k_{a_v} = 1$, chunki formulaning koeffitsienti va daraja ko'rsatkichlarning qiymatlari P18 tezkesar po'latli parma uchun 28-jadvaldan yozib olindi, ya'ni misolda qo'llaniluvchi asbobsozlik material uchun; k_{t_v} (436-b., 30-jad. bo'yicha) [16]: $k_{t_v} = 0,85$, chunki $\frac{l}{D} = \frac{80}{20} = 4$:

$$v_u = \frac{9,8 \cdot 20^{0,4}}{45^{0,2} \cdot 0,4^{0,5}} \cdot 1,15 \cdot 1,0,85 = \frac{9,8 \cdot 3,31}{2,14 \cdot 0,63} \cdot 1,15 \cdot 1,0,85 =$$

$$= 24,1 \cdot 1,15 \cdot 1,0,85 = 23,6 \text{ m/min} (\sim 0,39 \text{ m/s}).$$

4. Topilgan kesish tezligiga mos keluvchi dastgoh shpindelining aylanishlar soni,

$$n = \frac{1000 v_u}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 23,6}{3,14 \cdot 20} = 376 \text{ ayl/min.}$$

Topilgan shpindelning aylanishlar sonini dastgohning pasportida berilganlari bilan tuzatish kiritamiz va haqiqiy aylanishlar sonini o'rnatamiz: $n_h = 355 \text{ ayl/min.}$

5. Haqiqiy kesish tezligi

$$v_h = \frac{\pi D n_h}{1000} = \frac{3,14 \cdot 20 \cdot 355}{1000} = 22,3 \text{ m/min} (\sim 0,37 \text{ m/s}).$$

6. Parmalash jarayonida kesish kuchiga qarshilik ko'rsatuvchi burovchi momentni aniqlaymiz,

$$M = C_M D^{0,8} s^{0,9} k_k (435-\text{b.}).$$

31-jadvaldan (436-b.) $\sigma_v = 75 \text{ kgk.li}$ konstruksion po'latga ishlov berish uchun formulaning koeffitsient va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz: $C_M = 0,0345$; $q_M = 2$; $y_M = 0,8$.

Tuzatish koeffitsienti k_k ni hisobga olamiz (430-b., 21,22-jad. bo'yicha): bu koeffitsient kesishning o'q kuchini hisoblashda yuqorida l-da aniqlangan edi:

$$k_k = k_{M_k} = 0,88.$$

$$\begin{aligned} \text{SI birligida } M &= 9,81 \cdot 0,0345 \cdot 202 \cdot 0,4^{0,8} \cdot 0,88 = \\ &= 9,81 \cdot 0,0345 \cdot 400 \cdot 0,48 \cdot 0,88 = 57 \text{ N.m} (\sim 5,7 \text{ kgk.m}). \end{aligned}$$

7. Kesish uchun sarflanuvchi quvvat,

$$N_{kes} = \frac{Mn}{975} \quad (437\text{-b.});$$

$$N_{kes} = \frac{5,7355}{975} = 2,07 \text{ kVt.}$$

8. Dastgoh uzatmasi quvvatining yetarligini tekshiramiz.

Agar $N_{kes} \leq N_{shp}$ bo'lsa, ishlov berish mumkin. Dastgoh shpindelidagi quvvat (kVt), $N_{shp} = N_h \eta$. 2H125 dastgohining haqiqiy quvvati $N_h = 2,8 \text{ kVt}$, $\eta = 0,8$; $N_{shp} = 2,8 \cdot 0,8 \approx 2,2 \text{ kVt}$. Demak ishlov berish mumkin, chunki $2,07 < 2,2$.

$$\text{III. Asosiy vaqt } T_a = \frac{L}{ns}$$

Parmani ikkilangan charxlashda, parmaning tanavorga kirishi (mm) $y = 0,4D$; $y = 0,4 \cdot 20 = 8 \text{ mm}$. Parmaning tanavordan chiqib to'xtashi $\Delta = 1 \dots 3 \text{ mm}$; $\Delta = 2 \text{ mm}$.ni qabul qilamiz.

Unda $L = 80 + 8 + 2 = 90 \text{ mm}$;

$$T_a = \frac{90}{355 \cdot 0,4} = 0,63 \text{ min.}$$

5.8-jadval (5.9-masalaning berilganlari)

Vari ant	Tanavor materiali	D	l	Teshik	Ishlov berish	Dastgoh modeli
1	Po'lat 3, $\sigma_c = 460 \text{ MPa}$ (~46 kgf/mm ²)	15H12	60	Berk	Sovitish bilan	2H125
2	Kulrang cho'yan Sch10, HB 160	16H12	65	Ochiq	Sovitishsiz	2H135
3	Po'lat 40, $\sigma_c = 660 \text{ MPa}$ (~66 kgf/mm ²)	18H12	70	Berk	Sovitish bilan	2H125
4	Kulrang cho'yan Sch 15, HB 180	20H12	45	Ochiq	Sovitishsiz	2H135
5	Kulrang cho'yan Sch 20, HB 170	22H12	30			
6	Bronza Br. AJH 11-6-6, HB 200	24H12	40	Berk	Sovitish bilan	2H135
7	Kulrang cho'yan Sch 25, HB 210	25H12	90			
8	Po'lat 40XH, $\sigma_c = 780 \text{ MPa}$ (~78 kgf/mm ²)	26H12	50	Ochiq	Sovitish bilan	2H135
9	Po'lat 12X18H9T berilgan holatida, HB143	28H12	35			
10	Latun JMTU 52-4-1, HB 100	30H12	40			

5.9-masala. Parmalash. Vertikal-parmalash dastgohida diametri D va chuqurligi l bo'lgan teshik parmalanadi (5.8-jad.). T a l a b e t i l a d i: keskich asbobni tanlash; kesish tartibini tayinlash; asosiy vaqt ni aniqlash. Masalani yechishda [13]-me'yorlar va [16]-ma'lumotnomadan tashqari [10,12]-ma'lumotnomalardan ham foydalansa bo'ladi.

5.10-misol. Zenkerlash. 2H135 vertikal-parmalash dastgohida diametri $d = 37$ mm.li ochiq teshikni zenkerlab $\ell = 50$ mm chuqurlikda $D = 40H11^{(+0.16)}$ ga kengaytirilmoqda. Ishlanuvchi material-mustahkamligi $\sigma_v = 620MPa$. (~ 62 kgk/mm 2)li po'lat 35; tanavor - qaynoqjo'valangan prokat; sovitilishi emulsiya bilan. Ishlov berish eskizi 5.4-rasmda keltirilgan.

T a l a b e t i l a d i: keskich asbobni tanlash; me'yoriy jadvallar yordamida kesish tartibini tayinlash; asosiy vaqt ni aniqlash.

Yechish ([13] me'yorlari bo'yicha).

I. $D = 40$ mm.li P18 (yoki P6M5) tezkesar po'latdan tayyorlangan o'tqaziluvchi zenkerni tanlaymiz, tishlar soni $z=4$ (2-ilova, 361-b.). Bu me'yorda zenkerning geometrik parametrlari berilmaganligi uchun ularni [16]-ma'lumotnomada bo'yicha o'rnatamiz (54-jad., 211-b.) po'latni ishlash uchun, $\sigma_v = 62$ kgk/mm 2 .

2. ($\sim HB$ 170); $\gamma = 15^\circ$; $\alpha = 8^\circ$; $\varphi = 60^\circ$; $\varphi_o = 30^\circ$; $\omega = 25^\circ$.

II. Kesish tartibini o'rnatamiz [13].


1. Kesish chuqurligi

$$r = (D-d)/2 = (40-37)/2 = 1.5 \text{ mm.}$$

2. Surishni tayinlaymiz (58-xarita, 122-b.). $D = 40$ mm uchun II guruh surish bo'yicha $s = 0.7 \dots 0.8$ mm/ayl. Surishni dastgoh pasporti bo'yicha tuzatish kiritamiz; $s = 0.8$ mm/ayl.

3. Zenkerning turg'unlik davrini tayinlaymiz (2-jad., 98-b.).

$D = 40$ mm.li zenker uchun $T = 50$ min.li turg'unlik davr tavsiya qilinadi. Zenker orqa sirtining ruxsat etilgan yeyilishi $h_{ch} = 1.2 \dots 1.5$ mm (3-ilova, 371-b.).



5.4-rasm. Zenkerlash sxemasi

4. Zenkerning kesish xususiyatiga binoan kesish tezligini aniqlaymiz (59-xarita, 123-b.). $D = 40 \text{ mm}$ uchun, $t = 1,5 \text{ mm}$ va $s = 1 \text{ mm/ayl.gacha } v_{jad} = 13 \text{ m/min.}$

Jadvalga qilingan eslatmaga muvofiq po'lat guruhi va mexanik tavsifiga bog'liq holda tuzatish koeffitsientini hisobga olamiz (42-xarita bo'yicha, 104,105-b.): $\sigma_v = 62 \text{ kgk/mm}^2$.li ($\sigma_v = 51 \dots 75 \text{ kgk/mm}^2$) po'lat 35 uchun $k_{M_v} = 1,3$. U holda

$$v_a = v_{jad} k_{M_v} = 13 \cdot 1,3 = 16,9 \text{ m/min} (\sim 0,28 \text{ m/s}).$$

5. Topilgan kesish tezligiga mos keluvchi shpindelning aylanishlar soni,

$$n = \frac{1000 v_a}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 16,9}{3,14 \cdot 40} = 134 \text{ ayl/min.}$$

Dastgoh pasportida berilganlar bo'yicha korreksiyalab shpindelning haqiqiy aylanishlar sonini o'rnatamiz, $n_h = 125 \text{ ayl/min.}$

6. Haqiqiy kesish tezligi

$$v_h = \frac{\pi D n_h}{1000} = \frac{3,14 \cdot 40 \cdot 125}{1000} = 15,7 \text{ m/min} (\sim 0,26 \text{ m/s}).$$

Tezkesar po'latlardan yasalgan zenkerlar bilan ishlashda, kesish uchun sarflanuvchi quvvat (parmalashdagiga qaraganda) juda kam. Bunday hollarda, odatga ko'ra dastgoh uzatmasining quvvati yetarli ekanligi tekshirilmaydi.

III. Asosiy vaqt

$$T_a = \frac{L}{ns};$$

$$L = \ell + y + \Delta; y = \text{tctg}\varphi = 1,5 \text{ctg}60^\circ = 1,5 \cdot 0,58 \approx 0,9 \text{ mm.}$$

$$\Delta = 1 \dots 3 \text{ mm}; \Delta = 2 \text{ mm}.ni qabul qilamiz. U holda } L = 50 + 0,9 + 2 = 52,9 \text{ mm;}$$

$$T_a = \frac{52,9}{125 \cdot 0,8} = 0,53 \text{ min.}$$

5.10-masala. Zenkerlash. 211135 vertikal-parmalash dastgohida diametri d ochiq teshikni dastlabki zenkerlab ℓ chuqurlikda D ga kengaytirilmoqda (5.9-jad. qar.). Talab etiladi: keskich asbobni tanlash; kesish tartibini tayinlash; asosiy vaqtini aniqlash.

Masalani yechishda [13]-me'yorlar va [16]-ma'lumotnomadan tashqari [10, 12]-ma'lumotnomalardan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir.

5.9-jadval (5.10-masalaning berilganlari)

Variant	Tanavor materiali	D	d	l	Teshik	Ishlov berish
1	Po'lat 38XMIOA, $\sigma_y = 750 \text{ MPa}$ ($\sim 75 \text{ kgf/mm}^2$)	20H11	18	30	Berk	Sovitish bilan
2	Kulrang cho yan Sch10, HB 160	25H11	22.6	40	Ochiq	Sovitishsiz
3	Po'lat 65L, $\sigma_y = 830 \text{ MPa}$ ($\sim 85 \text{ kgf/mm}^2$)	30H11	27.6	15		Sovitish bilan
4	Kulrang cho yan Sch15, HB 180	35H11	32.5	50	Berk	
5	Bronza Br AMu 9-2.HB 100	45H11	42	45	Ochiq	Sovitishsiz
6	Silumin AJI4, HB 50	19.8H11	18	70	Berk	
7	Po'lat 35, $\sigma_y = 580 \text{ MPa}$ ($\sim 58 \text{ kgf/mm}^2$)	24.8H11	22	55	Ochiq	Sovitish bilan
8	Kulrang cho yan Sch30, HB 220	29.8H11	28	35		Sovitishsiz
9	Po'lat 5, $\sigma_y = 600 \text{ MPa}$ ($\sim 60 \text{ kgf/mm}^2$)	34.7H11	33	60	Berk	Sovitish bilan
10	Lutun JIK 80-3, HB 110	44.7H11	43	25	Ochiq	Sovitishsiz

Izoh. 6-10 variantlarda keyingi ishlovnii bitta razvertka bilan bajarishni hisobga olib zenkerlash ko'zlangan.

5.11-misol. Razvertkalash (buramalash). - 2H125 vertikal-parmalash dastgohida diametri $d = 24.8 \text{ mm}$ -li berk teshikni razvertkalab $l = 55 \text{ mm}$ chuqurlikda $D = 25H9^{(+0.052)}$ ga kengaytirilmoqda. Ishlangan ichki sirt g'adir-budurlik parametri $R_a = 2.0 \text{ mkm}$. Ishlanuvchi material-mustahkamligi $\sigma_y = 700 \text{ MPa}$. ($\sim 70 \text{ kgf/mm}^2$)li va 40XH markali po'lat; tanavori – qaynoqjo'valangan prokat; sovitilishi emulsiya bilan. Talab ettiladi: keskich asbobni tanlash; me'yoriy jadvallar yordamida kesish tartibini tayinlash; asosiy vaqtini aniqlash.

Yechish ([13] me'yorlari bo'yicha). I.Razvertkani tanlaymiz va geometrik parametrlarini o'rnatamiz (2-ilova, 363-b.); diametri $D = 25 \text{ mm}$ -li P18 (yoki P6M5) markali tezkesar po'latli mashina yaxlit razvertkasini qabul qilamiz. Berk teshiklar uchun $\varphi = 60^\circ$. Bu me'yorda razvertkaning qolgan geometrik parametrlari berilmaganligi uchun ularni [16]-ma'lumotnomasi bo'yicha qabul qilamiz (58-jad., 216-b.); $\gamma = 0$; $\alpha = 8^\circ$; (jadval eslatmasida toza razvertkalar uchun $\alpha = 6\dots 12^\circ$ tavsiya etilgan).

II. Kesish tartiblarini tayinlaymiz ([13] me`yor bo`yicha).

1. Kesish chuqurligi

$$t = \frac{D - d}{2} = \frac{25 - 24,8}{2} = 0,1 \text{ mm.}$$

2. Surishni tayinlaymiz (62-xarita, 125-b.). $D = 25 \text{ mm}$ uchun

II guruh surish $s = 0,9 \text{ mm/ayl.}$ Biroq, xaritaning eslatmasiga ko`ra berk teshiklarni razvertkalash uchun surish $s = 0,2 \dots 0,5 \text{ mm/ayl}$ tavsiya qilingan.

3. Razvertkaning turg'unlik davrini tayinlaymiz (2-jad., 98-b.).

$D = 25 \text{ mm}$ razvertka uchun turg'unlik davri $T = 80 \text{ min}$ tavsiya etiladi. Razvertka devorli konusi orqa sirtining ruxsat berilgan yeyilishi $h_o = 0,6 \dots 0,8 \text{ mm}$ (3-ilova, 371-b.).

4. Razvertkani ruxsat etuvchi kesish xususiyatiga binoan kesish tezligini aniqlaymiz (63-xarita, 126-b.). Ishlov berilgan sirt g`adir-budurligi $R_a = 2,0 \text{ mkm}$ uchun $v_{jad.} = 4 \dots 5 \text{ m/min.}$

Yakuniy razvertkalashda kesish tezligini tuzatish koeffitsienti xaritada ko`zda tutilmagan; $v_a = 5 \text{ m/min}$ ($\sim 0,08 \text{ m/s}$).

5. Topilgan kesish tezligiga mos keluvchi, shpindelning aylanishlar soni,

$$n = \frac{1000v_a}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 5}{3,14 \cdot 25} = 64 \text{ ayl/min.}$$

Dastgoh pasportida berilganlar bo`yicha shpindelning aylanishlar soniga tuzatish kiritamiz: shpindelning haqiqiy aylanishlar soni $n_h = 63 \text{ ayl/min.}$

6. Haqiqiy kesish tezligi

$$v_h = \frac{\pi D n_h}{1000} = \frac{3,14 \cdot 25 \cdot 63}{1000} = 4,9 \text{ m/min} (\sim 0,08 \text{ m/s}).$$

Razvertkalashdagi sarflanuvechi quvvat uncha katta emas. Shuning uchun razvertkalashda quvvatning yetarli ekanligi tekshirilmaydi.

III. Asosiy vaqt

$$T_a = L/n \cdot s:$$

$L = l + y = 4; y = t \operatorname{ctg} \varphi = 0,1 \operatorname{ctg} 60^\circ = 0,1 \cdot 0,58 = 0,058 \text{ mm};$ berk teshiklarni ishlashda $\Delta = 0,$ shunday qilib, $L = 55 \text{ mm.}$

$$T_a = 55 / 63 \cdot 0,4 = 2,18 \text{ min.}$$

5.11-masala. Razvertkalash. 2H135 vertikal-parmalash dastgohida diametri d teshikni razvertkalab ℓ chuqurlikda D ga kengaytirilmoqda. G'adir- budurlik parametri $R_a=2,0$ mkm (5.10-jad. qar.). T a l a b e t i l a d i : keskich asbobni tanlash; kesish tartibini tayinlash; asosiy vaqtini aniqlash.

Masalani yechishda [13]-me'yorlar va [16]-ma'lumotnomadan tashqari [10,12]-ma'lumotnomalardan ham foydalanilsa bo'ladi.

5.10-jadval (5.11-masalaning berilganlari)

Variant	Tanavor materiali	D	d	l	Teshik	Ishlov berish
1	Po'lat 45. $\sigma_v=700$ MPa (~70 kgk/mm ²)	20H9	19,8	30	Berk	Sovitish bilan
2	Kulrang cho'yan Sch10, HB 170	22H9	21,8	60	Ochiq	Sovitishsiz
3	Alyuminiy qotishma AK2, $\sigma_v=420$ MPa (~42 kgk/mm ²)	24H9	23,8	25		Sovitish bilan
4	Kulrang cho'yan Sch15, HB 190	25H9	24,8	75	Berk	Sovitishsiz
5	Po'lat 40XH, $\sigma_v=700$ MPa (~70 kgk/mm ²)	28H9	27,8	50	Ochiq	Sovitish bilan
6	Kulrang cho'yan Sch 25, HB 210	30H9	29,8	65	Berk	Sovitishsiz
7	Bronza Br. ОЦ 4-3, HB 70	35H9	34,7	40	Ochiq	
8	Po'lat 30ХН3А, $\sigma_v=800$ MPa (~80 kgk/mm ²)	40H9	39,7	45		Sovitish bilan
9	Kulrang cho'yan Sch35, HB 230	45H9	44,7	70	Berk	Sovitishsiz
10	Latun JIMuOC 58-2-2--2, HB 90	50H9	49,7	55	Ochiq	


5.5. Frezalash uchun kesish tartiblarini o'rnatish

5.12-misol. 6P13 vertikal-frezalash dastgohida eni $B = 70$ mm va uzunligi $l = 600$ mm.li yassi sirt yon sirtli frezalanmoqda; ishlov berish uchun qo'shim $h=3,7$ mm. Ishlanuvchi material – po'lat 45, mustahkamlik chegarasi $\sigma_v=670$ MPa (~67 kgk/mm²); tanavori-pokovka. Ishlov berish dastlabki; g'adir-budurlik parametri $R_z = 80$ mkm. Ishlov berish eskizi 5.5-rasmida keltirilgan.

T a l a b e t i l a d i : keskich asbobni tanlash; me'yoriy hujjatlar jadvallaridan foydalanib kesish tartibini tayinlash; asosiy (texnologik) vaqtini aniqlash.

Yechish ([13] me'yorlari bo'yicha). I. Frezani tanlaymiz va uning geometrik parametrlarini o'rnatamiz.

1. T15K6 qattiq qotishma plastinka bilan ta'minlangan o'rnatiluvchi prizmatik tishli yon sirtli frezani qabul qilamiz (1-ilova, 354-b.). Yon sirtli freza diametri D frezalanuvchi sirt eniga bog'liq holda tanlanadi; taxminan $D = 1,6B$ mm. Demak, $D = 1,6 \times 70 = 112$ mm. 109 xarita bo'yicha (210-211-b.) diametri $D = 110$ mm tishlar soni $z = 4$ standart freza qabul qilamiz.



5.5-rasm. Yon sirtli freza bilan ishlov berish operatsion eskizi

2. Frezaning geometrik parametrlarini aniqlaymiz (2-ilova, 366-b.): $\varphi = 45 \dots 90^\circ$; $\varphi = 60^\circ$ ni qabul qilamiz. Qolgan parametrlarni [16] ma'lumotnomadan (81-jad., 250-b.) qabul qilamiz: $\alpha = 12^\circ$ (yon sirtli frezalashda kesish qalinligi $a > 0,08$ mm hisoblagan holda); $\gamma = -5^\circ$; $\lambda = +5$ (jadvalni 3-izohga binoan nosimmetrik yon sirtli frezalash uchun qabul qilingan; nosimmetrik yoki "siljigan" frezalash usuli pastda 2-punkt, frezaning har bir tishiga surishni tayinlashda qabul qilingan); $\varphi_o = 20^\circ$; $\varphi_1 = 5^\circ$.

II. Kesish tartibini tayinlaymiz ([13] me'yorlar bo'yicha).

1. Kesish chuqurligini o'rnatamiz. Qo'shimni bir o'tuvda kesib tashlaymiz; demak, $t = h = 3,7$ mm.

2. Freza tishiga surishni tayinlaymiz (108-xarita, 209-b.).

T15K6 qotishmali po'lat uchun, 6M13II dastgoh quvvati $N_h = 10$ kVt, II sxema bo'yicha frezalashda (frezalash siljigan holatida) $s_f =$

0,18...0,22 mm/tish. $s_z = 0,2$ mm/tishni qabul qilamiz. "Siljigan" holatida frezalash freza tishlari tanavorga urilib kirishi uchun qulay sharoit yaratadi, ular simmetrik frezalashga qaraganda s_z surish miqdorini taxminan ikki barobar oshirish imkonini beradi. Ishlov berish eskizida frezaning siljigan (nosimmetrik) o'rnatuvি ko'rsatilgan.

Surishni tuzatish koeffitsienti (211-b., 4-punkt) $k_{\varphi_m} = 1$. chunki burchak $\varphi = 60^\circ$. Shunday qilib, qabul qilingan surish miqdori $s = 0,2$ mm/tish o'zgarmaydi.

3. Frezaning turg'unligini tayinlaymiz (2-jad., 203-204-b.). Diametri $D = 110$ mm.li qattiq qotishmali yon sirtli freza uchun turg'unlik davrini $T = 180$ min olish tavsiya qilinadi. Freza tishlarining orqa tomonidan ruxsat etiluvchi yeyilishi $h_{or} = 1,2$ mm (3-ilova. 372-b.).

4. Frezani ruxsat etilgan kesish xususiyatidan kelib chiquvchi, kesish tezligini aniqlaymiz (109-xarita bo'yicha, 210-211-b.): $D = 110$ mm uchun kesish tezligining jadvalli qiymatini topamiz. $z = 4$, $t = 5$ mm.gacha va $s_z = 0,24$ mm/tish.gacha: $v_{fad} = 194$ m/min. Kesish tezligini tuzatish koeffitsientini hisobga olamiz. $\sigma_v = 67$ kgk/mm².li po'lat uchun $k_{t_p} = 1,12$. Pokovkaga qora ishloy berish vaziyati uchun $k_{t_p} = 0,9$. Berilgan ishlov berish sharoiti uchun, barcha qolgan tuzatish koeffitsientlar birga teng. Koeffitsientlarni hisobga olsak.

$$v_a = v_{fad} k_{M_v} k_{t_p} = 194 \cdot 1,12 \cdot 0,9 = 195,5 \text{ m/min} (\sim 3,26 \text{ m/s}).$$

5. Topilgan kesish tezligiga mos keluvchi shpindelning aylanishlar soni,

$$n = \frac{1000v}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 195,5}{3,14 \cdot 110} = 566 \text{ ayl/min.}$$

Shpindelning aylanishlar sonini dastgoh pasportida berilganlar bilan tuzatish kiritib, haqiqiy aylanishlar soni $n_h = 500$ ayl/min ni o'rnatamiz.

6. Haqiqiy kesish tezligi

$$v_h = \frac{\pi D v}{1000} = \frac{3,14 \cdot 110 \cdot 500}{1000} = 172,7 \text{ m/min} (\sim 2,88 \text{ m/s}).$$

7. Minutli surish (bo'ylama) $s_m = s_z \cdot n_h = 0,2 \cdot 4 \cdot 500 = 400$ mm/min. Surishni dastgohni berilganlari bo'yicha qabul qilib

o'rnatamiz: $s_m = 400 \text{ mm/min}$ (hisobli va dastgohning minutli surishi bir-biriga mos keldi).

8. Kesish uchun sarflanuvchi quvvatni aniqlaymiz (111-xarita bo'yicha, 214-215-b.): $N_{jad} = 6,3 \text{ kVt}$. Bu quvvat $N_{jad} = 6,6 \text{ kVt}$.ni interpolatsiyalab ($s_m = 429 \text{ mm/min}$ uchun) va $N_{jad} = 5,5 \text{ kVt}$ ($s_m = 320 \text{ mm/min}$ uchun) aniqlangan, chunki N_{jad} qiymati dastgoh bo'yicha o'rnatilgan minutli surish $s_m = 400 \text{ mm/min}$ uchun ko'satilgan xaritada berilmagan. Quvvatning tuzatish koeffitsientini hisobga olamiz: $k_{\varphi N} = 1$, chunki freza burchagi $\varphi = 60^\circ$; $k_{vN} = 0,95$, chunki freza burchagi $\gamma = -5^\circ$ (bu koeffitsient interpolatsiyalab aniqlangan) qabul qilingan; $N_{kes} = N_{jad} k_{vN} = 6,3 \cdot 0,95 = 6,0 \text{ kVt}$.

9. Dastgoh uzatmasi quvvatining yetarli ekanligini tekshiramiz. $N_{kes} \leq N_{shp}$ shart bajarilishi zarur. Dastgoh shpindelining quvvati $N_{shp} = N_h \cdot \eta$. 6P13 dastgohi quvvati $N_h = 10 \text{ kVt}$, $\eta = 0,8$; $N_{shp} = 10 \cdot 0,8 = 8,0 \text{ kVt}$. Demakki, ishlov berish mumkin ($6,0 < 8,0$).

III. Asosiy vaqt

$$T_a = \frac{L}{s_m}$$

"Siljigan" frezalashda frezaning tanavorga kirishi $y = 0,3D \text{ mm}$; $y = 0,3 \cdot 110 = 33 \text{ mm}$. Chiqishi $A = 1 \dots 5 \text{ mm}$; $A = 3 \text{ mm}$ qabul qilamiz. $L = 600 + 33 + 3 = 636 \text{ mm}$;

$$T_a = 636/400 = 1,59 \text{ min.}$$

5.13-misol. 6P13 vertikal-frezalash dastgohida eni $B = 100 \text{ mm}$ va uzunligi $l = 320 \text{ mm}$.li yassi sirtning yon sirti frezalanmoqda; ishlov berish uchun qo'shim $h=4 \text{ mm}$. Ishlanuvchi tanavor materiali – kulrang cho'yan Kch 25, qattiqligi HB 210. Ishlov berish - qora jild bo'yicha. Ishlov berish eskizi 5.5-rasmga o'xshash.

T a l a b e t i l a d i: keskich asbobni tanlash; kesish tartibini tayinlash (freza ruxsat etuvchi kesish tezligi v_a va aylanma kesish kuchi P -ni empirik formulalar yordamida hisoblang). Asosiy (texnologik) vaqtani aniqlash.

Yechish ([16] ma'lumotnomasi bo'yicha). I. Frezani tanlaymiz va uning geometrik parametrlarini o'rnatamiz. Qattiq qotishma plastinka bilan ta'minlangan, o'rnatiluvchi pichoqli yon sirtli frezani qabul qilamiz (76-jad., 245-b.). Frezaning diametri $D = 1,6B = 1,6 \cdot 100$

$D = 160$ mm. $D = 160$ mm.li, $z = 16$ standart freza qabul qilamiz. Freza kesuvchi qismining materiali – BK8 markali qattiq qotishma (6-jad., 150-b.).

Frezaning geometrik parametrlarini topamiz (86-jad., 250-b.); $\alpha = 12^\circ$ (qora frezalashda kesish qalnligi $a > 0.08$ mm deb hisoblab); $\gamma = 0$; $\lambda = +20^\circ$ (*HB* 210 cho'yan uchun); $\varphi = 45^\circ$, $\varphi_o = 20^\circ$; $\varphi_i = 5^\circ$.

II. Kesish tartiblarini tayinlaymiz.

1. Kesish chuqurligini o'rnatamiz. Qo'shimni bir yurishda kesib tushuramiz; bu holda $t = h = 4$ mm.

2. Freza tishiga surish tayinlaymiz (32-jad., 438-b.).

Cho'yanni qora frezalash, BK8 qattiq qotishma, 6P13 dastgoh quvvati $N_h = 10$ kVt uchun, $s_z = 0,20 \dots 0,29$ mm/tish.

Ishlov berish DMAD (dastgoh-moslama-asbob-detall) tizimining bikin sharoitida olib boriladi deb hisoblab, berilgan surishning eng kattasi $s_z = 0,29$ mm/tishni qabul qilamiz.

3. Frezaning turg'unligini tayinlaymiz (38-jad., 444-b.). Diametri $D = 160$ mm.li qattiq qotishmali yon sirtli freza uchun turg'unlik davrini $T = 240$ min olish tavsiya qilinadi. Freza tishlarining orqa tomonidan ruxsat etiluvchi yeyilishi $h_m = 1.5$ mm (10-jad., 154-b.).

4. Frezaning ruxsat etilgan kesish xususiyatidan kelib chiquvchi, kesish tezligini (m/min) aniqlaymiz:

$$v_a = \frac{C_v D^{u_v}}{T^{p_v} t^{x_v} s_z^{y_v} B^{q_v} z^{p_v}} k_{v_1} \quad (444-\text{b.})$$

37-jadvaldan koeffitsientlarni va formulaning daraja ko'rsatkichlarini *HB* 210-kulrang cho'yan uchun yozib olamiz, yon sirtli freza va kesuvchi qism materiali qotishma BK6 (tuzatish koeffitsientlarini keyinchalik hisobga olish bilan): $C_v = 445$; $q_v = 0,2$; $x_v = 0,15$; $y_v = 0,35$; $u_v = 0,2$; $p_v = 0$; $m = 0,32$.

Kesish tezligining tuzatish koeffitsientini hisobga olamiz:

$$k_{v_1} \quad (9-\text{jad. bo'yicha}, 424-\text{b.}):$$

$$k_{v_1} = \left(\frac{190}{HB} \right)^{1/25} = 0.905^{1/25} = 0.89;$$

k_{v_1} (15-jad. bo'yicha, 426-b.): freza pichog'i kesuvchi qismi - qattiq qotishma BK8 uchun $k_{v_1} = 0.83$.

Undan tashqari, 37-jad. eslatmasiga muvofiq (443-b.) plandagi burchagi $\varphi = 45^\circ$ da kesish tezligini tuzatuvchi koeffitsienti $k_{\varphi_v} = 1,1$ kiritiladi.

$$v_a = \frac{C_v D^{q_v}}{T^m t^{x_v} s_z^{y_v} B^{u_v} z^{p_v} k_v} = \frac{445 \cdot 160^{0.2}}{240^{0.32} \cdot 4^{0.15} \cdot 0.29^{0.35} \cdot 100^{0.2} \cdot 0.89 \cdot 0.8 \cdot 0.83 \cdot 1,1} = \\ = \frac{445 \cdot 2.76}{5.79 \cdot 1.23 \cdot 0.65 \cdot 2.51} = 106 \cdot 0.89 \cdot 0.8 \cdot 0.83 \cdot 1,1 = 69 \text{ m/min} \\ (\sim 1.15 \text{ m/s}).$$

5. Topilgan kesish tezligiga mos keluvchi shpindelning aylanishlar soni,

$$n = \frac{1000 v_a}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 69}{3,14 \cdot 160} = 137 \text{ ayl/min.}$$

Shpindelning aylanishlar sonini dastgoh pasportida berilganlar bilan tuzatish kiritib, haqiqiy aylanishlar soni $n_h = 125$ ayl/minni o'rnatamiz.

6. Haqiqiy kesish tezligi

$$v_h = \frac{\pi D v_a}{1000} = \frac{3,14 \cdot 160 \cdot 125}{1000} = 63 \text{ m/min} (\sim 1.05 \text{ m/s}).$$

7. Minutli surish $s_m = s_z n_h = 0.29 \cdot 16 \cdot 125 = 581 \text{ mm/min.}$
Surishning dastgohning berilganlari bo'yicha tuzatish kiritamiz va haqiqiy surishni o'rnatamiz: $s_m = 500 \text{ mm/min.}$

Freza har bir tishining haqiqiy surishi

$$s_{z_h} = \frac{s_m}{z n_h} = \frac{500}{16 \cdot 125} = 0,25 \text{ mm/tish.}$$

8. Kesishning aylanish kuchini aniqlaymiz

$$P_z = \frac{C_p t^{x_p} s_z^{y_p} B^{u_p} z}{D^{q_p} n^{\omega_p}} k_p \quad (444-\text{b.}).$$

39-jadvaldan (445-b.) HB 190 li kulrang cho'yan va qattiq qotishimali plastinkali yon sirtli frezalar uchun formulaning koeffitsienti va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz: $C_p = 54,5$; $x_p = 0,9$; $y_p = 0,74$; $u_p = 1$; $\omega_p = 0$; $q_p = 1$.

Tuzatish koeffitsienti k_{M_p} (21 va 22-jad., 430-b.) hisobga olamiz:

$$k_{M_p} = \begin{pmatrix} HB \\ 190 \end{pmatrix};$$

$n_p = 1$, (cho'yanni qattiq qotishmali freza bilan ishlash uchun): HB 210 (shart bo'yicha).

$$k_{M_p} = \frac{210}{190} = 1.11;$$

$$P_z = \frac{C_v t^{v_p} s_z^{v_p} B^{u_p} z}{D^{u_p} n^{v_p}} k_p = \frac{54.5 \cdot 4^{0.9} \cdot 0.25^{0.74} \cdot 100 \cdot 16}{160} =$$

$$= \frac{54.5 \cdot 3.48 \cdot 0.36 \cdot 100 \cdot 16}{160} = 758 \text{ kgk.}$$

SI birligida $P_z = 9.81 \cdot 758 = 7436 \text{ N}$.

9. Kesishga sarflanuvchi quvvatni aniqlaymiz.

$$N_{kes} = \frac{P_z v_h}{60 \cdot 102} = \frac{758.63}{60.102} = 7.8 \text{ kVt.}$$

SI birligida $N_{kes} = P_z v_h = 7436 \cdot 1.05 = 7800 \text{ Vt} = 7.8 \text{ kVt.}$

10. Dastgoh uzatmasining quvvati yetarli ekanligini tekshiramiz. $N_{kes} \leq N_{shp}$ shart bajarilishi zarur. Dastgoh shpindelining quvvati $N_{shp} = N_h \eta$. 6P13 dastgohining haqiqiy quvvati $N_h = 10 \text{ kVt}$, $\eta = 0.8$: $N_{shp} = 10 \cdot 0.8 = 8.0 \text{ kVt}$. $7.8 < 8.0$ demak, ishlov berish mumkin.

III. Asosiy vaqtini aniqlaymiz:

$$T_a = L/s_m \text{ min.}$$

$L = l + y + A$ mm. Qora yon sirtli frezalashda tanavorga kirish (mm) y

$$= 0.5 (D - D^2 - B^2): y = 0.5 \times (160 - 160^2 - 100^2) = 0.5(160 -$$

$$15600) = 0.5(160 - 125) = 0.5 \cdot 35 = 17.5 \text{ mm. Chiqishni } A = 3 \text{ mm olamiz. U holda}$$

$$L = 320 + 17.5 + 3 = 340.5 \text{ mm.}$$

$$T_a = 340.5 / 500 = 0.68 \text{ min.}$$


Varitart		Tanavor materiali	Tanavor	Ishlov berish va g'adir- budurlik parametri, mkm	B	l	h
1	Po'lat 3, $\sigma_v = 460$ MPa (~ 46 kgf/mm ²)	Pokokka	Dastlabki	60	200	3,5	
2	Kulrang cho'yan Sch10, HE 160	Quyma	Dastlabki	90	250	4	
3	Alyuminiv AK8, $\sigma_v = 490$ MPa (~ 49 kgf/mm ²)	Shamp langan	Yakuny, $R_a = 20$	120	400	1,5	
4	Kulrang cho'yan Sch15, HE 180	Quyma	Dastlabki	120	280	3,5	
5	Po'lat 40XH, $\sigma_v = 700$ MPa (~ 70 kgf/mm ²)	Pokokka	Yakuny, $R_a = 2$	165	600	1,6	
6	Kulrang cho'yan Sch20, HE 200	Quyma	Dastlabki	150	450	3,5	
7	Po'lat 40XH, $\sigma_v = 750$ MPa (~ 75 kgf/mm ²)	Pokokka	Dastlabki	75	360	3	
8	Po'lat 30XTC, $\sigma_v = 730$ MPa (~ 75 kgf/mm ²)	Shamp langan	Yakuny, $R_a = 20$	110	300	1,5	
9	Kulrang cho'yan Sch30, HE 220	Quyma	Dastlabki	130	380	3,5	
10	Po'lat 12X12H9 hollow, HE 145	Prokat	Yakuny, $R_a = 2$	65	200	1,5	

5.12-masala. 6P13 vertikal-frezalash dastgohida eni B va uzunligi l yassi sirt yon sirtli frezalanmoqda; ishlov berish uchun qo'shim h (5.11-jad.).

T a l a b e t i l a d i: keskich asbobni tanlash; kesish tartibini tayinlash; asosiy (texnologik) vaqt ni aniqlash.

Masalani yechishda [13]-me'yorlar va [16]-ma'lumotnomadan tashqari [10.12]-ma'lumotnomalardan ham foydalanish mumkin.

5.14-misol. 6P82G gorizontal-frezalash dastgohida eni $B = 75$ mm va uzunligi $l = 300$ mm yassi sirt silindrik frezalanmoqda; ishlov berish uchun qo'shim $h = 3$ mm. Ishlanuvchi tanavor materiali – po'lat 40X mustahkamligi $\sigma_v = 680$ MPa (~ 68 kgk/mm 2); tanavor – pokovka. Ishlash eskizi 5.6-rasmda keltirilgan. T a l a b e t i l a d i: kesish asbobni tanlash; me'yoriy hujjatlar jadvallaridan foydalanib kesish tartibini tayinlash; asosiy vaqtini aniqlash.



5.6-rasm. Silindrik freza bilan ishlov
berish amalining eskizi

Yechish ([13] me'yorlari bo'yicha). I. Frezani tanlaymiz va uning geometrik parametrlarini o'rnatamiz. P6M5 tezkesar po'latdan yasalgan o'rnatiluvchi pichoqli silindrik freza qabul qilamiz. Qo'llaniluvchi me'yorlarda P6M5 po'lat uchun berilganlar yo'qligi sababli va P18 markali po'lat xususiyatlari unga o'xshash bo'lganligi uchun, kesish tartiblarini shu po'latga oid hisoblaymiz. Kesish chuqurligi 5 mm gacha ishlashda asosan diametri 60...90 mm li silindrik frezalar qo'llaniladi ([16] 269-b.). Mazkur holatda qo'shimni bir yurishda olish uchun diametri $D = 90$ mm li, tishlar soni $z = 8$ standart freza qo'llamoq maqsadga muvofiq (133-xarita, 248-249-b.). Frezaning geometrik parametrlarini 2-ilova (369-b.) bo'yicha qabul qilamiz: $\gamma = 15^\circ$; $\alpha = 12^\circ$.

II. Kesish tartiblarini tayinlaymiz.

1. Kesish chuqurligini o'rnatamiz. Qo'shimni bir ishchi yurishda olib tashlaymiz; ya'ni, $t = h = 3$ mm.

2. Freza tishiga surish tayinlaymiz (132-xarita, 247-b.).

Po'latga ishlov berishda qo'yiluvchi pichoqli freza uchun, dastgohning quvvati 7 kVt , dastgoh-moslama-detali tizimi bikirligi o'rtacha $s_z = 0,12 \dots 0,2 \text{ mm/tish}$; $s_z = 0,2 \text{ mm/tish}$.ni qabul qilamiz.

3. Frezaning turg'unligini tayinlaymiz (2-jad., 204-b.). Diametri $D = 90 \text{ mmli P18 po'latdan yasalgan o'rnatiluvchi pichoqli silindrik freza uchun turg'unlik davrini } T = 180 \text{ min olishni tavsiya qilinadi. Freza tishlarining orqa tomonidan ruxsat etiluvchi yeyilishi } h_{ot} = 0,6 \text{ mm (3-ilova, 372-b.).}$

4. Frezani ruxsat etilgan kesish xususiyatidan kelib chiquvchi, kesish tezligini aniqlaymiz (133-xarita, 248-249-b.). $D = 90 \text{ mm}$, $B = 41 \dots 130 \text{ mm}$, $t = 3 \text{ mm}$, $s_z = 0,24 \text{ mm/tish}$.gacha $v_{jad} = 37 \text{ m/min}$. Kesish tezligini tuzatish koeffitsientini hisobga olamiz (o'sha joyda):

$k_{t_p} = 0,85$, negaki $\sigma_v = 68 \text{ kgk/mm}^2$ bikir po'lat pokovka jildi bo'yicha ishlanadi; boshqa xaritada keltirilgan tusatish koeffitsienti (dastlabki ishlov berish uchun) birga teng. Xarita eslatmasiga binoan yana po'latning guruhi va mexanik tavsifiga bog'liq bo'lgan tuzatish koeffitsienti k_{M_p} ni hisobga olish zarur (120-xarita bo'yicha, 230-231-b.): xromli po'lat 40X uchun, $\sigma_v = 68 \text{ kgk/mm}^2$ $k_{M_p} = 0,9$.

$$v_a = v_{jad} k_{t_p} k_{M_p} = 37 \cdot 0,85 \cdot 0,9 = 28,4 \text{ m/min} (\sim 0,47 \text{ m/s}).$$

5. Topilgan kesish tezligiga mos keluvchi shpindelning aylanishlar soni,

$$n = \frac{1000v_a}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 28,4}{3,14 \cdot 90} = 101 \text{ ayl/min.}$$

Shpindelning aylanishlar sonini dastgoh pasportida berilganlar bilan tuzatish kiritib, haqiqiy aylanishlar soni $n_h = 100 \text{ ayl/min}$.ni o'rnatamiz.

6. Haqiqiy kesish tezligi

$$v_h = \frac{\pi D v_a}{1000} = \frac{3,14 \cdot 90 \cdot 100}{1000} = 28,3 \text{ m/min} (\sim 0,46 \text{ m/s}).$$

7. Minutli surish $s_m = s_z z n_h = 0,2 \cdot 8 \cdot 100 = 160 \text{ mm/min}$. Bu surish dastgoh pasportida berilganlar bilan to'la mos tushdi, ya'ni $s_m = 160 \text{ mm/min}$. Ko'rinish turibdiki, freza har bir tishining haqiqiy surishi ham o'zgarmadi; shunday qilib, $s_{z_h} = s_z = 0,2 \text{ mm/tish}$.

5.12-jadval (5.13-masalaning berilganlari)

Variant	Tanavor materiali	Tanavor	Ishlov berish va g'adir- budurlik parametri, mkm	B	I	h
				mm		
1	Po'lat 5, $\sigma_v = 600$ MPa (~60 kgk/mm ²)	Pokovka	Dastlabki sovitishli	65	100	3
2	Kulrang cho'yan Sch10, <i>HB</i> 150	Quyma	Yakuniy, $R_a = 2$	40	120	1,5
3	Po'lat 35, $\sigma_v = 600$ MPa (~60 kgk/mm ²)	Prokat	Dastlabki sovitishli	80	150	4
4	Alyuminiy qotishma АЛ5, <i>HB</i> 65	Quyma	Yakuniy, $R_z = 20$	50	200	1,5
5	Bronza Br. АЖ9-4, <i>HB</i> 120		Dastlabki jild bo'yicha	75	320	4
6	Po'lat 45X, $\sigma_v = 750$ MPa (~75 kgk/mm ²)	Pokovka	Yakuniy, sovitishli $R_z = 20$	90	250	1,5
7	Kulrang cho'yan Sch 20, <i>HB</i> 200	Quyma	Dastlabki jild bo'yicha	60	300	4,5
8	Po'lat 40XHMA, $\sigma_v = 850$ MPa (~85 kgk/mm ²)	Shtamp langan	Yakuniy, sovitishli $R_z = 20$	85	400	1,5
9	Latun ІК 80-3, <i>HB</i> 110	Quyma	Yakuniy, $R_a = 2$	45	130	1
10	Kulrang cho'yan Sch 30, <i>HB</i> 220		Dastlabki jild bo'yicha	70	350	5

8. Kesishga sarflanuvchi quvvatni aniqlaymiz (135-xarita, 252-253-b.). $s_z = 0,18 \dots 0,32$ mm/tish uchun, $B = 84$ mm.gacha. $t = 3,5$ gacha va $s_M = 172$ mm/min.gachada $N_{jad} = 3,1$ kVt. Berilgan ishlov berish sharoiti uchun xaritada keltirilgan tuzatish koefitsienti $k_N = 1$. U holda $N_{kes} = N_{jad} = 3,1$ kVt.

9. Dastgoh uzatmasi quvvatining yetarli ekanini tekshiramiz. 6P82Г dastgoh shpindelining quvvati $N_{shp} = N_h \cdot \eta = 7,5 \cdot 0,8 = 6$ kVt, haqiqiy quvvati $N_h = 7,5$ kVt, $\eta = 0,8$: $N_{kes} < N_{shp}$ ($3,1 < 6$), ya'ni ishlov berish mumkin.

III. Asosiy vaqt ni aniqlaymiz:

$$T_a = L/s_m \text{ min}; L = l + y + A.$$

Silindrik frezalashda tanavorga frezaning kirishi $y = t(D - t) =$

$$= 3(90 - 3) = 261 \approx 16 \text{ mm}. \text{ Chiqishi } A = 1 \dots 5 \text{ mm}; A = 3 \text{ mm olamiz.}$$

$$\text{U holda } L = 300 + 16 + 3 = 319 \text{ mm}; T_a = 319 / 160 = 1,98 \text{ min.}$$

5.13-masala. 6P82G gorizontal-frezalash dastgohida eni $B = 32$ mm, chuqurligi $h = 15$ mm va uzunligi $l = 250$ mm ariqcha (paz) disk simon freza bilan qora frezalanmoqda. Ishlanuvchi tanavor material – po'lat 40X mustahkamligi $\sigma_v = 700$ MPa (~70 kgk/mm²); tanavor – yassi sirtiga dastlabki ishlov berilgan pokovka.

T a l a b e t i l a d i: keskich asbobni tanlash; me'yoriy hujjatlar jadvallaridan foydalanib kesish tartibini tayinlash; asosiy vaqt ni aniqlash.

5.15-misol. 6P82G gorizontal-frezalash dastgohida eni $B = 32$ mm, chuqurligi $h = 15$ mm va uzunligi $l = 250$ mm ariqcha (paz) disk simon freza bilan qora frezalanmoqda. Ishlanuvchi tanavor material – po'lat 40X mustahkamligi $\sigma_v = 700$ MPa (~70 kgk/mm²); tanavor – yassi sirtiga dastlabki ishlov berilgan pokovka.

T a l a b e t i l a d i: keskich asbobni tanlash; me'yoriy hujjatlar jadvallaridan foydalanib kesish tartibini tayinlash; asosiy vaqt ni aniqlash.

Yechish ([13] me'yorlari bo'yicha). I. Frezani tanlaymiz va uning geometrik parametrlarini o'rnatamiz. P6M5 (P18) tezkesar po'latdan yasalgan o'rnatiluvchi pichoqli uch tomonli freza qabul qilamiz. $B = 32$ mm ariqcha frezalash uchun diametri $D = 150$ mm tishlar soni $z = 16$ (185-xarita, 326-b.) frezani qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Frezaning geometrik parametrlarini 2-ilova, 365-b. bo'yicha qabul qilamiz: $\gamma = 15^\circ$; $\alpha = 16^\circ$.

II. Kesish tartiblarini tayinlaymiz.

I. Kesish chuqurligini o'rnatamiz. Qo'shimni bir ishchi yurishda olib tashlaymiz; ya'ni, $t = h = 12$ mm.

2. Freza tishiga surish tayinlaymiz (184-xarita, 325-b.). $D = 150$ mm., $t=15$ mm.gacha va po'latni ishlash uchun $s_z = 0,10 \dots 0,05$ mm/tish; $s_z = 0,08$ mm/tish.ni qabul qilamiz.

3. Frezaning turg'unligini tayinlaymiz (2-jad., 204 b.). Diametri $D = 150$ mm.li P18 po'latdan yasalgan o'rnatiluvchi pichoqli disksimon freza uchun turg'unlik davrini $T = 150$ min olishni tavsiya qilinadi. Freza tishlarining orqa tomonidan ruxsat etiluvchi yeyilishi $h_{ot} = 0,6$ mm (3-ilova, 372-b.).

4. Frezaning ruxsat etilgan kesish xususiyatidan kelib chiquvchi, kesish tezligini aniqlaymiz (185-xarita, 326-b.). $D = 150$ mm, $z = 16$, $B = 12 \dots 34$ mm, $t = 18$ mm.gacha va $s_z = 0,1$ mm/tish.gachada $v_{jad} = 41$ m/min. Xarita eslatmasiga binoan yana po'latning guruhi va mexanik tavsifiga bog'liq bo'lган tuzatish koeffitsienti k_{M_1} ni hisobga olish zarur (120-xarita bo'yicha, 230-231-b.): $k_{M_1} = 0,9$ (xromli po'lat 40X uchun, $\sigma_v = 60 \dots 76$ kgk/mm²);

$$v_a = v_{jad} k_{M_1} = 41 \cdot 0,9 = 37 \text{ m/min} (\sim 0,62 \text{ m/s}).$$

5. Topilgan kesish tezligiga mos keluvchi, shpindelning aylanishlar soni.

$$n = \frac{1000 v_a}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 37}{3,14 \cdot 150} = 78 \text{ ayl/min.}$$

Shpindelning aylanishlar sonini dastgoh pasportida berilganlar bilan tuzatish kiritib. haqiqiy aylanishlar soni $n_h = 80$ ayl/min. (n_h ning yaqin kattaroq qiymati qabul qilindi, ammo n ni hisoblisidan ortiqligi 5% ga ham bormaydi).

6. Haqiqiy kesish tezligi

$$v_h = \frac{\pi D v_a}{1000} = \frac{3,14 \cdot 150 \cdot 80}{1000} = 37,6 \text{ m/min} (\sim 0,63 \text{ m/s}).$$

7. Minutli surish $s_m = s_z z n_h = 0,08 \cdot 16 \cdot 80 = 102$ mm/min. Surish dastgoh pasportida berilganlar bilan tuzatish kiritamiz va haqiqiysini o'rnatamiz $s_m = 100$ mm/min.

8. Kesishga sarflanuvchi quvvatni aniqlaymiz (186-xarita, 327-b.). $s_z = 0,1$ mm/tish, $B = 35$ mm.gacha, $t = 16$ mm. gacha va $s_M = 110$ mm/min uchun $N_{jad} = 4,6$ kVt.

Berilgan ishilov berish sharoiti uchun tuzatish koeffitsienti

$k_N = 1$, ya'ni $N_{kes} = N_{jad} = 4.6 \text{ kVt}$.

9. Dastgoh uzatmasi quvvatining yetarli ekanini tekshiramiz. 6P82Г dastgoh shpindelining quvvati $N_{shp} = N_h \eta = 7.5 \cdot 0.8 = 6 \text{ kVt}$. haqiqiy quvvati $N_h = 7.5 \text{ kVt}$. $\eta = 0.8$; $N_{kes} < N_{shp}$ ($4.6 < 6$), ya'ni ishlov berish mumkin.

III. Asosiy vaqt ni aniqlaymiz: $T_a = L/s_m \text{ min}$; $L = l + y + A$.

Disksimon freza bilan frezalashda tanavorga frezani kirishi

$$y = t(D-t) = 15(150-15) = 2020 = 45 \text{ mm}. \text{ Chiqish}$$

$A = 1 \dots 5 \text{ mm}$; $A = 4 \text{ mm}$ olamiz. U holda $L = 250 + 45 + 4 = 299 \text{ mm}$;

$$T_a = 299/100 = 2.99 \text{ min}.$$

5.14-masala. 6P82G gorizontal-frezalash dastgohida eni B, chuqurligi h va uzunligi / ariqcha (paz) disksimon freza bilan dastlabki frezalanmoqda (5.13-jadval). Tanavor – yassi sirtiga dastlabki ishlov berilgan. T a l a b e t i l a d i: keskich asbobni tanlash; kesish tartibini tayinlash; asosiy vaqt ni aniqlash.

5.16-misol. 6P12 vertikal-frezalash dastgohida oxirgi freza bilan eni $b = 32 \text{ mm}$, chuqurligi $h = 15 \text{ mm}$ va uzunligi $/ = 300 \text{ mm}$.li ariqcha uzinasiga frezalanmoqda. Ishlanuvchi tanavor materiali - po'lat 45, $\sigma_v = 650 \text{ MPa}$ ($\sim 65 \text{ kgk/mm}^2$). Ishlov berish usuli – yarimtoza, sirt g'adir-budurligi $R_z = 16 \text{ mkm}$. Sovitish emulsiya bilan. T a l a b e t i l a d i: keskich asbobni tanlash; me'yoriy hujjatlar jadvallaridan foydalanib kesish tartibini tayinlash; asosiy vaqt ni aniqlash.

Yechish ([16] ma'lumotnomasi bo'yicha).

I. Frezani tanlaymiz va uning geometrik parametrlarini o'rnatamiz. Normal tishli P6M5 (P18) tezkesar po'latdan tayyorlangan oxirgi frezani qabul qilamiz. Frezaning diametrini ariqcha eniga teng qilib qabul qilamiz, ya'ni $D = b = 32 \text{ mm}$; tishlar soni $z = 6$ (161-xarita, 293-b.).

Frezaning geometrik parametrlari (2-ilova., 369-b.): $\gamma = 15^\circ$; $\alpha = 14^\circ$; $\varphi_1 = 3^\circ$.

5.13-jadval (5.14-masalaning berilganlari)

Variant	Tanavor materiali	Tanavor	Jshlov berish va g'adir- budurlik parametri, mkm	B	I	h
				mm		
1	Po'lat 20X, $\sigma_v = 580$ MPa ($\sim 58 \text{ kgk/mm}^2$)	Prokat	Sovitishli	18	150	8
2	Kulrang cho'yan Sch10, HB 160	Quyma	Sovitish siz	20	400	10
3	Po'lat 50, $\sigma_v = 750$ MPa ($\sim 75 \text{ kgk/mm}^2$)	Prokat	Sovitishli	22	380	12
4	Kulrang cho'yan Sch15, HB 180	Quyma	Sovitish siz	24	120	12
5	Bronza Br. АЖН 10-4, HB 170			16	280	10
6	Po'lat 30XM, $\sigma_v = 780$ MPa ($\sim 78 \text{ kgk/mm}^2$)	Pokovka	sovitishli	36	170	15
7	Kulrang cho'yan Sch 20, HB 200	Quyma	Sovitish siz	30	350	15
8	Latun ЙМІДЖ 52-4-1, HB 100			20	100	8
9	Po'lat 30XH3A, $\sigma_v = 800$ MPa ($\sim 80 \text{ kgk/mm}^2$)	Shtamp langan	sovitishli	28	420	10
10	Kulrang cho'yan Sch 30, HB 220	Quyma	Sovitish siz	40	520	18

II. Kesish tartiblarini tayinlaymiz.

1. Kesish chuqurligini o'rnatamiz. Oxirgi freza bilan frezalashda kesish chuqurligi bo'lib ariqcha eni hisoblanadi. Mazkur holda $t = b = 32$ mm. Bir yurishda frezalashda ariqcha chuqurligi frezalash eni B (mm) bilan teng. Bu misolda $B = h = 15$ mm.

2. Frezaning tishiga surish tayinlaymiz (161-xarita, 293-b.).

Po'latni frezalash uchun, $D = 32$ mm, $z = 6$ va $h = 15$ mm $s_z = 0,09 \dots 0,06$ mm/tish. DMAD tizimini bikir deb hisoblab, $s_z = 0,09$ mm/tish qabul qilamiz.

3. Frezaning turg'unligini tayinlaymiz (2-jad., 204-b.). Diametri

D = 32 mm.li tezkesar po'lat P18 tayyorlangan oxirgi freza uchun turg'unlik davri T = 90 min. Freza tishlarining orqa tomonidan ruxsat etilgan yeyilishi $h_{or} = 0,5$ mm (3-ilova, 372-b.).

4. Frezani ruxsat etilgan kesish xususiyatidan kelib chiquvchi, kesish tezligini aniqlaymiz (162-xarita, 294-b.). Normal tishli freza uchun, D=32 mm, z = 6, ariqcha eni 32 mm, ariqcha chuqurligi 30 mm.gacha va $s_z = 0,09$ mm/tish.gachada $v_{jad} = 19,5$ m/min. Xaritaning 1-eslatmasida ko'rsatilganki, ular keltirilgan kesish tartiblari $Rz = 16$ mkm sirt g'adir-budurligini ta'minlaydi, chunki bu ishlov berish shartiga mos keladi. 2-eslatmaga binoan po'latning guruhi va mexanikaviy tavsifiga bog'liq tuzatish koefitsienti k_{M_1} ni hisobga olish zarur (120-xarita bo'yicha, 230-b.): $k_{M_1} = 1,2$ (po'lat 45 va $\sigma_v = 56 \dots 75$ kgk/mm²)).

Shuning uchun $v_a = v_{jad} k_{M_1} = 19,5 \cdot 1,2 = 23,4$ m/min (~0,39 m/s).

5. Topilgan kesish tezligiga mos keluvchi, shpindelning aylanishlar soni,

$$n = \frac{1000v_a}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 23,4}{3,14 \cdot 32} = 232 \text{ ayl/min.}$$

Shpindelning aylanishlar sonini dastgoh pasportida berilganlar bilan tuzatish kiritib, haqiqiy aylanishlar soni $n_h = 200$ ayl/minni o'rnatamiz.

6. Haqiqiy kesish tezligi

$$v_h = \frac{\pi D v_a}{1000} = \frac{3,14 \cdot 32 \cdot 200}{1000} = 20,1 \text{ m/min (~0,34 m/s).}$$

7. Minutli surish $s_m = s_z z n_h = 0,09 \cdot 6 \cdot 200 = 108$ mm/min. Bu surish dastgoh pasportida berilganlar bilan tuzatish kiritamiz va $s_m = 100$ mm/min olamiz.

8. Kesishga sarflanuvchi quvvatni aniqlaymiz (163-xarita, 295-b.). $s_z = 0,05 \dots 0,09$ mm/tish uchun, ariqcha eni $B = 32$ mm, ariqcha chuqurligi $t = 15$ mm.gacha va $s_M = 112$ mm/min.gachada $N_{jad} = 3$ kVt.

Berilgan ishlov berish sharoiti uchun xaritada keltirilgan tuzatish koefitsienti $k_N = 1$. U holda $N_{kes} = N_{jad} = 3$ kVt.

9. Dastgoh uzatmasi quvvatining yetarli ekanini tekshiramiz. 6P12 dastgoh shpindelining quvvati $N_{shp} = N_h \eta = 7,5 \cdot 0,8 = 6$ kVt,

haqiqiy quvvati $N_p = 7,5 \text{ kVt}$, $\eta = 0,8$; $N_{kes} < N_{shp}$ ($3 < 6$), ya`ni ishlov berish mumkin.

III. Asosiy vaqt ni aniqlaymiz:

$$T_a = L/s_m \text{ min}; L = l + y + A.$$

Oxirgi freza bilan ariqchani frezalashda tanavorga frezaniнг kirishi $y = D/2 = 32/2 = 16 \text{ mm}$.

Stolning inersion to`xtashi $A = 1\dots5 \text{ mm}$; $A = 3 \text{ mm}$.ni qabul qilamiz. U holda $L = 300 + 16 + 3 = 319 \text{ mm}$:

$$T_a = 319/100 = 3,19 \text{ min.}$$

5.14-jadval. (5.15-masalaning berilganlari)

Variant	Tanavor materiali	Tanavor	Ishlov berish	<i>b</i>	<i>l</i>	<i>h</i>
				mm		
1	Po`lat 20XH, $\sigma_c = 600 \text{ MPa}$ ($\sim 60 \text{ kgk/mm}^2$)	Prokat	Sovitishli	30	300	5
2	Kulrang cho`yan Sch30, $HB 220$	Quyma	Sovitish siz	16	200	10
3	Po`lat 40X, $\sigma_c = 750 \text{ MPa}$ ($\sim 75 \text{ kgk/mm}^2$)	Pokovka	Sovitishli	18	80	10
4	Kulrang cho`yan Sch10, $HB 160$	Quyma	Sovitish siz	20	160	12
5	Po`lat 40XH, $\sigma_c = 700 \text{ MPa}$ ($\sim 70 \text{ kgk/mm}^2$)	Shtamp langan	Sovitishli	28	385	4
6	Bronza Br. OII 4-3, $HB 70$	Pokovka	Sovitish	25	180	10
7	Kulrang cho`yan Sch 10, $HB 170$	Quyma	siz	35	500	16
8	Po`lat 5, $\sigma_c = 600 \text{ MPa}$ ($\sim 60 \text{ kgk/mm}^2$)	Pokovka	Sovitishli	22	350	12
9	Kulrang cho`yan Sch 15, $HB 180$	Quyma	Sovitish	25	250	15
10	Latun JKC 80-3.3, $HB 90$		siz	14	50	5

5.15-masala. 6P12 vertikal-frezalash dastgohida oxirgi freze bilan eni b , chuqurligi h va uzunligi l li ariqcha uzunasiga frezalanmoqda. Ishlov berish - yarimtoza, ishlanuvchi sirt g`adubudurligi $R_z = 16 \text{ mkm}$ (5.14-jadval).


T a l a b e t i l a d i: keskich asbobni tanlash; me`yoriy hujjatlar jadvallaridan foydalanib kesish tartibini tayinlash; asosiy vaqt ni aniqlash.

Masalani yechishda [13] me`yorlardan tashqari [10,12] ma`lumotnomalardan foydalanilsa ham bo`ladi.

5.6. Jilvirlash uchun kesish tartiblarini o`rnatish

5.17-misol. Markaslarda tashqi aylanma jilvirlash. 3M131 aylanma jilvirlash dastgohida bo`ylama surish usuli bilan diametri $D = 40h6_{(-0,016)}$ mm va uzunligi $l = 210$ mm valning qismi yurib o'tishga jilvirlanadi; val uzunligi $l_1 = 260$ mm. Ishlangan sirt g`adir-budurligi $R_a = 1$ mkm. Har tomonning qo'shim h = 0,2 mm. Tanavor materiali – HRC52 qattiglik bilan toblangan po`lat 40X. Tanavorni mahkamlash uslubi-markazlarda. Ishlov berish eskizi 5.7-rasmda keltirilgan.

T a l a b e t i l a d i : aylanma jilvir toshni tanlash; kesish tartibini tayinlash; asosiy vaqtini aniqlash.



5.7-rasm. Silindrik aylanma tosh bilan jilvirlash amalining eskizi

Yechish ([16] ma`lumotnomaga bo`yicha). I. Jilvirlash toshini tanlaymiz. Aylanma tosh tavsifini o`rnatamiz (176-jad., 346-b.). Bo`ylama surish bilan aylanma tashqi jilvirlash uchun, sirt g`adir-budurligi parametri $R_a = 1$ mkm, HRC > 50 li konstruksion toblangan po`latga quyidagi tavsif etiladi: 3,3B40CM2K.

Abraziv zarralari materialini qabul qilamiz – oq elektrkorundi (3B), qaysining 39A markasini 167-jad (332-b.) bo`yicha o`rnatamiz. Bu oq elektrkorund markasini tanlash, tanavorning jilvirlanuvchi sirtini yuqori qattiqligi va ishlov berishning aniqligiga va ishlangan sirt sifatiga qo`yiluvchi talablar bilan shartlangan. Tavsifida qabul qilindi: zarradorlik 40, qattiqlik CM2 bog`lovchi keramikali (K).

Qo'llayotgan ma'lumotnomamizda jilvir toshlarning mavjud standartlarda ko'zda tutilgan qator tavsiflari yetishmaganligi sababli to'la tavsiflangan markali ПВД24А40НСМ25К8 35 m/s yangi jilvir toshni qabul qilamiz.

Yangi jilvir toshning o'lchamlari: diametri $D = 600\text{mm}$, tosh eni (yoki balandligi) $B_{ju} = 63 \text{ mm}$.

II. Kesish tartiblarini tayinlaymiz.

Kesish tartiblari bo'yicha taviyalar [16] ma'lumotnomanomaning 69-jad. (465-b.) keltirilgan

1. jilvir tosh tezligi $v_{ju} = 30 \dots 35 \text{ m/s}$;

$$v_{ju} = \frac{\pi D_{ju} n_{ju}}{1000.60}$$

3M131 dastgohi pasportida berilgan bo'yicha yangi tosh $D_{ju} = 600 \text{ mm}$; $n_{ju} = 1112 \text{ ayl/min}$. U holda

$$v_{ju} = \frac{3.14 \cdot 600 \cdot 1112}{1000.60} = 35 \text{ m/s}, \text{ ya'ni tavsiya etilgan diapazon oralig'ida.}$$

1. Tanavorning aylanma tezligi $v_z = 15 \dots 55 \text{ m/min}$. O'rtacha qiymati $v_z = 35 \text{ m/min}$ ($\sim 0.58 \text{ m/s}$)ni qabul qilamiz.

2. Qabul qilingan aylanishlar tezligiga mos keluvchi aylanishlar sonini aniqlaymiz:

$$n_z = \frac{1000 v_z}{\pi d_z} : n_z = \frac{1000 \cdot 35}{3.14 \cdot 40} = 280 \text{ ayl/min.}$$

Topilgan qiymat $n_z = 280 \text{ ayl/min}$ -ni, $40 \dots 400 \text{ ayl/min}$ oralig'ida tanavor aylanishi takrorlanishini pog'onasiz rostlashga ega bo'lgan 3M131 dastgohida o'rnatish mumkin.

4. Jilvirlash chiqurligi (toshni ko'ndalang surish). Stolni t $0.005 \dots 0.015 \text{ mm/yur}$: ishlov berish aniqligiga (qo'yim maydoni h_0 bo'yicha) va sirt g'adir-budurligi $R_a = 1 \text{ mkm}$ qo'yilgan talabni hisobga olib, $t = 0.005 \text{ mm/yur}$ -ni qabul qilamiz. Chunki 3M131 dastgohida ko'ndalang surishlar $0.002 \dots 0.1 \text{ mm/yur}$ oralig'ida pog'onasiz rostlanadi, xillas $t = 0.005 \text{ mm/yur}$ -ni qabul qilamiz.

5. Detalning bir aylanishidagi bo'ylama surishni aniqlaymiz: $s_{ju} B_{ju}$. Ma'lumotnomada bo'ylama surish jilvir tosh enining ulushi

sifatida tavsiya etiladi $s_d = 0,2 \dots 0,04$; qabul qilamiz $s_d = 0,3$. U holda $s = 0,3 \cdot 63 = 18,9$ mm/ayl.

Stolning bo'ylama yurish tezligini aniqlaymiz:

$$v_{st} = s n_d / 1000 = 18,9 \cdot 280 / 1000 = 5,3 \text{ m/min} (\sim 0,09 \text{ m/s}).$$

Qo'llayotgan dastgohimizda stol bo'ylama yurishi tezligini $0,05 \dots 0,5$ m/min oralig'ida pog'onasiz rostlash ko'zda tutilgan, shuning uchun $v_{st} = 0,5$ m/min ni qabul qilamiz (ya'ni maksimalini).

7. Kesishga sarflanuvchi quvvatni aniqlaymiz:

$$N_{kes} = C_N v_d^r t^x s^y d^q \quad (469\text{-b.})$$

Ma'lumotnomani 70-jad.dan (486 b.) formulaning koeffitsienti va daraja ko'satkichlarini yozib olamiz: stolni har bir yurishini ko'ndalang surish bilan tashqi aylanma jilvirlash uchun, po'latni ishlashni, tosh zarradorligi 40, qattiqligi CM2 (CM1-C1 diapazonida joylashgan) $C_N = 2,65$; $r = 0,5$; $x = 0,5$; $y = 0,55$; $q = 0$. U holda $N_{kes} = 2,65 \cdot 35^{0,5} \cdot 0,005^{0,5} \cdot 18,9^{0,55} = 2,65 \cdot 5,92 \cdot 0,07 \cdot 5,05 = 5,5$ kVt.

8. Jilvirlash babkasi dvigatelining quvvati yetarli ekanligini tekshiramiz.

3M131 dastgohining $N_{shp} = N_h \eta = 7,5 \cdot 0,8 = 6$ kVt, $N_{kes} \leq N_{shp}$ ($5,5 < 6,0$), ya'ni ishlov berish mumkin (agar hisoblashda dastgoh yuklamasi quvvat bo'yicha ortib ketsa, quvvat N_{kes} tanavor aylanma tezligini ma'lumotnomada tavsiya qilingan diapazon oralig'ida o'zgartirish yo'li bilan pasaytirish mumkin).

III. Asosiy vaqt

$$T_a = \frac{Lh}{n_{st} K},$$

bunda L - stol yurishi uzunligi; jilvir toshning har qaysi tarafiga $0,5B_H$ ga teng yugurib o'tishida, $L = l = 210$ mm; h - har tomon qo'shimi, shart bo'yicha $h = 0,2$ mm; n_{st} , s va t lar misolni yechish mobaynida aniqlangan; K - ko'ndalang surishsiz jilvirlashda "oxiriga yetqazish" vaqtini hisobga oluvchi aniqlik koeffitsienti, ya'ni (talab etilgan ishlov berish aniqligiga va ishlangan sirt g'adir-budurligiga yetishish uchun amalning yakuniy bosqichida amalga oshiriladi); dastlabki jilvirlashda $K \approx 1,2$, toza jilvirlashda esa $K \approx 1,4$; $K = 1,4$ ni qabul qilamiz. U holda

$$T_a = \frac{210 \cdot 0.2}{280 \cdot 18.9 \cdot 0.005} \cdot 1.4 = 1.59 \cdot 1.4 = 2.22 \text{ min.}$$

5.15-jadval (5.16-masalaning berilganchi)

Variant	Fanavor materiali po'lat	Ishlov berish va sirt g'adir-budurligi mkm	d _z	l	L _l	h	Jilvirlash
1	Y7A toblangan <i>HRC 60</i>	Yakuniy. <i>Ra</i> = 1	60	350	410	0.22	Yurib o'tishga bo'ylama surish
2	40X toblangan. <i>HRC 52</i>	Yakuniy. <i>Ra</i> = 0.5	55	20	140	0.15	Radial surish bilan
3	Po'l 5 toblan ma gan	Dastlabki <i>Ra</i> = 2	90	400	600	0.25	Yurib o'tishga bo'ylama surish
4	45X toblangan. <i>HRC 45</i>	Yakuniy.	75	50	350	0.18	Radial surish bilan
5	45 toblangan. <i>HRC 35</i>	Yakuniy. <i>Ra</i> = 1	100	380	700	0.25	Yurib o'tishga bo'ylama surish
6	Po'l 35 toblan ma gan	Dastlabki <i>Ra</i> = 2	80	300	550		
7	45XII toblan gan. <i>HRC 42</i>	Yakuniy. <i>Ra</i> = 0.5	50	35	285	0.15	Radial surish bilan
8	40 35 toblan magan	Yakuniy. <i>Ra</i> = 1	45	270	320	0.2	
9		Dastlabki <i>Ra</i> = 2	120	500	750	0.25	Yurib o'tishga bo'ylama surish
10	45XHMA toblangan <i>HRC 55</i>	Yakuniy. <i>Ra</i> = 0.5	65	240	300	0.2	

5.16-masala. 3M131 aylanma jilvirlash dastgohida diametri d va uzunligi l valning bo'yni jilvirlanadi; val uzunligi l_l, bir tomonning qo'shimi h (5.15-jad.). T a l a b e t i l a d i: aylanma jilvir toshni tanlash; kesish tartibini tayinlash; asosiy vaqtini aniqlash.


Masalani yechishda [16] ma'lumotnomadan tashqari [10,14,15] adabiyotlardan foydalanish mumkin

5.18-misol. Yassi sirtni jilvirtosh doira sirti bilan jilvirlash.

311722 to'g'ri to'rtburchak stolli yassi-jilvirlash dastgohida eni *B* = 110 mm va uzunligi *l* = 280 mm.li plankani yassi sirti jilvirlanmoqda; tomonlarining qo'shimlari *h* = 0,35 mm. Sirt g'adir-

budurligi parametri $R_a = 1,25$ mkm. Tanavor materiali po'lat 45XII toblangan. qattiqligi HRC 50. Dastgoh magnitli stoliga oltita tanavor ikki qator o'rnatiladi. Ishlov berish eskizi 5.8-rasmida keltirilgan.

T a l a b e t i l a d i : jilvir toshini tanlash; kesish tartiblarini tayinlash; asosiy vaqtini aniqlash.



5.8-rasm. 5.18-misolining
ishlov berish eskizi

Qo'llaniluvchi me'yordarda jilvirtoshlarning ba'zi bir harakatdagi standartlarda ko'zda tutilgan tavsiflari keltirilmagan. Shuning uchun N. A. Nefyodov "Kesish tartiblarini hisoblash" misol-masalalar to'plamidan foydalanamiz. II zarradorlik indeksini qabul qilamiz (asosiy fraksiya mazmuni 25...55% li zarradorlikda). Qabul qilingan keramikaviy bog'lovchi – K1 o'rnatamiz (elektrkorundli jilvirtoshlar uchun). Jilvirtosh turkumini o'rnatamiz. Yassi-jilvirlash dastgohlarida, jilvirtoshlar doira sirti bilan ishlashlarida, odatdagidek III turkumli jilvirtosh qo'llaniladi (yassi to'g'ri profilli). Jilvirtosh sinfi-A ni qabul qilamiz. Jilvirtosh ruxsat etuvchi aylanma tezligini ko'rsatamiz-35 m/s (odatdagisi jilvirlash uchun).

Jilvirtoshning to'la tavsifini markirovkalash - III 14A25HCM27K1A 35 m/s.

3П722 dastgohi yangi jilvirtosh diametri $D_{jt} = 450$ mm; eni (balandligi) $B_k = 80$ mm (dastgohning pasporti bo'yicha).

II. Kesish tartiblarini tayinlaymiz.

1. Qabul qilingan jilvirtosh tezligi $v_{ju} = 35$ m/s ga mos keluvchi jilvirtosh aylanishlar sonini aniqlaymiz:

$$n_{pt} = \frac{1000 \cdot 60 v_p}{\pi D_p}; n_{pt} = \frac{1000 \cdot 60 \cdot 35}{3,14 \cdot 450} = 1486 \text{ ayl/min.}$$

311722 dastgohi pasportida berilganlarga binoan $n_{pt} = 1500$ ayl/min qabul qilamiz.

2. Tanavorning harakat tezligini aniqlaymiz (stolning bo'ylama siljish tezligi)

19-xarita bo'yicha, 3-varaq (194-195-b.). Konstruksion po'lat uchun gattiqligi HRC 56 gacha $v_h = 16 \text{ m/min}$ ($\sim 0.27 \text{ m/s}$).

3. Jilvirtoshni ko'ndalang surishini aniqlaymiz (19-xarita, 3-varaq, 194-b.). Sirt g'adir-budurligi parametri $R_a = 1.25 \text{ mkm}$ va jilvir tosh eni $B_{ji} = 80 \text{ mm}$ uchun $s_k = 32 \text{ mm/stol yurishi}$.

4. Har bir yurib o'tish uchun chuqurlikka surishni aniqlaymiz (19-xarita, 3 varaq, 194-195-b.). Har bir yurib o'tish uchun chuqurlikka surishni, yoki jilvirtoshni, vertikal surish ko'ndalang surish harakati (reversi) jarayonida amalga oshiriladi. Qattiqligi HRC 50 konstruksion po'lat, ishslash qo'shimi 0.35 mm va ko'ndalang surish $s_k = 38 \text{ mm/yur}$ uchun $s_{t_1} = 0,014 \text{ mm}$ (jilvirlovchi babkaning reversi uchun).

Bu surish uchun tuzatish koeffitsientini hisobga olamiz (19-xarita, 4-varaq, 196-197-b.).

Ishlanuvchi material va 45XH xrom va nikel bilan legirlangan konstruksion po'latga ishlov berish aniqligiga bog'liq bo'lganligidan, material II guruh ishlanuvchanligiga kiradi. Bu guruh ishlanuvchanlikdagi material uchun, ishlov berish aniqligi 0.05 mm (shart bo'yicha) va g'adir-budurligi parametri $R_a = 1.25 \text{ mkm}$ uchun tuzatish koeffitsienti $k_{s_{t_1}} = 1.5$.

Jilvirtosh o'lchamiga va stol to'lishi ya'ni $\sum F$ nisbatga $B L$, bog'liq, bunda $\sum F$ - yig'indi jilvirlash maydoni, mm^2 ; $B L$ - tegishlicha dastgoh stolida jilvirlanuvchi tanavor joylashishi, gabarit eni va uzunligi. Stolda oltita tanavor o'rnatilgan (ishlov berish eskiziga qar.). Demak, $B = 110 \cdot 2 = 220 \text{ mm}$; $L = 280 \cdot 3 = 840 \text{ mm}$; $\sum F = 220 \cdot 840 = 184800 \text{ mm}^2$. Olingan qiymatlarni nisbatga qo'yib olamiz $\frac{220 \cdot 840}{220 \cdot 840} = 1$. Bu nisbat jilvirlashning yig'indi maydoni dastgoh stolida jilvirlanuvchi

tanavor gabarit maydonidan kichik bo'lsa, masalan teshikli halqa, vtulka, plankalar, plitalar va h.k. tipidagi tanavorlarda, birdan kam bo'ladi. Birga teng nisbat uchun, va jilvirtosh diametri $D_H = 450$ mm (xaritada 410...500 diapazonda) tuzatish koefitsienti $k_{s_{t_2}} = 0.71$.

Ishlov berish aniqligi va dastgoh bikirligiga bog'liq holda (2-xarita, 110-b.) 3П722 modelli yassi-jilvirlash dastgohi uchun (xaritani grafasiga qar., qayerda 3720 mod. keltirilgan) 10 yil uzluksiz ishlagan bo'lsa, tuzatuvchi koefitsient $k_b = 1$.

Jilvirtosh qattiqligiga bog'liq holda (18-xarita, 1-eslatma, 190-b.) qabul qilingan CM2 qattiqlik uchun tuzatish koefitsienti $k_q = 1$.

Tuzatish koefitsientlarni hisobga olib

$$S_{t_v} = 0,014 \cdot k_{s_{t_1}} \cdot k_{s_{t_2}} \cdot k_b \cdot k_q = 0,014 \cdot 1,5 \cdot 0,71 \cdot 1 \cdot 1 = 0,015 \text{ mm}$$

(jilvirlovchi babbani reverslash uchun).

5. Kesish uchun sarflanuvchi quvvatni aniqlaymiz (20-xarita, 1-varaq, 198-199-b.).

Il guruh ishlanuvchi material uchun, $v_z = 20$ m/min.gacha, ko'ndalang surish $s_k = 35$ mm/yur.gacha va chuqurligi bo'yicha yurib o'tishga surish $S_{t_v} = 0,015$ mm uchuq $N_{jad} = 8.4$ kVt.

Quvvatni tuzatish koefitsientini hisobga olamiz (20-xarita, 2-varaq, 200-b.). Tosh qattiqligi CM2 va eni $B_H = 80$ mm tusatish koefitsienti, $k_N = 1,05$ ($k_N = 1$ $B_H = 63$ mm uchun interpolyatsiyalanib topilgan va $k_N = 1,12$ $B_H = 100$ mm uchun). U holda

$$N_{kes} = N_{jad} \cdot k_N = 8.4 \cdot 1,05 = 8,65 \text{ kVt.}$$

6. Jilvirlash shpindeli uzatmasining quvvati yetarli ekanligini tekshiramiz. 3И722 dastgohi shpindelining quvvati $N_{shp} = N_{H\eta} = 15 \cdot 0,85 = 12,75$ kVt; $N_{kes} \leq N_{shp}$ ($8,65 < 12,75$), ya'ni ishlov berish mumkin.

7. Kuydirmasdan jilvirlash sharti bajarilayotganini tekshiramiz.

Jilvirlash quvvatining ulushini hisoblaymiz:

$$N_{ul} = N_{kes} \cdot B_H = 8,65 / 80 = 0,105 \text{ kVt/mm.}$$

20-xarita, 2-varaq (200-b.) bo'yicha quvvat N_{ul} ning chegaraviy qiymatini aniqlaymiz, unda toblangan po'latni kuydirmasdan jilvirlash ta'minlanadi. Tosh qattiqligi CM2 va tanavor harakat tezligi $v_z = 20$

m/min.gacha uchun chegaraviy qiymat $N_{ul} = 0,11$ kVt/mm. Chunki $0,105 < 0,11$, ya'ni kuydirmasdan jilvirlash sharti bajarildi.

III. Asosiy vaqtini aniqlaymiz

$$T_a = \frac{HLh}{1000v_z s_u s_h q},$$

bu yerda H -jilvirtoshni ko'ndalang surish yo'nalishidagi siljishi, mm; $H = B_z + B_{jt} + 5$ – stolda o'rnatilgan tanavorlar jilvirlanuvchi sirtlari yig'indisi; B_{jt} – tosh eni; yechilayotgan misolda $B_{jt} = 80$ mm, unda

$H = 2 \cdot 110 + 80 + 5 = 305$ mm; L – stolning bo'ylama yurish uzunligi, mm; $L = L_z + (10 \dots 15)$ mm; L_z – stolga o'rnatilgan tanavorlarning yig'indisi uzunligi mazkur misolda $L_z = 3 \cdot 280 + 15 = 855$ mm; h – tomonlarining qo'shimi (shart bo'yicha $h = 0,35$ mm); v_z – tanavor (stol) harakatining tezligi, m/min; s_k – toshni ko'ndalang surish, stolni mm/yur; s_{t_v} – yurib o'tishga chuqurlikka surish (vertikal surish), mm (v_z , s_k va s_{t_v} qiymatlar misolni yechish mobaynida aniqlangan); q – dastgoh stoliga birvarakayiga o'rnatiluvchi tanavorlar soni (shart bo'yicha $q = 6$).

Keltirilgan formulada aniqlik koeffitsienti k berilmagan, chuqurligini "surishsiz jilvirlash", vaqtini hisobga oluvchi, ya'ni vertikal surish, chunki ishlatalayotgan me'yorlarda bu surishning s_{t_v} o'rtacha qiymati keltirilgan, jilvirlash va "surishsiz jilvirlash"ning to'la sikli vaqtini hisobga olinganligini inobatga olib ([14], 107 b.)

$$T_a = \frac{305 \cdot 855 \cdot 0,35}{1000 \cdot 16 \cdot 32 \cdot 0,015 \cdot 6} = 1,98 \text{ min.}$$

5.17-masala. 3П722 to'g'ri to'rburchak stolli yassi-jilvirlash dastgohida eni B va uzunligi l li to'g'ri to'rburchak shaklli tanavorning yassi sirti jilvirlanmoqda; detal balandligi h . Tomonlari qo'shimi h .

Dastgoh magnitli stoliga q sonli tanavor o'rnatilgan (5.16-jadvalga qar.). Ishlov berish eskizi 5.8-rasmida qo'shimi h .

T a l a b e t i l a d i: jilvir toshini tanlash; kesish tartiblarini tayinlash; asosiy vaqtini aniqlash.

Masalani yechishda [15] me'yorlardan tashgari [10,13,16] ma'lumotnomalardan foydalananish mumkin.

Variant	Tanavor materiali	Ra mkm	B	l	h_1	h	q	Dastgoh stolida tanavomi joylash uslubii
			mm	mm	mm	mm	mm	
1	Po'lat 5 tobliamagan	1,25	230	500	25-40,06	0,5	1	-
2	Kulrang cho'yan SCH 30, HB 220	0,63	250	300	50,0-65	0,4	2	Bir qator
3	Po'lat 45 XH tobliangan, HRC 52	1,25	110	100	20,0-32	0,2	12	Ikkii qator, qatorda oltta tanavor
4	Kulrang cho'yan SCH 15, HB 190	1,25	200	200	45,0-65	0,4	3	Bir qator
5	Po'lat 45 X tobliangan, HRC 40	0,63	140	150	30,0-33	0,5	10	Ikkii qator, qatorda beshta tanavor
6	Po'lat 35 tobliamagan	1,25	120	250	22-40,05	0,3	6	Ikkii qator, qatorda uchta tanavor
7	Kulrang cho'yan SCH 10, HB 170	1,25	230	450	60,0-67	0,5	1	-
8	Po'lat VTA tobliangan, HRC 55	0,63	55	150	10,0-22	0,2	30	Ikkii qator, qatorda oltta tanavor
9	Po'lat 45 tobliamagan	1,25	60	400	15,0-65	0,3	5	Ikkii qator, qatorda beshta tanavor
10	Po'lat 40 tobliangan, HRC 35	0,63	45	200	12,0-63	0,2	16	Ikkii qator, qatorda uchta tanavor

6.1. Texnologik jarayon va amallarni ishlab chiqish tartibi

Detałni tayyorlash texnologik jarayonini ishlab chiqish bir-biriga bog'langan kompleks ishlarni o'z ichiga oladi. Bularga: detał chizmasini o'rGANISH va texnologiyaboplilka tekshirish; ishlab chigarish turini aniqlash; dastlabki tanavorni tanlash; bir xil tipdagi texnologik jarayonlarni tanlab olish; texnologik amallarning ketma-ketlik tartibini va mazmunini aniqlash; texnologik bazalarni tanlash; texnologik jihozlash vositalarini, mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish vositalsrini aniqlash va tanlash hamda ularga buyurtmalar tuzish; ishlov berish tartiblarini tayinlash va hisoblash; amallar va jarayonni me'yorlash; ishchilar kasbini va malakasini aniqlash; ishlab chiqarish uchastkalarini tashkil qilish, sex ichi transport vositalarini tanlash; buyumlar va chiqindilarni harakatlantirish amallarini ishlab chiqish bilan birqalikda ishlab chiqarish uchastkalarini rejalash; texnologik jarayonning hamma texnologik hujjatlarini rasmiylashtirishlar kiradi.

Texnologik jarayonning har bir amalini to'g'ri loyihalash katta ahamiyatga ega. Detałning bitta sirtiga bir nechta variantlarda ishlov berish mumkin. Hatto bir xil usul bilan ishlov berish turli ishlab chiqarish sharoitida turli variantlarda amalga oshiriladi. Hatto bir ishlab chiqarish turining o'zida ham bu amal bir nechta variantlarda bajarilishi mumkin.


Ishlab chiqilgan har bir amal va texnologik jarayon texnik- iqtisodiy hisoblashlar natijalari bilan tahlil qilinadi va yuqori unumdon, detał tannarxini kamaytiruvchi va eng rentabelli varianti tanlab olinadi.

Pog'onali valga qora ishlov berish amali variantlarini turli ishlab chiqarish sharoiti uchun loyihalab ko'ramiz.

6.2. Tanavori qaynoqjo'valangan prokatdan kesib olingan pog'onali valga qora ishlov berish amalini loyihalash

6.1-misol. Pog'onali val (6.1-rasmga qar.) mayda seriyalli ishlab chiqarish sharoitida tokarlik dastgohida qora ishlov beriladi. Valning dastlabki tanavori donali normal aniqlikdagi


qaynoqjo' valangan prokatdan, diametri $D = 100^{+0.6}_{-1.7}$ - kesilgandan keyin yon sirtlari kesib tushirilib, markazlar ochilgan. Tanavor massasi $m_{H2} = 29,6$ kg. Materiali = po'lat 45 ($\sigma_v = 700$ MPa). Ishlov berilgandan keyingi detal holati 6.2-rasmida tasvirlangan [4].



6.1-rasm

T a l a b e t i l a d i: ishlov berish texnologik amalni loyihalash.

Yechish. 1. Sharti bo'yicha o'rnatamiz, chunki loyihalanuvchi amalda beshta tashqi silindrik sirt va to'rtta yon sirt – hammasi bo'llib to'qqizta sirt bor. O'lchamlar aniqligi yuqori emas – 12 kvalitet bo'yicha, sirt g'adir-budurligi yetarli yuqori ($R_s = 80$ mkm.).




6.2-rasm

Bunday aniqlikni va g'adir-budurlikni olish uchun bir marotaba tokarlik ishlov berish yetarlidir. Bunda katta kesish chiqurligi va surishni olish ruxsat etiladi. Valni chetki pog'onasidan, katta umumiy qo'shim olinishiga e'tiborni qaratish zarur. Bu kattalik $100 - 61.65 = 38.35$ mm.ga teng. Bunday qo'shimplar birnecha ishlchi yurishlarda olib tashlanadi. Binobarin, hamma tashqi sirtlar ishlaniши kerak (tashqi yon sirtlardan tashqari) ekan, amal ikki o'rnatuvda bajariladi.

Chiziqli o'lchamlarni qo'yilish xarakteri o'ziga e'tibor berishni talab etadi: ularning hammasi pog'onalar orasidagi yon sirtdan boshlab

berilgan 81,7 va 91,2 mm diametrlari bilan. Bu vaziyat, yon sirtlarga ishlov berish tartibiga ta'sir ko'rsatadi. Yon sirtlardan birinchi navbatda bazaviy yon sirtga ishlov berish zarur va tanavorni boshqa pog'onalarini ishlashda shu baza sirtdan boshlab chiziqli o'lchamlari hisobini olib borish va nazorat qilish kerak.



6.3-rasm

2. Yuqoridagi keltirilgan mulohazalardan kelib chiqqan holda texnologik amal ikki o'rnatuv (6.3-rasm) va 6.1-jadvalda qayd etilgan to'qizta texnologik o'tuvlardan tashkil topadi.

3. Mayda seriyali ishlab chiqarish universal texnologik jihozlarni qo'llashni taqozo etadi.

4. Ko'rileyotgan holat uchun, ishlab chiqarish turini hisobga olgan holda universal tokarlik va tokarlik-vintkesar dastgohlarni qo'llash mumkin. Bunday dastgohlarga 1K62, 16K20, 1П611, 1Б616 va boshq. kiradi Supportidan yuqorisiga diametri 100 mm va undan kattaroq, markazlari orasiga 500 va undan uzunroq tanavorni o'rnatib ishlash imkonini beradi.

Masalan 16K20 tokarlik-vintkesar dastgohnini qo'llashimiz mumkin (support yuqorisiga eng katta tashqi diametri 220 mm va markazlararo masofasi 710 mm.li tanavor sig'adi). Bu dastgohnining texnik tafsiflari dunyodagi eng yaxshi standartlarga mos keladi.

5. Mazkur amalning texnologik jihozlari quyidagilar:

a) yetaklovchi tokarlik patroni GOST 2572-72 bo'yicha diametri 400 mm (kodi 39.6110. XXXX):

- b) yetaklovchi bo'yinturuq (xomutik) GOST 2578-70 bo'yicha diametri Ø100 va 62 mm.li-tanavorni mahkamlash uchun (ikki o'rnatuv uchun);
- d) tayanch markaz Morza 6 GOST 2575-79 bo'yicha dastgoh shpindeliga o'rnatish uchun (kodi 39.2844.XXXX);
- e) aylanuvchi markaz Morza 5 GOST 8742-75 ketingi babka penoliga o'rnatish uchun (kodi 39.2842.XXXX).

Keskich asboblarni tanlash texnologik ma'lumotnomalar, GOSTlar va boshqa manbalar bo'yicha amalga oshiriladi. Shunday, birinchi texnologik o'tuvda sirtlarni yo'nish uchun T15K6 qattiq qotishmali plastinka o'rnanilgan o'tuvchi egri keskich qo'llaniladi, plandagi burchagi GOST 18877-73 bo'yicha $\varphi = 45^\circ$, yon sirt hosil qilib bo'yinlarini yo'nish uchun esa - xuddi shunday plastinkali tokarlik tayanch keskichi GOST 18879-73 bo'yicha $\varphi = 90^\circ$ (kodi 39.2131.XXXX). Keskichlarning o'lchamlari - dastgohning keskichtutqichining o'lchami bo'yicha (dastgoh pasporti bo'yicha)- $16\times20\times150$ mm [15].

Qattiq qotishmali plastinkalar yeyilishga chidamli, vakuumda surtilgan "Bulat" tipidagi qoplama ko'zda tutilsa foydali bo'ladi. Bu asboblarning turg'unligini sezilarli orttiradi. demakki, ularning sarfini qisqartirib, jarayon unumдорligi va iqtisodiy tejamkorligini oshiradi.

O'lchamlar nazorati shtangensirkul, changaklar (skoba) va andozalar bilan amalga oshiriladi.

Ishlangan sirt g'adir-budurligini nazorat qilish uchun, tashqi aylanuvchi sirt va yassi sirt uchun GOST 9378-75 bo'yicha tayyorlangan g'adir-budurlik namunasi Ra20 qo'llaniladi.

6. Tanlangan dastgohimizga binoan amalning nomi "Tokarlik-vintkesar" deb nomlanadi (GOST 3.1702-79, 2-ilova).

Amalning o'rnatuvlari va o'tuvlari bo'yicha mazmuni 6.1-jadvalda keltirilgan.

O'tuvlarni birlashtirish va val pog'onalarining burchagi $\varphi = 90^\circ$ li tiraluvchi keskich qo'llash natijasida texnologik o'tuvlar sonini 2 punktda o'rnatilgan 9 tadan 6 tagacha kamaytirish mumkin.

7. Endi qora ishlov berish uchun ratsional qo'shimchlarni hisoblash kerak.

2-o`tuvni bajarishda (6.1-jadvalga qar.) 1-sirt yo`nilmoqda (6.3-rasmga qar.), diametr qo`shimi $2Z = 100 - 91,2 = 8,8$ mm; $t_2 = 2Z/2 = 8,8/2 = 4,4$ mm.

3-o`tuvni bajarishda quyidagini olamiz $2Z = 91,2 - 81,7 = 9,5$ mm; $t_3 = 4,75$ mm.

5-o`tish uchun $2Z = 100 - 86,8 = 13,2$ mm; $t_5 = 3,3$ mm ($i=2$ da).

7-o`tish uchun $2Z = 81,7 - 61,65 = 20,05$ mm; $t_7 = 5$ mm ($i=2$ da).

8. Kesish tartiblarini o`rnatish [15] adabiyot bo`yicha amalga oshiriladi, har bir i-nchi texnologik o`tuw uchun kesish chiqurligi t , bo`yicha surish s_{norm} tanlanadi, dastgoh pasportida berilganlari bo`yicha s_{norm} ga yaqin bo`lgan s_{haq} surish o`rnatiladi; so`ngra kesish tezligi v_{norm} tanlanadi, u bo`yicha shpindelning aylanishlar soni hisoblanadi, ayl/min: $n_{his} = 1000 v_{norm}/(\pi d)$; berilgan dastgoh pasporti bo`yicha n_{haq} haqiqiy qiymati topiladi va haqiqiy kesish tezligi aniqlanadi, m/min:

$$v_{haq} = \pi d \cdot n_{haq}/1000.$$

6.1-jadval (6.1-misol texnologik xaritasi)

O`tuw №	O`tuwlar atamasi	O`chanmlar hisobi		Kesish tartiblari					ta. min	Ty. min
		dia metr mm	uzun ligi mm	t. mm	i mm /ayl	S. ayl/ min	n. ayl/ min	v. m/ min		
1	A-o`rnatuw Tanavor o`rnatsin va mahkamlansin									2,1
2	1 sirt dastlabki yo`nilsim	100	168	4,4	1	0,7	250	78,5	0,96	0,57
3	2 sirt yo`nilsim 3 yon sirt hosil qilinsin	91,2	13	4,75	1	0,7	250	71,6	0,86	0,57
4	B-o`rnatuw Tanavor qayta o`rnatsin									1,7
5	4 sirt yo`nilsim 9 yon sirt hosil qilinsin	100	362	3,3	2	0,7	250	78,5	4,1	1,0
6	5 sirt yo`nilsim 8 yon sirt hosil qilinsin	86,8	242	2,55	2	0,7	815	85,9	1,1	0,57
7	6 sirt yo`nilsim 7 yon sirt hosil qilinsin	81,7	122	5,0	2	0,7	315	80,9	1,1	0,94
8	Tanavor tushirilsin									0,55
9	Ishmi nazorat qilish									
J a m i .				8					8,12	8,0

2-o'tuvni bat afsil ko'rib chiqamiz: kesish chiqurligi $t_2 = 4,4$ mm (7 p.ga qar.); surishni tanlaymiz $s_{norm} = 0,5...0,7$ mm/ayl; o'rnatamiz $s_{hag} = 0,7$ mm/ayl; kesish tezligini tanlaymiz $v_{norm} = 117$ m/min (1.95 m/s); tuzatish koeffitsienti $K_a = K_t = 1$; shpindelning hisobli aylanishlar sonini aniqlaymiz $n_{hs} = 1000 \cdot 117 / (3,14 \cdot 100) = 372$ ayl/min; dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar soni $n_{hag} = 315$ ayl/min; haqiqiy kesish tezligini hisoblaymiz $v_{hag} = 3,14 \cdot 100 \cdot 315 = 99$ m/min.

Endi, tanlangan kesish tezligini dastgoh quvvati bo'yicha tekshirish kerak. Kesish uchun talab etilgan quvvat 8,3 kVt, tuzatish koeffitsienti $K_N = 1$. Shpindel quvvati $N_{shp} = 7,6...8$ kVt. Kinematik zanjir kuchsiz svenosi bo'yicha shpindel quvvati $N_{shp} = 7,6...8,5$ kVt. Bundan kelib chiqadiki, qabul qilingan kesish tartibini bajarish qiyin, chunki talab etilgan quvvat yechimga qaraganda katta ($8,3 > 7,8$).

Bu vaziyatdan chiqish mumkin, yaqinroq bo'lган kichikroq shpindel aylanishlar soni $n_{hag} = 250$ ayl/min.ga o'tib; bu yerda $v_{hag} = 3,14 \cdot 100 \cdot 250 = 78,5$ m/min.

Bu kesish tartibida talab etilgan quvvat 7 kVt ga teng. Kesish jarayonini bajarish mumkin, chunki $N_{tal} < N_{shp}$ shart bajarilmoqda.

Ko'ramizki, kesish tezligini me'yorga qarama-qarshi majburiy kamaytirish asbob turg'unligini oshiradi, bu esa keskich asbobni tejash imkonini beradi.

9. Amalni texnik me'yorlash [14] adabiyot bo'yicha bajariladi. va uning natijasi 6.1-jadvalda keltirilgan: amalning asosiy texnologik vaqt $\sum t_a = 8,12$ min; operativ vaqt $t_{op} = 8,12 + 8 = 16,12$ min; ishchi joyni tashkillashtirish vaqt 0,04 t_{op} miqdorda qabul qilingan [14]:

$$t_{ash} = 0,04 \cdot 16,12 = 0,65 \text{ min};$$

tanaffus va chtiyoj uchun sarflanuvchi vaqt $t_{ext} = 0,04 t_{op} = 0,04 \cdot 16,12 = 0,65$ min; amal donabay vaqt $t_{db} = t_a + t_{yoy} + t_{ash} + t_{ext} = 8,12 + 8 + 0,65 + 0,65 = 17,42$ min; partiya detallar uchun tayyorlovchi-yakunlovchi vaqt [14] bo'yicha $t_{nk} = 16 + 7 = 23$ min; partiyaning $n_h = 30$ dona donabay-kalkulyatsiya vaqt: $t_{dhk} = 17,42 + 23/30 = 18,19$ min;

Sutka ichidagi ishlab chiqarish me'yori $H_{t,hm} = (480-23)/17,42 = 26$ dona.

Biz ko'rayotgan misolda seriyalilik tafsifiga bog'lab yordamchi vaqtini qayta hisoblashning hojati yo'q, chunki partiya

detalga ishlov berishning davomiyligi yig'indisi 1,2 smenani tashkil etadi.

10. Texnologik amalni loyihalash bo'yicha hamma ishlari yakunlangandan keyin natijalarni tahlil qilib ko'rish va ularni iqtisodiy tejamkorligi nuqtayi nazardan baholash zarur, bu jarayonni intensifikatsiyalash yo'lini topish uchun kerak bo'ladi.

Amalning asosiy texnologik vaqtி sezilarli kattaligi diqqatni o'ziga qaratadi. Buni shu bilan tushuntirish mumkinki, tanavor sifatida tanlab olingen prokat qo'llanilganligi sababli metallni (35%) qirindiga chiqarib, kesib tashlashga to'g'ri keladi. Vaziyatdan chiqish yo'li ko'proq ratsionalroq, perspektivroq tanavorlar turlarini qo'llash: shtamplangan pokovkalar va ayniqa rotatsion siqish bilan olinuvchi pokovkalar, qaysinda tanavor tashqi qiyofasi va o'lchamlari bo'yicha tayyor detalga yaqin qilib olinadi. Bu usulda qimmatbaho va murakkab shtamplar qo'llanilmaydi va uni har qanday hajmdagi detallarni chiqarishda qo'llash mumkin.

Hatto tanavor sifatida prokatni qo'llaganda ham metall sarfini birmuncha kamaytirish mumkin. Bu prokatni tegishli dastgohlarda to'g'rilash yo'li bilan amalgalash oshiriladi (presslarda, to'g'rilab-rixtovkalovchi dastgohlar va boshq.). Donali tanavorlarni to'g'rilashda va qoshimchlarni hisoblash-analitik usulida hisoblashda tanavor diametri 100 mm orniga 95 mm olinishi kerak. Bu tanavor massasini 2,9 kg (9,8%) kamaytirish va qora tokarlik ishlov berish sermehnatligini pasaytirish imkonini beradi. Bunda 2-i va 5-tehnologik o'tuvlarning kesish tartiblari o'zgaradi (6.2-jadval).

Bu ikki o'tuvning operativ vaqtı 6,63 min.dan 3,3 min.gacha ya'ni 3,33 min.ga kamayadi, bu t_{op} operativ vaqtini 20,6%ga yaqinrog'ini tashkil etadi.

6.2-jadval

№ O'tuv	O'tuvlar atamasi	O'lchamlar hisobi		Kesish tartiblari						ta min	tx min.
		diam etr mm	uzun ligi mm	t. mm	i	S. mm /ayl	n, ayl/ min	v. m/ min			
2	1 sirt dastlabki yo'nilsin	95	168	1,9	1	0.8	400	119	0,53	0,57	
5	4 sirt yo'nilsin 9 von sirt hosil qilinsin	95	362	4,1	1	0.7	315	94	1,63	0,57	

Bu yerda tegishlicha keskich asboblarining, elektr energiyasi sarflari, dastgohchi ishchilarning ish haqiga, dastgoh amortizatsiyasi uchun sarflanuvchi xarajatlar va boshqalar sezilarli kamayadi.

Tokarlik-gidronusxalovchi dastgohlar qo'llashlik sezilarli iqtisodiy tejamkorlikni beradi. Xususan 16K20M dastgohi.

Agar tokarlik-vintkesar dastgohida bajarilgan amalning sermehnatligini ($t_{dbk} = 18,19$ min) gidronusxalovchi qurilmali tokarlik-vintkesar dastgohida bajarilgan amal sermehnatligi ($t_{dbk} = 13,5$ min) bilan taqqoslasak, unda amal uchun sarflanuvchi vaqt qisqarishi (11.9) formula bo'yicha olinadi

$$C_{vm} = \frac{18,19 - 13,5}{18,19} \cdot 100\% = 25,8\%.$$

Mehnat unumdorligining o'shishi formula (11.10) bo'yicha

$$P_{mv} = 100 \cdot 25,8(100 - 25,8) = 34,8\%.$$

Bu, gidronusxalovchi qurilmali dastgoh qo'llab yo'nish usulining iqtisodiy tejamkor ekanligining isbotidir.


Ko'rileyotgan ishlab chiqarish turida raqamli dastur bilan boshqariluvchi (RDB) dastgohlarni qo'llash yanada yuqori iqtisodiy tejamkorlikni beradi, masalan 16K20Φ3 modelli dastgoh o'zini har tomonlama yaxshi ko'rsatdi. Bu yerda, kesish tartiblari eskicha qolib o'zgarmasa ham, dastgoh avtomatik ravishda boshqarilishi va yordamehi vaqtini sezilarli miqdorda kamayishi kuzatiladi. Ayniqsa yuqori mehnat unumdorligiga, RDB dastgohlardan tashkil topgan va ko'pdastgohli xizmat ko'rsatish usulini qo'llash tatbiq etilganda erishiladi.

Keltirilgan mulohazalar shuni ko'rsatadiki, detallarga mexanik ishlov berishda ishlov berish jarayonini intensifikatsiyalash uchun, samaradorligini oshirishning juda katta rezervlari bor. Muhimi, ularni topib ochish va ishlab chiqarishga aktiv ravishda tatbiq etishdir.

6.1-masala. Pog'onali val (6.4-rasmga qar.) mayda seriyali ishlab chiqarish sharoitida tokarlik dastgohida qora ishlov beriladi. Valning dastlabki tanavori sifatida normal aniqlikdagi qaynoqjo'valangan doira shaklidagi prokat qabul qilingan. Tanavor materiali- donali d_o diametrli, massasi m_{mn} . Tokarlik ishlov berishdan avval L_{um} ushlangan holda ikki yon sirtlari kesib tushirilgan va

markazlar ochilgan. Detal materiali = pol'lat 45X GOST4543-74 ($\sigma_y = 700$ MPa). Variantlar 6.4-rasm bo'yicha berilganlar 6.3-jadvalda keltirilgan. Ishlanuvchi o'lchamlar qo'yimlari $h12$ bo'yicha tayyorlanadi.

T a l a b e t i l a d i: ko'rsatilgan ishlov berish uchun tokarlik-vintkesar amalini loyihalash.



6.4-rasm
6.3-jadval (6.1-masalaning berilganlari)


Variant	Tanavor			Detallarning o'lchamlari							
	O'lchamlar, mm		Massa, kg	d_1	d_2	d_3	d_4	L_1	L_2	L_3	L_4
	d_o	L_{num}	m_{num}								
I	80	430	17	51.3	76.2	46.5	31.3	346.2	317.2	117.4	82.8
II	95	460	25.6	61.6	86.9	56.7	51.4	381.2	342.4	132.4	78.8
III	70	320	9.7	41.5	66	36.5	31.2	246.2	177.2	97.4	74
IV	195	450	30.5	71.4	95.8	66.5	56.3	361.2	317.4	137.4	88.8
V	65	325	8.4	36.3	61.2	31.4	26.3	241.2	217.4	77.4	84
VI	110	425	31.8	81.6	106	76.5	66.5	316.2	292.4	127.4	108.8
VII	75	400	13.9	46.3	71.6	41.5	36.3	326.2	297.4	107.4	73.8
VIII	110	420	31.4	76.4	101	71.5	61.4	321.2	282.4	132.4	98.8
IX	90	450	22.5	66.4	81	51.4	46.4	371.2	332.4	127.4	78.8
X	60	300	6.7	31.3	56.2	26.4	21.2	231.2	202.4	82.4	69

6.3. Tanavori shtamplangan pokovkali pog'onali val uchun tokarlik-vintkesar dastgohida qora ishlov berish tokarlik amalini loyihalash

6.2-misol. Pog'onali val (6.1-rasmiga qar.) seriyali ishlabs chiqarish sharoitida tokarlik dastgohida qora ishlov beriladi. Valning dastlabki tanavori - orttirilgan aniqlikdagi (I sinf) shtamplangan pokovka-termik ishlangan, to'g'rilangan, tozalangan, yon sirtlariga

ishlov berilgan va markazlari ochilgan. Natijada tanavorning chetki yen sirtlari uzil-kesil ishlangan va ularda markaziy teshiklar hosil qilingan (navbatdagi ishlov berish uchun texnologik baza tayyorlangan). Tanavor massasi $m_h = 22,4$ kg. Materiali = po'lat 45 GOST 1050-74 bo'yicha ($\sigma_y=700$ MPa). Termik ishlangandan keyin (yaxshilangan) HRC30...35 qattiqlik olingan. Ishlov berilgandan keyingi detal holati 6.2-rasmida tasvirlangan va shtamplangan pokovkasi o'lchamlari bilan 6.5-rasmda keltirilgan.

Ta l a b e t i l a d i: qora ishlov berish texnologik amalini loyihalash [4].



6.5-rasm

Yechish. Loyihalanuvchi amalda 9 sirtga ishlov beriladi – 5 tashqi silindrik sirtga va 4 pog'onalar yon sirtlariga. Hamma sirtlarning aniqligi uncha yuqori emas (12 kvalitet), sirtlar g'adir-budurligi katta ($R_a=20$ yoki $R_z=80$ mkm).


Shtamplangan pokovkada shunday parametrлarni olish uchun, bir marotabali yo'nish yetarlidir.

Mehanik ishlov berish uchun hamma sirtlarning qo'shimlari nisbatan katta emas va taxminan bir xilda (diametrлarniki - 4,4 dan 5,1 mm.gacha, uzunligininki – 2,4 dan 4,8 mm.gacha).

Muhim diqqatni chiziqli o'lchamlarni qo'yish tizimiga qaratish. Ularning hammasi baza hisoblanuvchi bir pog'ona yon sirtdan boshlab qo'yilgan. Shuning uchun uni amalning boshida ishlov berish kerak, keyinchalik undan boshlab barch qolgan chiziqli o'lchamlarni o'lhash uchun.

2. Amal strukturasi va tashkil etuvchilar bazaviy yon sirtga birinchi navbatda ishlov berish zarurligidan kelib chiqqan holda o'rnatiladi, shuning uchun amal ikki o'rnatuvda bajariladi (6.6-rasm). Texnologik o'tuvlarning soni ishlanuvchi sirtlar soni bo'yicha – 9 ta

(6.4-jadval), ammo texnologik va yordamchi o'tuvlarni o'rinalashtirish hisobiga ularning sonini qisqartirish mumkin.



6.6-rasm

3. Ishlab chiqarish turi seriyali ekanligini hisobga olib, qo'llaniluvchi texnologik jihozlar universal va qisman maxsuslashtirilgan bo'lishi mumkin.

4. Dastgohni tanlash 6.1-misoldagi kabi olib boriladi.

6.4-jadval (6.2-misolning texnologik xaritasi)

№	O'tuvlar atamasi	O'lehamilar hisobi		Kesish tartiblari					ta, min	Ty, min
		diam etr mm	uzu ndigi mm	t mm	i	S. m m/a yl	n _s ayl/ min	v _s m/ min		
1	A-o'matvv. Tanavor o'matilsin va mahkamlansin									2,1
2	2 sirt yo'nilsin 3 chiqiq von sirti hosil qilinsin	86.8	43	2.55	1	0.8	160	43,6	0.34	0.63
3	Sirt yo'nilsin	96.2	127	2.5	1	0.8	160	48,4	1.0	0.63
4	B-o'matuv. Tanavor qayta o'matilsin									1,7
5	4 sirt yo'nilsin 5 chiqiq von sirti hosil qilinsin	66.8	83	2.5	1	0.8	250	52,5	0.42	0.63
6	6 sirt yo'nilsin 7 chiqiq von sirti hosil qilinsin	86.8	125	2.55	1	0.8	160	43,6	0.98	0.63
7	8 sirt yo'nilsin 9 chiqiq von suti hosil qilinsin	91.2	125	2.2	1	0.8	160	45,8	0.98	0.67
8	Ishni nazorat qilish									0.66
9	Tanavor tushurilsin									
Jami					5				3.72	7,61

5. Texnologik jihozlarga ham tegishli, ammo quyidagi farqlari bor: tanavorni chetki pog'onalariga o'rnatiluvchi bo'yinturuqlar 67 va 82 mm.li diametrlerda bo'lishi zarur; hamma ishlov berishlar burchagi $\varphi = 90^\circ$ T15K10 qattiq qotishmali plastinka bilan jihozlangan tokarlik tayanch egri keskich bilan bajarish mumkin bo'ladi; o'lchamlarni nazorat qilish uchun faqat changak (skoba) va andoza qo'llaniladi.

6. Amalning nomi va mazmuni.

Amalning nomi – Tokarlik-vintkesar. Amalning mazmuni, o'rnatuvlar va o'tuvlar bo'yicha 6.4-jadvalga qarang.

7. Ishlov berish uchun amallar qo'shimlarini o'rnatish 6.1-misolda bayon etilgan usul bo'yicha o'rnatiladi.

8. Kesish tartiblarini o'rnatishni misol tariqasida 2-o'tuv uchun olib boramiz:

Kesish chuqurligi $t_2 = 2,55$ mm (6.4-jadvalga qar.), surishni me'yor bo'yicha (8,1 qism) tanlaymiz, dastgoh pasporti bo'yicha tuzatish kiritamiz; $s_{fakt} = 0,8$ mm/ayl; kesish tezligini me'yor bo'yicha tanlaymiz: $v_{mey} = 51$ m/min, tanavor sirtining holatini tuzatish koeffitsienti $K_t = 1$; shpindelning hisobli aylanishlar sonini aniqlaymiz:

$$n_{his} = 1000 \cdot 51 / (3,14 \cdot 86,8) = 187 \text{ ayl/min};$$

unga dastgoh pasporti bo'yicha tuzatish kiritamiz: $n_{fakt} = 160$ ayl/min; faktik kesish tezligi teng bo'ladi

$$v_{fakt} = 0,001 \cdot 3,14 \cdot 86,8 \cdot 160 = 43,6 \text{ m/min};$$

kerakli quvvatni aniqlaymiz va pasportda berilganlar bilan qiyoslaymiz:

$N_{kes} = 2,9 \text{ kVt}$, dastgoh pasporti bo'yicha shpindeldagi quvvat esa;

$N_{shp} = 7 \text{kVt}$, ya'ni $N_{kes} < N_{shp}$: demak o'rnatilgan kesish tartibida ishlov berish mumkin.

Hamma texnologik o'tuvlar bo'yicha kesish tartiblari shu kabi o'rnatilib, amallar xaritasiga (OX) kiritiladi.

9. Amalni texnik me'yorlashni [14] bo'yicha bajaramiz:

asosiy texnologik vaqt $t_a = 3,72$ min:

yordamchi vaqt $t_{yor} = 7,61$ min;

operativ vaqt $t_{op} = 3,72 + 7,61 = 11,33$ min;

ishchi joyni tashkillashtirish vaqt $t_{tash} = 0,04 \times 11,33 = 0,45$ min;

ehtiyoj uchun sarflanuvchi vaqt $t_{ev} = 0,04 \times 11,33 = 0,45$ min;

donabay vaqt $t_{dh} = 3.72 + 7.61 + 0.45 + 0.45 = 12.23$ min;

tayyorlovchi-yakunlovchi vaqt $t_{tayk} = 23$ min;

donali-kalkulatsiyalash vaqt $n_d = 50$ donada:

$t_{dk} = 12.23 + 23/50 = 12.69$ min;

smena ishlab chiqarish me`yori $M_{ich} = (480 - 23)/12.23 = 37$ dona.

10. Loyihalangan tokarlik-vintkesar amalini tahlillashdan kelib chiqadigan xulosa va takliflar quyidagilar:

1) shtamplangan tanavorni qora ishlov berish sermehnatligini ($t_{dk} = 12.69$ min) qaynoqjo`valangan prokatdan tayyorlangan o`sha valning sermehnatligi bilan ($t_{dk} = 18.19$ min) solishtirib, diqqatimizni sermehnatlik 5.3 min.ga qisqarganligiga qaratamiz, ya`ni bu 30% tashkil qiladi. Undan tashqari, metallni sezilarli tejab qolamiz. Bu omillar dastlabki tanavorni, shakli va o`lchamlarini tayyor detal shakl va o`lchamlariga yaqin qilib tayyorlash, ya`ni shtamplangan yoki quyma tanavorlarni qo`llash maqsadga muvosiq ekanligini tasdiqlaydi;

2) ko`rilayotgan misolimizda operativ vaqt $t_{op} = 11.33$ min. yordamchi vaqt $t_{vor} = 7.61$ min, qaysi 67% ni tashkil etadi, ya`ni amalning uchdan ikki qism vaqt qo`lda bajariladi va faqatgina uchdan bir qism vaqt ichida dastgoh ishlaydi. Ko`rinib turibdiki, amallarni mexanizatsiyalash yo'llarini qidirish kerak. Uslublardan biri avvalgi dastgoh va moslamalarning o`zini qoldirib, gidronusxalovchi support qo`llash hisoblanadi.

Shu detalni o`ziga gidrosupportli dastgohda ishlov berish, o`rnatishlar soni bo`yicha ikki amalda bajariladi. Bu amallar mazmuni va texnikaviy me`yorlash 6.5-jadvalda keltirilgan.

Ikki tokarlik-nusxalash amallarning donali-kalkulatsiyalash vaqt $t_{dk} = 11.26$ min (odatdagи tokarlik ishlov berishda $t_{dk} = 12.69$ min). Yordamchi vaqt $t_{vor} = 5.2$ min. Donali-kalkulatsiyalash vaqtining 1,43 min.ga umumiy qisqartirilishi mehnat unumdarligining 12,7% o'sishini beradi.

6.5-jadval (Gidronusxalash variantning amaly texnologik xartasi)								
O'tuvilar atamasi shartida	Q'ishchalar hisobi				Kesish tariflari			
	Dia metr, mm	Uzun ligi, mm	t, mm	S, mm /ayl/	n, ayl/ min	v, m/ min	ta, min	Tu, min
I amal								2,1
1 Tanavor o'mnatilin va makhmalansin]								
2 3, 2 va 1 surtlar nusza bo'yicha ketma-ket yo'nilsin	96,2	173	2,55	1	0,8	160	48,4	0,42
3 Ishni nazorat qilish								
4 Tanavor tushirlisin va idishga taxlansin								0,08
J a m i -							1,35	2,6
II amal								
1 Tanavor o'mnatilin va makhmalansin								2,1
2 4,5,6,7,8, va 9 sirtlar nusza bo'yicha ketma- ket yo'nilsin	96,2	350	2,55	1	0,8	160	48,4	0,42
3 Ishni nazorat qilish								
4 Tanavor tushirlisin va idishga taxlansin								0,08
J a m i								
Harmasi								
							1	2,73
							2	4,08
								2,6
								5,2

6.2-masala. Pog'onali val (6.1-rasmga qar.) seriyali ishlab chiqarish sharoitida tokarlik dastgohida qora ishlov beriladi. Valning dastlabki tanavori - orttirilgan aniqlikdagi (1 sinf) shtamplangan pokovka-termik ishlangan, to`g'rilangan, tozalangan, yon sirtlariga

6.6-jadval (6.2-masalaning berilganlari)


Variant	O'ichamnlari, mm							Homoki massasi, kg
	d_1	d_2	d_3	d_4	L_1	L_2	L_3	
I, VI	1,3 $56 \pm 0,7$	1,3 $30,4 \pm 0,7$	1,2 $51 \pm 0,7$	1,2 $36,2 \pm 0,6$	348,2	321,2	121,6	81,8 10,5
	51,56	76,2	46,56	31,34	346,2	317,2	117,4	33,8 -
II, VII	1,3 $66,2 \pm 0,7$	1,3 $90,6 \pm 0,7$	1,3 $61,2 \pm 0,7$	1,2 $45,6 \pm 0,6$	383,3	346,5	136,4	77,2 15,5
	61,7	86,9	56,7	51,4	381,2	342,4	132,4	78,8 -
III, VIII	1,2 $45 \pm 0,6$	1,3 $69,4 \pm 0,7$	1,2 $40 \pm 0,6$	1,2 $34,4 \pm 0,6$	247,7	180	99,2	72,7 5,7
	41,5	66	36,53	31,24	24,62	177,2	97,4	74,0 -
IV, IX	1,3 $76,2 \pm 0,7$	1,3 $101 \pm 0,7$	1,3 $71,2 \pm 0,7$	1,3 $61,6 \pm 0,7$	363,3	321,6	141,4	87,2 19,2
	71,5	95,8	66,5	56,3	361,2	317,4	137,4	88,8 -
V, X	1,0 $39,8 \pm 0,5$	1,2 $64,4 \pm 0,6$	1,0 $34 \pm 0,5$	1,0 $29,2 \pm 0,5$	242,6	220,2	80,4	82,8 4,2
	36,4	61,2	31,4	26,3	241,2	217,2	77,4	84 -

Eslatma 1. Dopusklan bilan va birinch qatordag'i uzunlik o'ichamlari daslabki berilgan taravornka.

2. Detal o'ichamlari 12-kvalitet amoddida bajarilgan (h12)

ishlov berilgan va markazlari ochilgan. Natijada tanavorning chetki yon sirtlari uzil-kesil ishlangan va ularda markaziy teshiklar hosil qilingan (navbatdagi ishlov berish uchun texnologik baza). Materiali = po'lat 45X (GOST 4543-74) bo'yicha . Termik ishlangandan keyin (yaxshilangan) HRC30...35 qattiqlik olingan. Tanavor o'lchamlari, ko'riluvchi amaldan oldin ham va keyin ham 6.6a-rasmdagi belgilanishlar bo'yicha 6.6-jadvalda ko'rsatilgan.

Ta l a b e t i l a d i: I...7 sirtlarga gidrosupport qo'llamasdan (I.III,V.VII,IX variantlar) va uni qo'llab (juft variantlar) qora ishlov berish tokarlik-vintkesar



6.6-a-rasm

amalni loyihalash. Bajarilgan ishlarning natijalariga qarab mehnat unumдорлиги ко'rsatkichlari bo'yicha taqqoslash о'tkazilsin.


6.4. Tanavori shtamplangan pokovkali pog'onali valga tokarlik yarimavtomatda ishlov berish amalini loyihalash

6.3-misol. Pog'onali val (6.1-rasmga qar.) yirikseriyali ishlab chiqarish sharoitida tokarlik dastgohida qora ishlov beriladi. Valning tanavori - 1 sinf aniqlikdagi shtamplangan pokovka-termik ishlangan, to'g'rilangan, tozalangan, chetki yon sirtlariga uzil-kesil ishlov berilgan, markazlari ochilib teshiklar hosil qilingan, yani navbatdagi ishlov berish uchun sisatl texnologik baza tayyorlangan (6.5-rasmga qar.). Tanavor massasi $m_h = 22.4$ kg. Materiali = po'lat 45 GOST 1050-74, bo'yicha ($\sigma_r = 700$ MPa). Termik ishlangandan keyin (yaxshilangan) HRC30...35 qattiqlik olingan. Tanavorning ishlov berilgandan oldingi va keyingi o'lchamlari 6.5, 6.7 va 6.8-rasmlarda keltirilgan.

Ta l a b e t i l a d i: yarimavtomatda ishlov berish texnologik amalini loyihalash [4].


Yechish. 1. Loyihalanuvchi amalda 9 sirtga ishlov beriladi - 5 tashqi silindrik sirt va 4 chig'anoqlarning yon sirtlariga. Hamma sirtlarning aniqligi yuqori emas (12 kvalitet), sirtlar g'adir-budurliklari $Rz=80$ mkm. Shtamplangan pokovkaning sirtlarida, shunday parametrlar olish uchun tanavor ishlanuvchi sirtlarini bir marotaba qora yo'nish kisoyadir. Mexanik ishlov berish uchun olinuvchi qo'shimlar, hamma sirtlarda uncha katta bo'lmay, taxminan bir xildadir.

Tanavorning hamma chiziqli o'lchamlari baza hisoblanuvchi bitta yon sirdan berilgan. Keyinchalik hamma chiziqli o'lchamlarni shu sirdan boshlab ushlash uchun unga amallarning eng boshida ishlov berish zarur.



6.7-rasm

Oldinda turgan katta kesish kuchi kuzatilishi bilan bog'liq bo'lgan ko'pkeskichli ishlov berishda valning bikirligini tekshirish zarur. Vallar bikirligining mezoni bo'lib, ularning umumiy uzunligi L_{um} ni o'rtacha diametri d_o ga bo'lgan nisbati hisoblanadi. Agar $L_{um}/d_o \leq 10\dots 12$ bo'ssa, valning bikirligi yetarli hisoblanadi. Bu yerda $d_o = (d_1 l_1 + d_2 l_2 + \dots + d_n l_n)/L_{um}$, bunda d_i ; l_i – tegishlich va val pog'onasining diametri va uzunligidir. Bizning misolimizda $d_o = (81,7 \cdot 38,8 + 91,2 \cdot 122,4 + 85,8 \cdot 120 + 81,7 \cdot 120 + 61,65 \cdot 78,8)/480 = 82,11$ mm, $L_{um}/d_o = 480/82,11 = 5,85$ esa valning bikirligi yetarli ekanligi va unga ko'pkeskichli ishlov berish mumkinligini ko'rsatadi.



6.8-rasm

2. Tanavorning chetki pog'onasi yetaklovchi patronga o'rnatiladi. Binobarin, rostlanib ishlayotgan dastgoh bo'yicha hamma sirtlarga bir amalda ishlov berib bo'lmaydi. Shuning uchun amal ikkita bo'lishi zarur. Har bir ko'pkeskichli amal bir vaqtida ishlovchi supportlar bilan (bo'ylama suriluvchi support silindrik sirtlarni yo'nadi, ko'ndalang suriluvchi support esa yon sirtlar, ariqchalar va boshqa sirtlarni yo'nadi) bajariluvchi, tanavorning o'rnatilishi va mahkamlanishi, tushirilishi, nazorati va idishga taxlanishi bo'yicha bitta o'rnatuvdan, ikkita texnologik o'tuvdan va birnechta yordamchi o'tuvlardan tashkil topgan.

Pastda amallardan birining (6.7-rasm) loyihalanish tartibi bat afsil, ikkinchisini (6.8-rasm) qisqacha bayon etilgan.

3. Ishlanuvchi tanavor val sinfiga mansub va tokarlik amallarda texnologik baza bo'lib, frezalash-markazlash amalida bajarilgan ikki chetki yon sirtlaridagi markaziy teshiklar hisoblanadi.

Bu ikki sirtdan tashqari texnologik bazaga kiruvchi, sozlangan ko'pkeskichli yarimavtomatda tanavorni o'q yo'nalishida to'g'ri joylashtirishga imkon beruvchi sirt kerak bo'ladi. Bunday sirt qilib, tanavor diametri 66,8 mm.li chetki pog'onasi sirtini qabul qilish lozim. Shu maqsadda cho'kuvchi old markaz ishlatiladigan yetaklovchi patron konstruksiyasida ko'zda tutilgan. Tanavorni bazalash sxemasi 6.7-rasmda keltirilgan.

4. Keskichlarni "ishlov berish uzunligini bo'lish" usuli bo'yicha joylashtiramiz. Bunda har bir keskich, taxminan bir xil yuklamaga ega bo'ladi, ishechi yurish uzunligi minimal bo'ladi, jarayon unumдорлиги esa - maksimal.

1 va 2 pog'onalar uzunliklari (6.7-ras. qar.) tegishlicha 120 va 40 mm.ga yaqin va shuning uchun 2 pog'onaga bitta keskich ishlov beradi. 1 pog'onaga esa- bir vaqtning o'zida ucta keskich. Ko'ndalang support ishchi yurishi uzunligini tanavorga kirish, undan chiqish va egri kesib kirishlari uzunliklarini hisobga olgan holda 50 mm qabul qilish mumkin. Ko'ndalang supportga, yon sirtlarni kesib tushirish uchun, hammasi bo'lib bitta keskich o'rnatiladi.

5. Ko'pkeskichli ishlov berish uchun avvallari 1A720, 1A730 va boshqa modelli ko'pkeskichli yarimavtomatlar qo'llanilgan edi.

Keyinchalik ularning o'rniaga ko'pkeskichli-nusxalovchi yarimavto matlar barpo etildi. ular ko'pkeskichli va nusxalovchi yarim avtomatlarning modellari 1708, 1718, 1H713, 1719 va boshq. texnologik imkoniyatlarini birlashtirdi [4]. O'zimizning tanlovimizni, 1H713 modelli yarimavtomatda to'xtatamiz. Bu yarimavtomat sinovlarda yaxshi tavsiyalar olgan. Bu dastgohlar bazasida 1713L, 1713TФ3 modelli RDB dastgohlari yaratilgan. Berilgan detalga ishlov berish uchun tanlagan dastgohimizning to'g'riligi, uning texnik tafsilotlarini tanavorning o'lchamlari bilan taqoslash orqali tasdiqlanadi.

6. Yetaklovchi vosita sifatida avtomatik siquvchi cho'kuvchi markazli ikki quloqli yetaklovchi patron qo'llaymiz. [4]. Bunday patron tanavorni ikki sirti bo'yicha bazarlashni ta'minlaydi: tanavorning markazlovchi teshigi va yon sirti bo'yicha. O'ng tomonidagi markazlovchi teshik bo'yicha markazlash uchun dastgohning ketingi babkasiga o'rnatiluvchi aylanuvchi markaz qo'llaniladi.

Yordamchi asbeblar sifatida ikkita keskichtutqich qo'llaniladi: bo'ylama support maydonchasiga keskichlar komplektini o'rnatish uchun maxsus blokli keskichtutqich va kesib tushiruvchi keskich o'rnatish uchun ko'ndalang supportga o'rnatiluvchi keskich tutqich. Dastgohni sozlash yoki qayta sozlash vaqtini qisqartirish uchun keskichtutqichdagi keskichlarni dastgohdan tashqarida andoza bo'yicha o'rnatish lozim. Bu mehnat unumдорligini oshirib, vaqt bo'yicha dastgohning yaxshi qollanilishini ta'minlaydi.

1 sirtni yo'nish uchun (6.7-ras. qar.) T15K10 qattiq qotishmali plastinkali 2102-0029 uchta tokarlik o'tuvchi keskich, 2 sirtni yo'nish uchun-2103-0023 tayanch (to'g'ri) egilgan keskich va 3 yon sirtni kesib tushirish uchun-2112-0015 tokarlik kesib tushiruvchi egilgan keskichlar qo'llaniladi.

Diametral o'lchamlarni nazorat qilish uchun 81,7h12 va 91,2h12 o'lchamlik changaklar, chiziqli o'lchamlarni nazorati uchun $L^1=441,2h10$ va $L^2=316,\pm 1$ maxsus andozalar ishlataladi. ishlangan sirtlar g'adir-budurligining nazorati uchun esa g'adir-budurligi $R_a=20$ mkm.li namunalar qo'llaniladi.

7. Amalning nomi – avtomatlik tokarlik (kodi 4112). O’tuvlar, kesish tartiblari va texnik me’yorlash natijalari bo’yicha amalning mazmuni 6.7-jadvalda keltirilgan.

8. Qora ishlov berish uchun qo’shimlarni dastlabki tanavor o’lchamlarini tegishli sirtlar o’lchamlari bilan ishlovdan keyin taqqoslab aniqlanadi. Qo’shimlar qiymatlariga qarab, kesish chuqurligi tayinlanadi (6.7-jad.).

1 sirtga ishlov beruvchi uchta keskich uchun ishchi yurish uzunligi $L_{i,y1} = L_{0I}/3 + l_I + l_{nr}$ ga teng, bunda L_{0I} – tanavor 1 sirti uzunligi; l_I va l_{nr} – kirish va chiqish [15]; l_{nr} – ishchi yurishdan avvalgi keskich va tanavor o’ralig’idagi xavfsizlik tirqishi, va h .

$$L_{i,y1} = 126,8/3 + 9 + 2,7 = 54 \text{ mm.}$$

2 sirtga ishlov beruvchi keskich uchun, ishchi yurishning hisobli uzunligi yuqoridagiga o’xshash aniqlanadi:

$$L_{i,y2} = 38,8 + 2,5 + 2,7 = 44 \text{ mm.}$$

